

**R.Musurmanov, K.M.Xurramov,  
A.N.Rasulov**

# **STRATEGIK MENEJMENT**



**Toshkent  
2024**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

R.Musurmanov, K.M.Xurramov, A.N.Rasulov

# STRATEGIK MENEJMENT

*O'QUV QO'LLANMA*

*60112500-“Maktab menejmenti” bakalavriat ta'lif  
yo'naliishi talabalari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent  
«Sarbon LLS»  
2024

**UO'K 005.21**

**KBK 65.290-2**

**M-88**

R.Musurmanov, K.M.Xurramov, A.N.Rasulov. Strategik menejment . O'quv qo'llanma. – T.: "Sarbon LLS", 2024. 286 b.

### **Taqrizchilar:**

**D.O.Himmataliev** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Pedagogika" kafedrasи professori, pedagogika fanlari doktori.

**Sh.Pulatov** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Ushbu o'quv qo'llanma "Strategik menejment" fanining fan dasturiga muvofiq tayyorlangan bo'lib, mazkur o'quv qo'llanma iqtisodiyot sohasida ta'lif olayotgan talabalarga muljallangan bo'lib, uning maqsadi qanday qilib strategik boshqaruvni muvaffaqiyatli olib borish va uning qonun-qoidalariga asosan ishlab chiqarish faoliyatini o'rGANIB, ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalarini oydinlashtirishdir. Ya'ni strategik boshqaruv qonunlari asosida qanday qilib atrof-muhitdagi hayot bilan uyg'unlashib yashash va unda muvaffaqiyatli ishslash atroficha yoritilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmadan oliy o'quv yurtlarining talabalari, shuningdek, professor o'qituvchilar, magistrlar, ilmiy izlanuvchilar va strategik menejment yo'nalishi bo'yicha shug'ullanayotgan tadqiqotchilar ham foydalanishlari mumkin.

*O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagи 55-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan*

O'ZBEKIS ISBN 978-9910-9398-5-3



### **KIRISH**

«Strategiya» atamasi yunoncha so'z bo'lib, «generalning san'ati» demakdir. «Strategik boshqarish» atamasi 1960-1970 yillarda yo'qori pog'onada amalga oshiriladigan boshqarishni ishlab chiqarish darajasidagi boshqarishdan farqini ifodalamoq uchun kundalik hayotga kirib keldi.

Zamonaviy sharoitlarda mamlakatimiz ravnaqini rivojlantirishda kelgusida yo'qori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalarda korxonalarda strategik boshqaruvni tashkil etish bosqichlari, iqtisodiyotni erkinlashuvi sharoitida mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotishni ko'paytirishning eng zarur omillari va imkoniyatlarini aniqlay olish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning uslubiy asoslari, istiqbolli va tezkor usullarini turli tarmoqlar moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil etishda qo'llash masalalari bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni shakllantirish zamon talabidagi dolzarb masalalardan biridir.

Strategik boshqarish deganda ishlab chiqarish (firma) ning inson salohiyatiga suyanishi, ishlab chiqarish faoliyatida iste'molchi talabiga ko'ra ish ko'rishi, tashkilotda tez moslashuv va o'z vaqtida o'zgarishlarni amalga oshirish, uzoq istiqbolda o'z maqsadlarini saqlab qolish va pirovard natijada maqsadlarga erishishga imkon berilishi tushuniladi. Murakkablashib boradigan raqobatli kurashda korxona omon qolishi uchun strategik boshqarish muhim omil bo'lishiga qaramay, tashkilotlar strategik harakatda qaramaylik bo'lmasligi oqibatida ko'p hollarda bozor raqobatiga bardosh berolmay, mag'lubiyatga uchrashi mumkin. Strategik boshqaruvning yo'qligi, avvalo quyidagi ikki shaklda gavdalanadi.

Birinchidan, tashkilot o'z faoliyatini shunday rejalashtiradiki, guyoatrofidagimuhito'zgarmaydi, o'zgarsaham unda sifat uzgarishi ruy bermaydi. Strategiyasiz boshqarishda muayyan harakatlarning rejasi muhitning haqiqiy holati amalda o'zgarmaydigan qilib tuziladi. Ekstropolyatsiya(narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga tatbiq etish) usuliga asoslanib, uzoq

yillarga tuziladigan rejalarning belgilari strategik boshqarish bo'lmaydi. Uzoqmuddatli istiqbolnikurabilishboshqarishning muhim tarkibi ammo amalda mavjud ekstropolyatsiya va mavjud muhitning holatini oldindan bashoratlash strategik boshqarish degani emas. Strategik boshqarishda tashkilot faoliyat kursatayotgan vaqtning har bir onida kelajakda erishmoqchi bo'lgan maqsadlari o'z ifodasini topadi, ya'ni guyo kelajakda turib, hozirgi davrga qarash amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda tashkilot harakati aniqlanadi va ruyobga chiqariladi, reja esa ishlab chiqilmaydi yoki kelajaada tashkilot nima qilmog'i kerak degan savol to'g'ilmaydi. Bunda strategik boshqarishga xoslik shuki, tashkilotning kelajakda istalayotgan holati belgilanibgina qolmay, atrofdagi uzgarishlarni sezaladigan va kelajakdagi istalgan maqsadlarga erishish imkonini beradigan qobiliyat ishlab chiqiladi.

Ikkinchidan, strategik boshqarish bir qolipdagi bajariladigan ish tartibi va sxemasi emas. Uning yoziladigan nazariyasi yo'qliki, ma'lum masalalarni yoki muayyan holatlarda nima va qanday qilib yechish kerakligi kursatilsa. Strategik boshqarish - bu biznes va menejmentning ma'lum falsafasi yoki mafkurasi deyish mumkin. Strategik boshqarishni har bir menejer ma'lum darajada o'zicha tushunadi va amalga oshiradi. Albatta, qator tavsiyalar, qoidalar va strategiyaning muammolarini tahlil qilishning mantiqiy sxemalari va tanlash imkoniyati mavjud, shu bilan birga strategik rejalshtirishni va strategiyanı amaliy ruyobga chiqarish ham mumkin.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligining asosiy bo'g'inlari bo'lgan ishlab chiqarish korxonalarini va xizmat ko'rsatish kompaniyalarini strategik boshqarish, buning natijasida jahon bozorida o'z mavqeiga ega bo'lish, raqobatchilikda yutib chiqish, mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishdir.

"Strategik menejment" fanidan tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma kredit model tizim ta'lim yo'nalishidagi Oliy pedagogik ta'lim muassasalari **60112500-“Maktab menejmenti”** bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, fan dasturi asosida tayyorlandi.

## 1-MAVZU. "STRATEGIK MENEJMENT" FANINING PREDMETI VA BOSHQARUV JARAYONI

### REJA:

1. "Strategik menejment" fanining predmeti, vazifalari va mohiyati.
2. Kompaniya missiyasi va strategik qarashlarni belgilash.
3. Strategik boshqarishning maqsadi va uning turlari.
4. Strategiyanı tanlash va uni amalga oshirish, amalga oshirishini baholash hamda nazorat qilish.

**Tayanch so'z va iboralar:** strategiya, strategik boshqarish, strategik baholash, tasavvur, kredo, missiya.

### 1.1. "Strategik menejment" fanining predmeti, vazifalari va mohiyati

«Strategik boshqaruv» atamasini yo'qori darajadagi boshqaruvni ishlab chiqarishning joriy boshqaruvdan farqini aks ettirish uchun 1960-1970-yillarda muomalaga kiritilgan. Orerativ boshqaruvdan strategik boshqaruvga o'tishning mohiyatini aks ettiruvchi asosiylig'oya sifatida yo'qori rahbariyat diqqat markazini atrof muhitdagi o'zgarishlarga muvofiq tarzda va o'z vaqtida ta'sir ko'rsatish uchun tashqi muhitga o'tkazish zaruriyati sifatidagi o'ziga xos g'oya bo'lgan.

**Strategiya so'zi yunoncha “strategos”** so'zidan kelib chiqqan bo'lib, **“geniralning sana'ti”** ma'nosini bildiradi.

Strategik boshqaruv nazariyasining nufuzli ishlab chiqaruvchilari tomonidan taklif etilgan bir qancha ta'riflarni ko'rib chiqaylik. Shendel va Hatten uni «tashkilotni uning atrofidagi muhit bilan aloqani aniqlash va o'rnatish jarayoni» sifatida tushunganlar. Ushbu jarayon tanlangan maqsadlarni amalga oshirish va resurslarni taqsimlash vositasida atrof muhit

bilan ko'ngildagiday o'zaro munosabatlar holatiga vaziyatish harakatlaridan iborat. Xichchens fikri bo'yicha «strategik boshqaruv - bu tashkilotni uning atrof muhitini bilan o'zaro ta'sirini boshqarish vositasida tashkilot vazifalarini amalga oshirish maqsadidagi boshqarish jarayoni: Pirs va Robinson strategik boshqaruvni «tashkilot maqsadiga vaziyatish uchun ishlab chiqilgan strategiyalarni shakllantirish va bajarish bo'yicha qarorlar va harakatlar to'plami» sifatida aniqlaydilar. Strategik boshqaruvning u yoki bu xususiyatlariga ko'proq e'tibor beruvchi bir qator ta'riflar bor.

**Demak**, strategik boshqaruvni tashkilotning asosi sifatida inson potentsialiga suyanuvchi, ishlab chiqarish faoliyatini iste'molchilar talablariga yo'naltiruvchi va o'z vaqtida o'zgarishlarni amalga oshiruvchi boshqaruv sifatida aniqlashi mumkin.

Strategik boshqaruvning yo'qligi quyidagi ikki shaklda namoyon bo'ldi.

**Birinchidan**, tashkilotlar o'z faoliyatini atrof muhit umuman o'zgarmaydi yoki unda katta o'zgarishlar bo'lmaydi, degan taxminden kelib chiqqan holda rejalshtiradilar. Nimaki va qachon qilishni o'z ichiga olgan uzoq muddatli rejalarни tuzish va dastlabki davrda kelgusi yillar uchun yechim izlash, «uzoq yillarga» sotib olish - bularning barchasi nostrategik boshqaruvning belgilari. Uzoq muddatli istiqbolni qurish boshqaruvning juda muhim tarkibiy qismidir.

Strategik boshqaruv holatida tashkilot atrof muhit va tashkilot hayotining sharoitlari o'zgarishidan kelib chiqqan holda kelajakda ko'zda tutish maqsadlarga vaziyatish uchun har bir hozirgi lahzada u aynan hozirgi paytda nima strategik boshqaruvda kelajakdan turib hozirgi paytga nazar tashlanadi. Tashkilotga ma'lum kelajakni ta'minlovchi hozirgi davrdagi tashkilot harakatlari aniqlanadi va amalga oshiriladi. Bunda strategik boshqaruv uchun shu narsa ham xarakterlik, nafaqat kelajakda korxonaning ko'zda tutilgan holati qayd

qilinadi, balki shu ham strategik boshqaruvning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi, ko'zda tutilgan maqsadlarga vaziyatish imkoniyatini beruvchi atrofdagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyati ishlab chiqiladi.

**Ikkinchidan**, strategik boshqaruvda harakat dasturini ishlab chiqish tashkilotning ichki imkoniyatlari va resurslari tahlilidan boshlanadi. Bunday yondashuvda tashkilot faqat qanday miqdorda mahsulot ishlab chiqarish va bunda qancha harakat qilishnigina aniqlashi mumkin. Ishlab chiqarish hajmi va xarajatlar miqdori firma tomonidan javob bera olmaydi, qanday miqdorda va narxda mahsulot sotib olinishini bozor aniqlaydi.

Yaqqol afzalliklar bilan bir qatorda strategik boshqaruv va undan foydalanish bo'yicha kamchilik va cheklovlarga ega bunda boshqaruv turi boshqa turlar singari har qanday vazifa va masalalarni hal qilishda har qanday holatda qo'llashning universalligiga ega emasligini ko'rsatadi.

Bunda **Birinchidan**, strategik boshqaruv o'z mohiyatidan kelib chiqqan holda kelajakning aniq va batafsil sur'ati, ifodasini bera olmaydi. Strategik boshqaruvda shakllanuvchi tashkilotning kelajakdagagi istalgan holati - bu uning ichki va tashqi holatining batafsil tasviri emas, balki kelajakda korxona qanday holatda bo'lishiga, bozor va biznesda qanday pozitsiyani egallashga, qaysi ishbilarmonlik guruhlariga kirishiga va sifatli istakdir. Bularning barchasini majmui kelajakda raqobat kurashida tashkilot yutib chiqadimi yoki yo'qmi? Shuni aniqlab berish lozim.

**Ikkinchidan**, Strategik boshqaruv - bu ko'proq biznes va menejmentning ma'lum falsafasi yoki mafkurasidir. Har bir menejer tomonidan u ma'lum ma'noda o'zgacha tushuniladi va amalga oshiriladi. Albatta, muammolarni tahlil qilish va strategiyani tanlash, shuningdek strategik rejalshtirishni amalga oshirish va strategiyaning amaliy realizatsiyasining bir qator tavsiyalari, qoidalari va mantiqiy chizmalari mavjud.

**Uchinchidan**, tashkilotda strategik boshqaruv jarayonining amalga oshirilishi boshlanishi uchun vaqt va resurslarni katta xarajati talab qilinadi. Strategik rejalashtirishni yaratish va amalga oshirish zarur. Marketing, jamoa munosabatlari bo'yicha xizmatlar va h.k. katta ahamiyatga ega bo'ladi va katta miqdorda qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi.

**To'rtinchidan**, strategik oldindan ko'ra bilish xatolarining salbiy oqibatlari keskin kuchayadi. Qisqa muddatda umuman yangi mahsulotlar yaratilganda, qisqa davrda qo'yilmalarning yo'nalishi keskin o'zgarganda, kutilmaganda biznes uchun yangi imkoniyatlar vujudga kelganda va uzoq yillar davomida mavjud bo'lgan imkoniyatlar ko'z oldidan yo'qolganda, noto'g'ri oldindan ko'ra bilish va strategik tanloving xatoliklari uchun haq ko'pincha tashkilotga qimmatga tushadi.

**Beshinchidan**, strategik boshqaruvni amalga oshirishda asosiy e'tibor strategik rejalashtirishga beriladi. Aslida esa strategik boshqaruvning asosiy tarkibiy qismi bo'lib strategik rejani amalga oshirish hisoblanadi, bu birinchi navbatda strategiyani realizatsiya qilish imkoniyatini beruvchi tashkiliy madaniyatni yaratish, mehnatni tashkil etish tizimlarini yaratish, tashkilotda ma'lum egiluvchanlikni yaratishni ko'zda tutadi. Bunda strategik boshqaruvda bajarish jarayoni rejalashtirishga aktiv teskari ta'sir ko'rsatadi, bu yesa bajarish bosqichining ahamiyatini yanada oshiradi. Shuning uchun agar tashkilotda strategik rejalashtirish tizimi yaratilgan bo'lsa va shu bilan birga strategik bajarish tizimini yaratish uchun imkoniyatlar bo'lmasa, u strategik boshqaruvga o'ta olmaydi.

Strategiya umumiylarida firmanın maqaleini mustahkamlash, iste'molchilarining talablarini qondirish va qo'yilgan maqsadlarga vaziyatishga qaratilgan boshqarish rejasi sanaladi. Aniq strategiyani tanlash rivojlanishning mumkin bo'lgan turli yo'llari va usullari ichidan eng maqbulini tanlab olish demakdir.

Firmani boshqarish rejasi o'z ichiga quyidagi asosiy

funksiya va bo'linmalarni oladi: ta'minot, ishlab chiqarish, moliya, marketing, xodimlar, ilmiy tadqiqotlar va ishlamalar. Strategiya tanlash bu biznes yechimlari va raqobatga bardoshlilik harakatlarini yagona tizimga bog'lashni anglatadi.

Strategiyani ishlab chiqish menejerlarning asosiy funksiyalaridan biridir. Ba'zi menejerlar kuchli strategiya ishlab chiqadilar, biroq uni hayotga tadbiq eta olmaydilar. Boshqa menejerlar o'rtacha strategiya ishlab chiqadilar va uni mohirona amalga oshiradilar ham. Strategiya qanchalik yaxshi o'ylangan va mohirona amalga oshirilgan bo'lsa, kompaniyaning mavqeい shunchalik kuchayadi. Boshqarish yaxshi tashkil etilgan kompaniyalar ham kutilmagan noxush vaziyatlarga duch keladi. Pirovard natijada yaxshi strategiya bozorda kuchli mavqeni egallash, kutilmagan holatlar, kuchli raqobat va ichki muammolarga qaramay, muvaffaqiyatli ishlashga zamin yaratadi.

«Menejment asoslari» kursidan ma'lumki, menejerning birinchi vazifasi quyidagilarni aniqlashdan iborat:

- biz qaerdamiz?
- qayoqqa ketyapmiz?
- faoliyatimizning maqsadi nimadan iborat?
- maqsadga vaziyatish yo'llari qanaqa?


Bu savollariga javob topish kelgusi boshqaruv sikllarida foydalanish, maqsad va natijalarni aniqlash uchun o'ta muhim.

Strategik menejment kompaniyaning uzoq muddatli maqsadlar va faoliyatiga ta'alluqli. Aytish mumkinki, strategiyani (harakatlar tarzini) va uning aniq vositalarini ifodalash boshqaruv negizini tashkil qiladi va kompaniyada menejmentni yaxshi yo'lga qo'yilganligini ko'rsatuvchi eng to'g'ri belgi bo'lib xizmat qiladi.

**Strategik menejmentning mazmuni quyidagilardan iborat:**

- firma biznesining yo'nalishi va asosiy maqsadlarini belgilab olish;

- firmaning tashqi muhitini tahlil qilish;
- undagi ichki vaziyatni tahlil qilish;
- firma yoki xo'jalikning o'rta bo'g'inlarida strategiyani tanlash va ishlab chiqish;



### **1-chizma. Strategik menejmentning mazmuni**

- integratsiya darajasini va boshqaruv tizimini tanlash;
  - «strategiya - tuzilma - nazorat» majmuasini boshqarish,
  - firma faoliyatining ba'zi sohalardagi siyosati va uning fe'l-atvor me'yorlarini belgilash;
  - strategiya tuzilma va boshqaruvni takomillashtirish.
- Bularning barchasi 1-chizmada keltirilgan.

Strategik menejment kompaniyaning uzoq muddatli maqsadlar va faoliyatiga ta'alluqli. Aytish mumkinki, strategiyani (harakatlар tarzini) va uning aniq vositalarini ifodalash boshqaruv negizini tashkil qiladi va kompaniyada menejmentni yaxshi yo'lga qo'yilganligini ko'rsatuvchi eng

to'g'ri belgi bo'lib xizmat qiladi.

**Strategiya** - tashkilotning tashkiliy vazifa va maqsadlariga vaziyatishda foydalaniladigan tashkiliy hatti-harakatlар va boshqaruv.

Biznes sohasini tanlash, maqsadni belgilash, qisqa va uzoq muddatli vazifalarni (dasturlarni) aniqlash, maqsadga vaziyatish strategiyasini belgilab olish strategik rejani tashkil qiladi. Kompaniya strategiyasining asosiy tarkibiy qismlari 2-chizmada keltirilgan.

Kompaniya strategiyasini belgilovchi harakatlар va yondashuvlar tarzi.		
Strategiyada sifat o'zgarishlariga intilish. Asosiy strategiyani aniq tuzishga intilish. Kompaniyaning o'ziga xos muammolarini yechish harakatlari va ichki strategik omillar. Yangi imkoniyatlarni mustahkamlash harakatlari. (yangi bozorlar sotib olish va boshqalar).	Qisqa muddatli foydaga vaziyatish. Boshqarishning funksional sohalaridagi yechimlari. Diversifikatsiya yondashuvlar, yangi tarmoqlar izlash.	Tarmoqlardagi sharoitni o'zgartirish harakatlari. Uzoq muddatli raqobat mavqeini kuchaytirish harakatlari. Mahalliy va xorijiy raqiblarga qarshi himoya harakatlari.

### **2-chizma. Kompaniya strategiyasining asosiy tarkibiy qismlari.**

#### **1.2. Kompaniya missiyasi va strategik qarashlarni belgilash.**

Maqsadni aniqlash strategik ko'rish va kompaniyaning rivojlanish yo'nalishlarini aniq maqsadga aylantirib beradi.

Maqsad firma boshqaruv apparatining belgilangan vaqtida aniq natijaga vaziyatish majburiyatidir.

Firmaning uzoq muddatli rejaliри aniq, o'lchanadigan aniq

vazifalarga aylantirilmaguncha missiya va firmaning kelajak niyatlarini faqat chiroyli so'zlardan iborat bo'lib qolaveradi. Maqsadni aniqlash strategik boshqarishning hal qiluvchi daqiqaсидир.

**Korporativ maqsad** - bu tashkilot o'z aktsionerlarining manfaatlariga qanday qarashini ko'rsatuvchi birinchi hal qiluvchi ko'rsatkichdir. Maqsadga yo'nalganlik firmaning biznesini, asosan maqsadlarini, tavsifnomalarini va uning yetakchi falsafasini ifodalaydi. Maqsadga yo'nalganlik kelgusi strategik qarorlar uchun tashkiliy mazmun kasb etadi.

Korporativ maqsadga yo'nalganlikning uch asosiy tarkibiy qismi quyidagilardan iborat:

- firmaning biznesini aniqlash;
- uning asosiy maqsadlarini belgilash;
- korporativ falsafani aniqlash;

#### **Biznesni aniqlashda quyidagi savollarga javob berish lozim:**

- bizning biznesimiz nimadan iborat?
- u qanday bo'ladi?
- qanday bo'lishi kerak?

Birgina biznes bilan shug'ullanuvchi kompaniya uchun «Bizning biznesimiz nimadan iborat?», degan savolga beriladigan javob quyidagi savollarga ham javob topishni taqozo etadi:

- kimning ehtiyoji qondiriladi (qanday iste'molchilar guruhlari?)
- qanday ehtiyojlar qondiriladi (iste'molchilarning qaysi ehtiyojlar?)
- iste'molchilarning ehtiyojları qanday qondiriladi (tajriba yoki farq qiluvchi ustunliklar?)

Kompaniya uchun «Bizning biznesimiz nimadan iborat?», degan savol ikki tabaqada ko'rib chiqilishi kerak:

- xo'jalikning o'rta bo'g'inlari uchun iste'molchiga yo'naltirilgan (birgina biznes bilan shug'ullanuvchi kompaniya

uchun ham);

- korporatsiya miqyosidagi xo'jalikning o'rta bo'g'inlari portfeliga yo'naltirilgan. Bu yesa quyidagilarni o'z ichiga oladi:
  - kompaniya portfelining maqsadlari;
  - xo'jalikning o'rta bo'g'inlari portfeli;
  - portfeldagi xo'jalikning o'rta bo'g'inlari o'rtasidagi balans.

Oldiga maqsadlarni qo'yish biznes missiyasining maxsus maqsadlar qatoriga aylanish jarayonidir. Ayni paytda tashkilotning har bir bo'linmasini kerakli tomonga yo'naltirish jarayoni ham ana shunday boshlanadi. Maqsadlar menejer muvaffaqiyatga vaziyatish uchun muhim deb hisoblagan har bir muhim natija uchun zarurdir. Maxsus muhim natijalar odatda tarmoqning miqyosi va darajasi, ishning rivojlanishi, investitsiyalarning qaytarilishi, dividendlarning o'sishi, bozor o'lchamlarini, sifatli mahsulot yoki texnologiya peshqadamlikning obro'-e'tibori, beqaror iqtisodiyotda ishlay olish qobiliyati, diversifikatsiya darajasi, moliyaviy qudrat, iste'molchilarga xizmatko'rsatish, qiymat bo'yicha raqobatlasha olish qobiliyatini o'z ichiga olishi mumkin.

Tashkilotning maqsad va vazifalari ochiq-oydin bo'lishi lozim. Ba'zi kompaniyalarning menejerlari har bir hal qiluvchi natija uchun ma'lum bir maqsadni belgilaydilar va o'nga etishish uchun qat'iy harakat qiladilar. Odatda bunday menejerlar umid, iltimos va yaxshi niyatlarga tayanadigan kompaniyalarga qaraganda g'oliblikka yaxshiroq nomzod bo'ladilar. Bu yerda «daromadni ko'paytirish», «xarajatlarni kamaytirish», «samaradorlikni oshirish», «savdo hajmini ko'paytirish» kabi iboralarni ishlatmaslik kerak.

Strategik fikrlash uchun maqsadlar rahbarlikning barcha tabaqalari uchun har tomonlama belgilab olish muhimdir. Bu barcha menejerlar uchun vazifalarni aniqlashdan tashqari, ularni bajarishning muhimligini ham ta'minlaydi.

Maqsadni belgilashda kompaniya psychilari manfaatlarini

hisobga olish.

Paychilar kompaniyani kapital bilan ta'minlaydilar va buning evaziga o'z investitsiyalaridan munosib daromad olish ulushini qo'lga kiritadilar. Kompaniyaning hissadorlari uning qonuniy mulk egalari hisoblanadi. Binobarin, ko'pchilik korporatsiyalarning maqsadi hissadorlarning daromadlarini imkon qadar ko'paytirishdan iborat. Paychilar o'z kapitallaridan ikki xil yo'l bilan foyda olishadi:


- dividendlardan;
- bozor ko'lami kengayganda (aktsiyalarning bozor narxi ortganda) kapitalning qiymati ortishidan.

Kompaniya uchun aktsionerlar daromadini oshirishning eng yaxshi yo'li investitsiyalarning qaytish tezligini oshirish strategiyasidan foydalanishdir. Bu esa kompaniya samaradorligini ko'rsatuvchi juda yaxshi indikator sanaladi. Ya'nii uning samaradorligi qanchalik yo'qori bo'lca, dividend to'lash qobiliyati shunchalik yo'qori bo'ladi. Bundan tashqari, investitsiyalarning tez qaytishi kompaniya aksiyalariga bo'lgan talabning kuchayishiga ham olib keladi.

Firma strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha menejerlarning vazifalari.

### Strategik boshqaruv strukturasi.

Strategik boshqaruvni beshta o'zaro bog'langan boshqaruv masalalarining dinamik majmui sifatida ko'rish mumkin. Bu jarayonlar bir biridan kelib chiqadi. Biroq barqaror teskari aloqa va demak har bir jarayonning boshqalariga va ularning butun yig'indisiga teskari ta'siri mavjud. Bu strategik boshqaruv tizimining muhim xususiyati hisoblanadi. Strategik boshqaruv strukturasi sxematik tarzda 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Strategik boshqaruv strukturasi.

### 1.3. Strategik boshqarishning maqsadi va uning turlari.

Maqsad va vazifalarni aniqlash uchta kichik jarayonlardan iborat.

**Birinchidan** kichik jarayon firmanın vazifasını aniqlashdan iborat. Bu vazifa firmanın faoliyat yuritishini mazmunini ifodalaydi va bu tashkilotda ishlovchi odamlarga ularning joriy hatti-harakatlariga istiqbol nuqtai nazaridan ma'lum ma'no, mazmun berish imkoniyatiga ega.

**Ikkinchidan** tashkilot faoliyatiga manfaatlari ta'sir etuvchi odamlar guruhi (firma vazifalari aniqlanishida hisobga olinishi lozim manfaatlar egalari) bo'lib tashkilot egalari (ta'sischilar) xodimlari, tashkilot mahsulotlarini sotib oluvchilar va firmanın hamkorlari hisoblanadi. Manfaatlarining namoyon bo'lish darajasi bevosita tashkilot katta-kichikligiga, qaysi biznes turi bilan shug'ullanishiga, qaerda joylashganligiga bog'liqdir.

**Uchinchidan** Strategik boshqaruvning ushbu qismi qisqa muddatli maqsadlarni aniqlash bilan tugallanadi. Firma

maqsad va vazifalarini aniqlash firma nima uchun faoliyat yuritayotganligi va nimaga vaziyatmoqchiligi aniqlanishiga olib keladi.

Vazifa shunday shakllantirishi lozimki, uni tashqi muhitda sifat va ishonchlilik jihatidan boshqalardan ajratib turuvchi tashkilotning joriy yutuqlarini aks ettirsin va kelajakdagi intilishlarini ifoda etsin. Bunda vazifa strategik muljallarni aniqlaydi va taktik yo'nalishlarni ko'rsatadi.

Kompaniya vazifasini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

### **Kompaniya vazifasi=tasavvur+kredo.**

«Tasavvur» atrofdagilar tasavvurida kompaniya qiyofasini shakllantirishga yo'naltirilgan. Uning asosini kompaniyaning bozordagi obro'si va kompaniya o'ziga tashqi muhitda ta'minlanmoqchi bo'lgan imidj (kelajakdagi intilish) tashkil etadi. Tasavvurning asosiy mazmuni «Bu qanday tashkilot?» savoliga javobdan iborat. Bu yerda, odatda, kompaniya faoliyatining sohasi, asosiy tovar va xizmatlari, iste'molchi guruhlar, faoliyatning geografik joylashuvi kabi tushunchalar beriladi.

«Kredo», bu xodimlarda umumkorporativ maqsadlarga vaziyatishqiziqishnioshirishgamo'ljallangan.Ukompaniyaning dunyoqarashini (strategik mo'ljallar) va asosiy nuqtai nazarini ya'ni taktik yo'nalishlarini ifodalaydi. Kredo «Tashkilot nimaga intilmoqda?» savoliga javob beradi. Bu yerda asosiy e'tibor ichki madaniyat va raqobatbardoshlik asosiga qaratiladi.

Yo'qoridagilardan kelib chiqqan holda korxona yoki tashkilot vazifasining asosini tashkil etishi lozim bo'lgan qo'yidagi ko'rsatkichlarda ko'rish mumkin. Bo'lar: nom va status; tovar yoki xizmat; strategik mo'ljal; manfaatdor guruhlar; raqobatbardoshlik asosi bo'lishi mumkin.

Har qanday holatda ham vazifa ifodasi korxona tarixi, obro'si va imidji bilan muvozanatda bo'lishi lozim.

Rejalshtirishning zamonaviy nazariyasida har bir korxona o'zining asosiy maqsadlarini aniqlashda qo'yidagi sakkizta asosiy soha ajratiladi. Bo'lar:

- korxonaning bozordagi o'rni,
- innovatsion faoliyat,
- ishlab chiqarish darajasi,
- ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi,
- barqarorlik darajasi,
- boshqarish tizimi,
- personal malakasi
- va ijtimoiy javobgarlik.

Ushbu sohalar doirasida foydalilik, moliyaviy barqarorlik, bozor ulushining o'sishi, resurs ta'minoti, ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot va xizmatlar sifati, menejment tizimining rivojlanishi, xalqaro kompaniyaga aylanishi kabi asosiy maqsadlar ajratiladi.

Korxona ko'zlagan maqsadlar individual xarakterga ega va qaysi tarmoqqa tegishliligi, korxona turi, bozordagi pozitsiya, xom ashyo manbalari singari omillarga bog'liqdir. Hozirgi korxonalar oldida tekshiruvlar va ilmiy yangiliklarni tadbiq qilish sohasidaga maqsadlar turibdi.

Vazifa va maqsadlar aniqlanganidan so'ng strategiyani tanlash va tahlil qilish bosqichi boshlanadi, ya'ni strategik boshqaruvning o'zagi hisoblanadi.

### **1.4. Strategiyani tanlash va uni amalga oshirish, amalga oshirishini baholash hamda nazorat qilish.**

Strategiyani amalga oshirish jiddiy jarayon hisoblanadi, chunki aynan u muvaffaqiyatli bajarish holatida firmani qo'yilgan maqsadlarga vaziyatishi uchun imkoniyat yaratadi. Ko'p holatlarda firmalar o'zi tanlagan strategiyani amalga oshira olmaydilar. Biroq strategiya bajarilmastigining asosiy sababi boshqaruvni firma potentsialini strategiyani realizatsiya

qilishga yetarli darajada jalg qila olmasligidandir.

Ushbu bosqich qo'yilgan maqsadlarga qaysi eng samarali usul bilan vaziyatish mumkin va buning uchun nima qilish zarur degan savolga javob berish imkonini beradi. Bitta maqsadga turli usullar bilan vaziyatish mumkin bo'lganligi uchun strategiyani tanlash bosqichini ko'zlangan manzilga eltib borishning marshruti va harakat vositasini tanlash kabi belgilash mumkin. Buning uchun iqtisodiy nazariyada strategiyalar xaritasi (tizimi) va strategik harakatning mexanizm (modellari) ro'yxati mavjud.

Strategiyalar tizimi strategik qarorlarni qabo'l qilishning uch darajasi, bosqichini o'z ichiga oladi:

**1. Umumi yoki korporativ.** Korporativ strategiya korxona umumi rivojlanishining yo'nalishini ko'rsatadi. Bu bosqichda sub'ekt iqtisodiy faoliyatining shakl va turlari majmuasi xaqida qaror qabo'l qilinadi. Bu yerda qushilish, sotib olish yoki biznesning biron turidan chiqish xaqidagi savollar, masalalar hal qilinadi.

**2. Ishbilarmon yoki raqobat.** Ishbilarmon strategiyalar (biznes rejallarda ifodalanadi) tanlangan (korporativ bosqichda) tovar bozorida raqobat ustunliklariga vaziyatish usulini ta'riflab beradi. Ushbu strategiya alohida tovar va xizmatlarni raqobat pozitsiyasini yaxshilashga yo'naltiriladi. Bu yerda yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha istiqbollar ko'rib chiqiladi va mavjud istiqbolsiz tovarlardan voz kechish masalalari ko'rib chiqiladi. Bunda ishlab chiqarish, baho, reklama, sotish va shu kabi siyosatlar aniqlashtiriladi.

**3. Funktsional.** Funktsional strategiyalar bo'lim va xizmatlar harakatlarini korxonaning ishlab chiqarish bo'linmalari darajasida aniqlashtiradi. Ishlab chiqarish, marketing, moliya va ishbilarmon strategiyalarga vaziyatishning o'z usulini rejalashtiradilar. Misol uchun, ishlab chiqarish sohasidagi funksional strategiya yaroqsiz mahsulotni ishlab chiqarmaslik, xom ashyo yo'qotishlarini kamaytirish

kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

Strategiyani tahlil qilish va tanlash bosqichida bajariluvchi chora-tadbirlarni umumlashtirgan holda sxematik tarzda ko'rsatish va korxona strategiyasini «realizatsiya qilish» uchun dastlabki ma'lumotlar sifatida olinishi lozim bo'lgan natijalarni ajratish mumkin.

**Strategiyani** tahlil qilish va tanlash bosqichi strategik harakatni ishlab chiqish jarayonida markaziy bug'in hisoblanadi. Bu yerda korxona rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlariga mablag'larni qo'yishi bo'yicha muhim strategik qarorlar qabo'l qilinadi.

Strategiyalar amalga oshirilishini baholash va nazorat qilish strategik boshqaruvida bajariluvchi mantiqiy oxirgi jarayon hisoblanadi. Nazoratning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- nimani va qanday ko'rsatkichlar bo'yicha tekshirishni aniqlash;
- qabo'l qilingan standartlar, me'yorlar yoki boshqa ko'rsatkichlarga muvofiq nazorat qilinuvchi ob'ekt holatini baholashni amalga oshirish;
- o'tkazilgan baholash natijasida aniqlangan kamchiliklar sabablarini aniqlash;
- agar zarur va mumkin bo'lsa to'zatishni amalga oshirish.

Starategik nazorat strategiyani amalga oshirish qay darajada firma maqsadlariga vaziyatishga olib kelishishni aniqlashga yo'naltirilgan. Strategik nazorat kelgusida qabo'l qilingan strategiyalarni realizatsiya qilish mumkinligiga va ularning amalga oshirilish qo'yilgan maqsadlarga vaziyatishiga olib kelishiga qaratiladi. Strategik nazorat natijalari bo'yicha to'zatishlar ham strategiyalar ham maqsadlarga tegishli bo'lishi mumkin.

Nazoratning asosiy maqsadlari qarorlar qabo'l qilish va bajarishning birligini ta'minlashdan ya'ni:

- mumkin bo'lgan xatolarni oldindan ko'ra olish va oldini


olishdan,

- belgilangan yo'nalishdan chetga chiqishlarni o'z vaqtida aniqlashdan,
- belgilangan muddatlarda qo'yilgan maqsadlarga samarali vaziyatishdan iborat.

Nazoratning asosiy maqsadi esa qarirlarni qabul qilish tizimini yaxshilash imkonini beruvchi ichki zahiralarni aniqlash va korxonani boshqarish samaradorligini oshirish yo'llarini izlashdir.

Nazoratning asosiy maqsadi strategiya va maqsadlarni shakllantirishning to'g'riliqini belgilashdan iborat.

Ishlab chiqilgan strategiyani bajarish bosqichi qo'yida ya'ni G.Mintsberg «ongli» (rejalashtirilgan) va «vujudga keluvchi» (amalga oshiriluvchi) strategiyalarni ajratadi (2-rasm).



**2-Rasm. Ongli va vujudga keluvchi strategiya (G.Mintsberg bo'yicha).**

G.Mintsberg g'oyasi shundan iboratki, rejalashtirilgan strategiyaning bir qismini har doim amalga oshirish imkonи bo'lmaydi. Amalga oshirilganning katta qismi, odatda, boshida rejalashtirilgan strategiyaga kirmagan, shu sababli uni vujudga keluvchi strategiya deb nomlagan. Oxir-oqibatda amalga

oshirilgan strategiya ongli strategiyaga kiradi. Boshqacha qilib aytganda, amaliyotda ongliva vujudga keluvchi strategiyalarning ma'lum kombinatsiyasi amalga oshiriladi.

Yo'qorida aytilganlarga asoslangan holda quyidagi asosiy xulosani keltirish mumkin. Korxona strategik harakatini shakllantirishning moxiyatni

- rivojlanish yo'nalishini aniqlashdan,
- tanlangan mo'ljalga samarali yaqinlashish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishdan,
- shuningdek tanlangan strategiyani amalga oshirish jarayonini baholash va nazorat qilishdan iborat.

Strategiyani boshqarish ijrochilarini ya'ni firmanın ijrochi direktori strategiya bo'yicha eng ta'sirli va javobgar menejer hisoblanadi. U maqsadlarni belgilaydi va strategiyani bajarish yo'llarini ishlab chiqadi.

Ishlab chiqarish, marketing, moliya, xodimlar va boshqa funksiyalar bo'yicha vitse - prezidentlar ham strategiya ishlab chiqadilar va uni amalga oshirish bo'yicha javobgar hisoblanadilar. Har bir menejer o'zining javobgarlik sohasi bo'yicha strategiyani ishlab chiqadi va uning bajarilishini ko'zatib boradi.

Kompaniyalarda bir necha tarmoqlarda boshqaruva talab etilib, strategiya bo'yicha menejerlarning 4 darajasi mavjud:

- ijrochi direktor yoki yo'qori boshqaruva pog'onasi rahbari;
- alohida korxonalarining foyda va zararlari uchun javobgar menejerlar;
- muayyan ishlab chiqarish bo'linmasi bo'yicha menejerlar;
- asosiy tezkor bo'linmalar va mintaqaviy bo'limlar menejerlari.

#### **Strategik menejer va qo'yiladigan asosiy talablar.**

Bugungi kunda murakkab va tez o'zgaruvchan vaziyatda raqobatlashish uchun firma strategiyani ishlab chiqishini boshqaradaridigan strategik menejerlarni aniqlab olishi

lozim. Ularning vazifasi butun tashkilot faoliyatining ma'lum bir yo'nalishda borishini ta'minlashdir (ular ko'pincha kompleks menejerlar, deb ataladi). Ular biznesning ayrim funksiyalari(xodimlar, ta'minot, ishlab chiqarish, savdo, mijozlarga xizmat ko'rsatish, hisob) bajarilishini boshqarib, kompaniyada o'ziga xos o'rinn egallaydi.

E.Vrappning fikricha(Chikago universiteti), eng omadli strategik menejerlar quyidagi hislatlarga ega bo'lishi kerak:

- ko'p narsadan yaxshi xabardor bo'lishlari;
- o'z vaqt va kuch-quvvatini boshqara olishlari,
- yaxshi siyosatchi bo'lishlari;
- ekspertlarga o'xshab «bir narsaga yopishib olmasliklari»;
- dasturni xususiy yo'nalishlarda ilgari sura olishlari

lozim.

**Ko'p narsadan xabardor bo'lish** boshqaruvning turli pog'onalarida keng ko'lamli boshqaruv qarorlarini qabo'l qila olishga imkon beradi. Menejerlar tashkilotning turli qismlarida axborot manbalari tarmog'ini tashkil qilishlari kerak, bu ularga voqelikdan tez xabardor bo'lib turish imkonini beradi.

**Ular o'z vaqt va kuch-quvvatini** turli ishlar, qarorlar muammolar o'rtasida to'g'ri taqsimlay olishlari kerak. Shuningdek, qachon javobgarlikni taqsimlash kerakligi, qaysi paytda xususiy muammolarga aralashish kerakligini bilishlari lozim.

**Yaxshi siyosatchi** o'z fikrlari asosida boshqarish san'atini yaxshi egallagan bo'lishi, ular o'z obro'-e'tibori bilan diktator kabi emas, balki yaxshi rahbar sifatida ish tutishi lozim.

O'zgaruvchan dunyo strategik menejerdan moslashuvchanlikni talab qiladi. U vujudga kelgan vaziyatga moslashishga tayyor turishi kerak. Bu esa firma ma'lum bir maqsadlarsiz ish yuritsada, biroq ularni o'zgartirishga tayyor turishi kerakligini anglatadi.

### Nazorat uchun savollar

1. Strategiya tushunchasi va uning mazmunini tushuntiring?
2. Firma strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha menejerlarning vazifalari nimadan iborat ?
3. Strategik boshqarishning maqsadi nimalardan iborat ?
4. Strategik boshqarishning besh vazifasi nimadan iborat ?
5. Strategiyani belgilashga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Strategiyani amalga oshirishda ijrochi direktorning vazifalari ?
7. Kompaniya missiyasini belgilovchi omillarni tushuntiring ?
8. G.Mintsberg bo'yicha strategiyani belgilash.

## **2-MAVZU. STRATEGIYA YARATISHNING VAZIFALARI**

### **REJA:**

- 1. Strategik menejmentning besh vazifasi.**
- 2. Firma faoliyat yo'nalishlarini belgilash omillari.**
- 3. Strategiyani ishlab chiqish uslubi.**
- 4. Strategiyani yaratishga bo'lgan turlixilyondashuvlar.**
- 5. Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiya-larini loyihalash.**

**Tayanch so'z va iboralar:** funksiya, uslub, yondashuvlar, tashqi omillar, ichki omillar, boshqaruvning asosiy bosqichlari.

### **2.1. Strategik menejmentning besh vazifasi.**

Strategik menejmentning vazifasi 5 ta qismdan iborat bo'lib ular quyidagilar:

1. Tijorat faoliyatining turini aniqlash va firma rivojlanishi yo'nalishini belgilash, ya'ni maqsadni aniqlab, uzoq muddatli istiqbolni belgilash
  2. Umumiylar maqsadlarni ishning aniq yo'nalishlariga aylantirish
  3. Ko'zlangan ko'rsatkichlarga vaziyatish
  4. Bajarilgan ishni baholash
  5. Bozordagi vaziyatni tahlil qilish, faoliyatning uzoq muddatli asosiy yo'nalishlari, maqsadlari va strategiyaga yoki uni amalga oshirish usullariga to'zatishlar, yangi g'oyalalar kiritish.
1. Kompaniya strategiyasining asosiy masalasi quyidagicha: «Kompaniyamizni biz qanday tasavvur qilamiz, nima qilmoqchimiz va nimaga vaziyatmoqchimiz?»
- «Biz kimmiz, nima qilyapmiz va qayoqqa ketyapmiz?», - degan savolning javobi firma yo'nalishini belgilab, kuchli o'ziga xoslikni ishlab chiqish imkonini beradi. Kompaniya nima

qilayotgani va nima ishlab chiqish imkonini beradi. Kompaniya nima qilayotganini va nima qilmoqchi ekanligining missiyasini anglatadi. Menejer o'z kompaniyasining bozordagi o'rnnini qanday tasavvur qilishi esa kompaniyaning strategik ko'rinishi shakllantiradi va ish uchun tanlangan rejani mohirona amalga oshirish;

Menejerlarning asosiy funksiyasi quyidagilardan iborat:  
rejalashtirish → tashkil etish → motivatsiya → nazorat qilish -

2. Aniq maqsadlarni belgilash kompaniya missiyasining umumiy tarifidan aniq ish rejalariga o'tish imkonini beradi.

Qo'yilgan maqsad biz istagan natijadan iborat bo'ladi. Agar yaxshi natijalarga vaziyatmoqchi bo'lsangiz, o'z oldingizga yaxshi maqsadlar quying. Maqsadlar qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'ladi, yana moliyaviy va strategik ham bo'ladi.

Moliyaviy maqsadlar majburiydir, chunki moliyaviy mablag' etishmasa, kompaniya tang ahvolga tushib qoladi.

Strategik maqsadlar kompaniyaning bozordagi raqobat mavqeini kuchaytirishga qaratiladi. Moliyaviy maqsadlar foyda hajmi, sarmoyalardan qaytim, naqd pul tushumi, dividentlar kabi ko'rsatkichlarni ko'paytirishga qaratiladi. Ular firmaning raqobatbardoshlilagini oshirish natijasida rivojlanishning yo'qoriq sur'atlarga, bozordagi salmog'ini oshirishga, kam xarajatlarga vaziyatishga, firmaning obro'yini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

3. Maqsadlar natijalardir, strategiya esa ularga vaziyatish yo'llari sanaladi. Strategiyani aniqlash uchun korxonaning ichki holati va tashqi omillar o'rganilishi lozim. Kompaniya strategiyasi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi:

- chuqur o'ylangan, maqsadga qaratilgan harakatlar;
- voqealarning kutilmagan rivoji va kuchaygan raqobat kurashiga javob berish.

Strategiya faqatgina menejerlar avvalroq o'ylab chiqqan harakatlar emas, balki kutilmagan vaziyatlarda kiritilishi lozim

bo'lgan to'zatishlar hamdir. Strategiyani ishlab chiqish uchun tadbirkorlik iste'dodi va fikrlashning strategik tarzi bo'lishi kerak. Strategiyani ishlab chiqish mahorati menejerning tadbirkorlik iste'dodiga bog'liq.

Menejerning tadbirkorlik mahoratini belgilash mezoni uning yangi strategik imkoniyatlarni ko'ra bilishi va yangiliklarga o'chligidir. Tadbirkorlik iste'dodiga ega bo'lgan menejerlar odatda birinchi qaldirg'ochlar bo'ladilar. Ular yangiliklarni tez o'zlashtirib oladilar, tavakkalchi bo'ladilar va keskin yangi strategiyalar yaratadilar.

Kompaniya strategiyasiga to'zatishlar kiritish me'yoriy oddiy hol hisoblanadi. Ba'zan strategiyaga o'zgartirish kiritish zarur bo'lib qoladi. Kamdan-kam hollardagina kompaniya strategiyasi vaqt sinovidan o'ta oladi. Strategiyani qanday qilib yaxshilash mumkin, degan savol menejerni hech qachon tark etmasligi lozim. Shuning uchun strategiyani ishlab chiqish dinamik jarayondir.

Kompaniya strategiyasi mohiyatan qator savollarga javob beradi. Bu savollar quyidagilardan iborat:

Ishni qanday rivojlantirish kerak?

Mijozlarni qanday qilib qanoatlantirish mumkin?

Raqiblardan qanday qilib o'zib ketsa bo'ladi?

O'zgaruvchan bozor sharoitlariga qanday javob berish lozim?

Kompaniyaning ayrim funksional bo'limlarini qanday boshqarish kerak?

Moliaviy va strategik maqsadlarga qanday qilib vaziyatish mumkin.

Strategik ko'rish va kompaniya missiyasini ishlab chiqish, maqsadlarni aniqlash va strategiyani tanlash, kompaniyaning rivojlanish yo'naliшини belgilashda asosiy vazifalardir. Kechikib to'zilgan strategik rejalar yoki o'z vaqtida kiritilmagan to'zatishlar hech qanday natija bermaydi.

4. Strategiyani amalga oshirish ishlari ma'muriy vazifalarga

kiradi. U quyidagilardan iborat:

- strategiyani muvaffaqiyatli bajarish uchun tashkiliy imkoniyatlar yaratish;
- mablag'larni foydali joylashtirish uchun byudjetni boshqarish;
- firma strategiyasini amalga oshirishni ta'minlovchi siyosatni belgilash;
- xizmatchilarining yanada samaraliroq ishchlari uchun rag'batlantirish;
- vaziyatiladigan natija va mukofotlar hajmini bir-biriga bog'lash;
- kompaniyada belgilangan vazifalarni bajarish uchun qulay muhit yaratish;
- kompaniya personalini ta'minlovchi ichki sharoitlarni yaratish, ya'ni har bir personalning strategik rolini samarali ijro etish sharoitlarini yaratish;
- ishni doimiy yaxshilash uchun eng ilg'or tajribalardan foydalinish;
- ichki rahbarlikni ta'minlash.

5. Yo'qoridagi 4 ta vazifa bir necha bor qayta ko'rib chiqiladi, chunki yangidan yuzaga keladigan holatlar har xil to'zatishlar kiritishni talab qiladi. Utgan tajribalar natijasi va kompaniyaning istiqbol maqsadlari shunday o'zgartirishlar kiritilishga sabab bo'lishi mumkin. Strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'llarini axtarish doimiy hisoblanadi.

Yo'qorida ko'rib o'tilgan strategik boshqarish vazifalarining har biri doimiy tahlil va qarorlar qabo'l qilishni talab etadi: ishni belgilangan yo'lda davom ettirish kerakmi yoki unga o'zgartirishlar kiritish kerakmi? Chunki strategik menejment doimiy harakatdagi jarayondir.

Bu besh vazifa bir-biri bilan o'zaro o'zviy bog'langan. Masalan, kompaniyaning missiyalariga bog'liq masalalar muayyan maqsadlar bilan bog'langan.


Mazkur besh vazifa alohida holda amalga oshirilmaydi.

Strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish og'ir jarayon hisoblanib, menejerlardan turli xil harakatlarni talab qiladi.

Strategik menejmentga doimiy yetarlicha e'tibor berish strategiyani takomillashtirish zaruriyatidir. Uni amalga oshirish usullarini yangilash strategyaning sifati, samaradorligini oshirish har bir xodimdan talab qilinadi.

Strategik boshqaruvning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Biznes sohasini aniqlash va firmaning asosiy maqsadini ishlab chiqish.
2. Firmaning asl maqsadini alohida uzoq va qisqa muddatli faoliyat maqsadlariga aylantirish.
3. Faoliyat maqsadlariga vaziyatish strategiyasini belgilash.
4. Strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish.
5. Faoliyatni baholash, vaziyatishni ko'zatib borish va unga to'zatishlar kiritish.



### **2.1.-chizma. Strategik menejment jarayoni**


### **2.2. Firma faoliyati yo'llarini belgilash omillari.**

Kompaniya strategiyasini belgilashga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarning o'zaro ta'siri har bir tarmoqda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, vaqt davomida o'zgarib turadi. Strategiyani belgilovchi omillar doim bir-biridan farq qiladi. Firma hamisha ham o'zi xohlagan strategiyani tanlay olmaydi. Uning harakatlari qonun, siyosat, ijtimoiy tartibot va jamiyat

mavqeい bilan chegaralanadi.

Strategiyani ijtimoiy talablarga moslashtirish quyidagilarni nazarda tutadi:

- jamiyat manfaatlari va odob me'yorlari doirasida ishchanlik ko'rsatish;
- ijtimoiy afzalliklar va jamiyat ehtiyojlariga ijobiy qarab o'z faoliyatini tartibga solish;
- tartibga soluvchi me'yorlar bilan ziddiyatga bormaslik uchun zarur harakatlarni o'z vaqtida amalga oshirish;
- hissadorlar manfaati va jamiyat manfaatlari o'rtasida muvozanatni saqlash;
- jamiyatda kompaniyaning fuqarolik mavqeini ta'minlash.



### **2.2.-chizma. Kompaniya strategiyasini belgilovchi omillar**

Tarmoqning jozibadorligi va raqobatchilik darajasi strategiyani belgilashga katta ta'sir ko'rsatadi. Kompaniya strategiyasini ilgari shug'ullanilmagan sohaga asoslab qurish mutlaqo yaramaydi. Strategiyani kompaniyaning yaxshi anglangan sohasiga qurilishi lozim.

Strategiyada hisobga olinishi lozim bo'lgan va aslida uni belgilovchi birlamchi omillarning oddiy modeli 2.2-chizmada keltirilgan. Bu omillarning o'zaro ta'siri odatda har tomonlama mazmunga ega bo'lib, tarmoq va kompaniya uchun alohida farqlanadi.

Odatda, ichki va tashqi vaziyato'rtasidagi farq aniq bo'lmasa, raqobatli ustunlikka vaziyatilmasa, kompaniya faoliyati yaxshilanmagan bo'lsa, strategiyaning o'zi muvaffaqiyat keltira olmaydi.

### **2.3. Strategiyani ishlab chiqish uslubi.**

Tashkilot strategiyasi - kompaniyanı turgan joyidan vaziyatmoqchi bo'lgan joyiga qanday qilib o'tkazish mumkin, degan masalani yechish borasidagi yo'riqnomadir. Odatda strategiya 4 xil darajada ishlab chiqiladi:

- korporativ strategiya (kompaniya va uning faoliyat yo'llari bo'yicha umumiy strategiya);
- Ishbop strategiya (kompaniyaning har bir yo'li uchun strategiya);
- Funktsional strategiya (kompaniyaning har bir funktsional tuzilmasi uchun strategiya);
- amaliy strategiya (asosiy tuzilmalar: zavodlar, savdo shoxobchalari va bo'limlar uchun).

Strategiyani ishlab chiqishning asosiy tashkiliy pog'onalarini Strategiya faqat oliy rahbariyat miqyosidagina ishlab chiqilishi mumkin emas. Uni ishlab chiqishning quyidagi to'rtta pog'onasini ajratib olish maqsadga muvofikdir:

- korporatsiya miqyosi;

- bo'linmalar miqyosi;
- funktsional miqyosi;
- quyi pog'ona menejerlari (dala komandirlari).

Firmada strategiyani ishlab chiqish quyidagi jadvalda (2.1.-jadval) keltirilgan.

Strategik boshqarishda korxona missiyasini shakllantirish korxonaning mazmun-mohiyatini, uning faoliyat maydonini, kelajakdagi istiqboli va rivojlanish yo'llarini va uning boshqa raqobatchilardan farqini aniqlab olishga yordam beradi.

#### **2.1.-jadval**

#### **Firma strategiyasini ishlab chiqishning asosiy pog'onalari**

Pog'ona	Ishlab chiqishga (qaror qabo'l qilishga mas'ullar)	Ishlanmaning mazmuni
Korporativ strategiya	Ijrochi direktor, asosiy vitse-direktorlar (qarorlar direktorlar kengashi tomonidan qabo'l qilinadi, qayta ko'rib chiqiladi)	Xo'jalikning o'rta bo'g'ini portfelini tashkil qilish va boshqarish. Xo'jalikning o'rta bo'g'ini sinergizmini raqobatli ustunlik sifatida ta'minlash. Investitsiya imtiyozlarini aniqlash va eng manfaatlari tarmoqlarda resurslarni boshqarish. Xo'jalikning o'rta bo'g'ini rahbarlarining asosiy strategik yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni tekshirish umumiylashtirish.

Xo'jalikning o'rta bo'g'ini strategiyasi	Bosh menejer Xo'jalikning o'rta bo'g'ini boshliq tomonidan (qarorlar firma rahbariyati tomonidan qab'o'l qilinadi, qayta ko'rib chiqiladi).	Muvaffaqiyatli raqobatchilikka hamda unda ustunlikka vaziyatishga qaratilgan harakatlar hamda yondashuvlarni belgilab olish. Tashqi shartlarning o'zgarishiga javob rodaktsiyalarini shakllantirish. Asosiy funksional xizmatlarning strategik tashabbuslarini umumlashtirish. O'ziga xos muammolarni hal qilish.
Funksional strategiya	Funksional menejerlar (qarab, stratetda xo'jalikning o'rta bo'g'in rahbariyati tomonidan qab'o'l qilinadi qayta ko'rib chiqiladi).	Biznes strategiyasini qo'llab-quvvatlashning funksional yondashuvlarini tashkil qilish va ITKI, ishlab chiqarish, marketing, moliya, xodimlar bilan ishlash sohalarida funksional maqsad va strategiyalarga vaziyatish. Quyi bosqichdagi menejerlarning asosiy yondashuvlarini qayta ko'rib chiqish tekshirish unifikatsiyalash.
Tezkor strategiya	Dala bo'linmalari-ning rahbarlari quyi daraja menejerlari, shu jumladan, funksional menejerlar (qarorlar funksional bo'-limlarning boshliqlari tomonidan qabul qilinadi, qayta ko'rib chiqiladi).	Dala bo'linmalari va funksional bo'limlarning maqsadlariga vaziyatish uchun funksional va xo'jalikning o'rta bo'g'ini strategiyalarni qo'llab-quvvatlashga qara-tilgan tor sohadagi va maxsus yondashuvlar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotimizning turli tarmoqlaridagi sanoqli korxonalardagina aniq ifodalangan korxona missiyasi mavjudligini ko'rishimiz mumkin tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy boqarish uslublari rivojlangan AQSh da ham kompaniya va firmalar 60-70% gina o'z missiyasiga ega.

Missiyada barcha e'tibor ishlab chiqarilayotgan mahsulotga emas, balki iste'molchining talab va xohish-irodasini qondirishga qaratilishi lozim.

Keyingi bosqich korxonaning uzoq muddatli maqsadlarini aniqlab olishga qaratilishi kerak. Odatda, bunday uzoq muddatli maqsadlar aniq ko'rsatkich va raqamlarni o'z ichiga olmaydi. Ammo korxona o'z oldiga qo'yadigan uzoq muddatli maqsadlarni aniq va lo'nda bo'lishi hamda unga vaziyata olish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Maqsadlar korxonani muvafaqqiyatini ta'minlovchi ikki asosiy natijada o'z ifodasini topishi kerak bo'ladi. Bu korxonaning moliyaviy va strategik faoliyatiga qaratilgan aniq natijalardir.

Korxonaning ko'p qirrali maqsadlari bir-biri bilan bog'liq holda bir maqsadga vaziyatish boshqa ikkinchi bir maqsadga vaziyatishda uni o'zaro qo'llab-quvvatlashi zarur.

Biznes olamida muvaffaqiyatga vaziyatgan mashhur kompaniyalarning tajribalaridan ma'lumki, odatda korxonalar juda katta miqyosdagi uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadalarni o'z oldilariga qo'yadilar va unga vaziyatish uchun 10-20 yil mobaynida ko'p kuch-mablag'larini sarf etadilar.

Masalan, O'zbekistonda mebel sanoatida samarali faoliyat olib borayotgan «Fayz-Holding» kompaniyasining biznesdag'i asosiy maqsadi o'z xaridorlariga oddiy tovar sotish emas, balki ular qilgan xaridlaridan qoniqish hosil qilish, haqiqiy foyda olish hamda xonadonga xursandchilik bag'ishlashga yordam berishdir. 11 ta ishlab chiqarish majmuasidan 5 ta qo'shma korxona va 14 ta savdo yullariga ega bo'lgan «Fayz-Holding» kompaniyasi zamonaviy nemis texnologiyalari va strategik

boshqarish uslublarini joriy etish natijasida mahsulot turini kengaytirib, oshxona mebeli, yumshoq mebel, ofis mebeli, maktab mebeli va tibbiyot mebellarini ishlab chiqarishni yo'lgan qo'ygan. Bunda kompaniya asosiy e'tiborni mebellar qulayligiga, xavfsizligiga, yo'qori sifatliligiga, sotuvdan keyingi kafolatlar mavjudligiga va arzon narxlarda sotilishiga qaratmoqda.

Tashqi muhitdagi strategik omillarni tahlil etish korxonalarga bog'liq bo'limgan tashqi omillarning istiqbolda rivojlanish yo'llarini va bu o'zgarishlar korxona strategiyasiga va uning faoliyatiga ta'sir qullay olish darajasini aniqlash imkonini beradi. Umuman olganda, strategik omillarni tahlil etishda maqsad tashqi muhitdan kelib chiqadigan havf-xatar va qulay imkoniyatlarni odindan ko'ra bilishdan va shu orqali korxonaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashdan iboratdir.

Ichki muhit tahlili korxonaning ichki resurs va imkoniyatlarni o'rganishni, uning hozirgi holati, kuchli va zaif tomonlari hamda mavjud strategik muammolarini aniqlashni ko'zda tutadi. Ichki muhit tahlili korxonaning iqtisodiy salohiyatini, uni raqobatchi korxonalar bilan taqqoslashni va bozordagi egallab turgan mavqeini to'g'ri talqin etish imkonini beradi.

Masalan, «O'zbekengilsanoat» uyushmasi tarkibiga kiruvchi «Kosonsoy- Tekmen» qo'shma korxonasi, «Anteks», «Buxoroteks», «Kashteks» hissadorlik jamiyatlari eksport strategiyasini shakllantirishda Yevropa hamjamiyati davlatlari, Rossiya, Turkiya va Slovakiya kabi davlatlarning bozorlarini o'rganib chiqib, respublikamiz paxta tolasidan tayyorlangan yo'qori sifatlari gazlama va matolar hamda tayyor kiyim-kechak mahsulotlariga talab kattaligini aniqlashgan. Olib borilgan tahlillar natijasida bu bozorlarni o'ta yo'qori sifatlari va xalqaro standartlariga javob beradigan mahsulotlar bilan egallash mumkinligi haqida ijobji xulosaga keltingan.

Bugungi kunda yengil sanoat tarmog'idagi korxonalar mahsulotlarini xalqaro sifat standarti «ISO-9000» talablariga

javob beradigan darajaga yetkazish, korxonaga eng zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, yangi turdag'i kiyim-kechak va xo'jalik uchun zarur bo'lgan boshqa tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va ishlab chiqarish laboratoriyaalarini xom-ashyo sifatini tekshiruvchi zamonaviy dastgohlar bilan jihozlashga qaratilgan keng qamrovli strategiyani amalga oshirishmoqdalar.

Strategiyani amalga oshirish eng murakkab va uzoq vaqt mobaynida olib boriladigan jarayon bo'lib, korxonaning istiqboldagi maqsadlarini ro'yobga chiqarishi asosan mana shu bosqichda hal qilinadi.

Belgilangan strategiya chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan vazifa bo'lib, menejerlar tomonidan korxonaning barcha resurslari va mo'ljallangan maqsadlari o'rtaida o'zaro monandlik va uyg'unlikni ta'minlashni talab etadi.

Strategiyani amalga oshirish uni ishlab chiqishga nisbatan ancha og'ir vazifa bo'lib, menejerlardan sabr-toqat, kuchli iroda va jiddiy mas'uliyatni talab etadi. Bu bosqichda har qanday biznes reja va mo'ljallangan maqsadlar amaliy jihatdan ro'yobga chiqishi yuzasidan haqiqiy ko'rikdan o'tkaziladi. Misol uchun, respublikamizda 2001 yilda chet el investitsiyalari ishtirokidagi tugatilgan 174 ta korxonalarning aksariyatida moddiy resurslar bilan belgilangan strategiya o'rtaida uyg'unlikni ta'minlamaslik, jalb etilishi kerak bo'lgan moliyaviy mablag'larni to'g'ri hisob-kitob qila olmaslik, hamkorlar tomonidan majburiyatlarni to'laligicha bajarmaslik, hamda korxona imkoniyatlarini haddan tashqari yo'qori baholab yuborish holatlari tashkilotlarni o'z faoliyatlarini to'xtatishga olib kelgan.

Belgilangan strategiyani amalga oshirishdagi muhim omil uni bajarilishini to'laqonli ta'minlash uchun barcha zarur shart-sharoitlarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Chet el kapitali ishtirokidagi kommunikatsiya sohasida 1997 yilning sentyabridan faoliyat olib borayotgan Daewoo Unitel kompaniyasi, hozirgi kunda 50 mingdan oshiq abonentlarga

ega bo'lib, O'zbekistonda eng zamonaviy uyali aloqa xizmatini ko'rsatuvchi kompaniyaga aylandi. Uning O'zbekistonda eng muvaffaqiyatlari biznesni olib boruvchi 1-raqamdagagi kompaniyaga aylanishi, yo'qori sifatli kommunikatsiya xizmatlarni ko'rsatishi va kompaniyaning barcha xodimlari tomonidan iste'molchilar haqida doimo qayg'urish maqsadlarni ko'zlab amalga oshirayotgan strategiyasi tufayli, kompaniya respublikada uyali aloqa xizmati bozorida 30% dan ortiq ulushga vaziyatishga muvaffaq bo'ldi.

Strategiyani muvaffaqiyatlari amalga oshirishda uni tanqidiy nuqtai-nazardan baholash zarur bosqich bo'lib, bunda olib borilayotgan siyosat ko'zlangan maqsadga muvofiq kelmay qolsa, bu holat chuqur tahlil etilib, strategiyaga tegishli o'zgarishlar kiritib boriladi.

Strategiyani maqsadli amalga oshirish to'xtovsiz jarayon bo'lib, uni amalga oshirilishini doimo baholab borish strategik boshqarishning zarur elementlariga kiradi.

Tashqi yoki ichki muhitda vujudga keladigan yangi shart-sharoitlar kompaniya strategiyasi o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, «Sovplastital» qo'shma korxonasi o'z faoliyatining ilk davrida faqat plastmassadan tayyorlanadigan 10 assortimentdagi sun'iy gul mahsulotlarini ishlab chiqargan. Yillar davomida olib borilgan doimiy izlanish va bozorni chuqur tahlil etish hamda zamonaviy taxnologiyalarni o'rganish natijasida qo'shma korxona plastmassa, rangli shisha, farfordan tayyorlanadigan suvenirlar va xalq iste'moli mollarini ishlab chiqaruvchi Markaziy Osiyodagi eng yirik korxonalardan biriga aylandi. Hozirga kunda korxona 30 ortiq mamlakatlarga o'z mahsulotlarini eksport qilmoqda, bunga «Sovplastital» qo'shma korxonasi bozorda yuz berayotgan o'zgarishlarni vaqtida va tezlik bilan tahlil etib, bozorning yangi talablariga mos keladigan aniq strategik boshqarishni joriy etish orqali vaziyatishdi.

Biznes muhitida shart-sharoitlar biznes faoliyatini

o'zgartirishni, uzoq muddatli maqsadlarga qo'shimchalar kiritishni yoki kelajakda strategik yo'lga yangicha yondashuvni taqozo etishi mumkin. Ko'zlangan maqsadlar kompaniyada mavjud imkoniyatlardan ancha yo'qori bo'lisi yoki kelajakdagagi istiqbollarga ma'lum darajada mos tushmay qolishi mumkin.

Strategik boshqarish doimiy amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, kompaniya strategiyasiga baho berish va unga tegishli o'zgartirishlarni kiritish bu jarayonning ham yangidan boshlanishi va ham yakuniy bosqichi sifatida e'tirof etiladi.

Tashkilot maqsadli muljallarsiz faoliyat yurita olmaydi. Tashkilot faoliyatining maqsadli yo'nalishi birinchi navbatda uning faoliyati odamlarning turli guruhlari manfaatlarining ta'siri ostida bo'lisi bilan bog'liq. Tashkilotning maqsadi ta'sischilar, xodimlar, xaridorlar, hamkorlar, mahalliy jamoa va butun jamiyat kabi insonlar manfaatlarini aks ettiradi.

Tashkilot faoliyatidagi maqsadli negizining ikki asosiy tarkibiy qismlari ajratiladi: vazifa va maqsadlar. Vazifa keng ma'noda tashkilot mavjudligining falsafasi, mazmuni sifatida, tor ma'noda esa-tashkilot nima uchun faoliyat yuritayotganligi haqida shakllangan, batafsillashgan ma'no, tasdiq sifatida tushuniladi. Yaxshi shakllangan vazifa muljallar, faoliyat sohalari, tashkilot falsafasi, faoliyatni amalga oshirish imkoniyat va usullari, tashkilot imidjining izohini o'z ichiga oladi.

Tashkilot maqsadlari ma'lum muddatdan keyin u vaziyatishga harakat qiluvchi alohida parametrlarning aniq holatini tasvirlaydi. Maqsadlar uzoq va qisqa muddatli bo'ladi. Maqsadlar ba'zi zaruriy talablarga javob berishi lozim: ular vaziyatish mumkin bo'lgan, egiluvchan, ulchanadigan, aniq, moslashtiriluvchi va qabo'l qilinishi mumkin bo'ladigan bo'lishi kerak.

Strategiyani tanlash va amalga oshirish strategik boshqaruvning asosiy qismlari bo'lib hisoblanadi. Strategik boshqaruvdagi strategiya tashkilot rivojining uzoq muddatli sifatli aniqlangan yo'li sifatida tushuniladi.

Starategiyani tanlash tashkilotdagi vaziyatza bog'liq. Biroq strategiyani tanglashda ma'lum yondashuvlar mavjud.

Strategiyani tanlash firma faoliyatiga bog'liq bo'lgan uchta savolni hal qilishga bog'liq:

- 1) ma'lum biznesni tugatish;
- 2) ma'lum biznesni davom ettirish;
- 3) ma'lum biznesga o'tish.

Tanlangan strategiyani baholash quyidagi yo'llar bo'yicha amalga oshiriladi:

- 1) strategiya firma maqsadlariga vaziyatilishiga olib keladimi?;
- 2) tanlangan strategiya muhim holati va talablariga mos keladimi?;
- 3) tanlangan strategiya firma potentsiali va imkoniyatlariga mos keladimi?
- 4) strategiyadagi risk o'zini oqlaydimi?

Xulosa shuki, strategik boshqaruv murakkab harakterga ega va ko'p omillarning hisobga olinishini talab qiladi. Shu bilan birga, u firmaning ba'zi muammolarini va ularni yechish usullari tuplamini aniqlaydi. Strategiya bo'lish uchun bu to'plam tizimga aylanishi lozim.

#### **2.4. Strategiyani yaratishga bo'lgan turli xil yondashuvlar.**

Strategiya tuzishga yondashuvlar quyidagicha bo'ladi:

**Bosh strategiya yondashuv** - bunda strategiyani boshliqning o'zi ishlab chiqadi. Bunday holda boshqaruvchi ahvolni baholashga, muqobil strategiyalarga va strategiya qismlariga kuchli ta'sir qiluvchi asosiy strategik va asosiy tadbirkor sifatida ish yuritadi.

**Vakolatlarni berish yondashuvi** - bunda strategiyani tuzish xodimlarga yoki komissiyaga torshiriladi. Bunday holda mas'ul boshqaruvchi strategiyani ishlab chiqishni boshqalarga, asosan, strategik rejalashtirish bo'yicha personalga yoki

ishonch bildirilgan xodimlardan to'zilgan maxsus komissiyaga toshriradi.

**Qo'shma (kollaboratsion) yondashuv** - avvalgi ikki yondashuv o'rtaсидаги oraliq variant. Bunday usulning eng kuchli tomoni shundaki strategiyani ishlab chiqish kimlarga torshirilgan bo'lsa, uni o'shalarni o'zлari bajarishlari kerak bo'ladi.

**Tashabbusli yondashuv.** Bunday yondashuvda boshqaruvchi kelishilgan strategiyani ishlab chiqish uchun strategiya detallarini ishlab chiqishdan ham, «g'oyalar generatorlari» guruhini boshqarishdan ham manfaatdor emas. Balki, boshqaruvchi oqilona strategiyani ishlab chiqish, himoya qilish va hayotga tadbiq etish uchun menejerlarni o'zлari safarbar etadi. Strategiyani ishlab chiqish uchun boshqaruvchilar foydalanshlari mumkin bo'lgan to'rtta asosiy yondashuvning birortasi ham eng yaxshi yondashuv sifatida yuzaga chiqmaydi. Ularning har birining kuchli va kuchsiz tomonlari mavjud.

Kompaniya va boshqaruvchilar strategiyani ishlab chiqish bo'yicha variantlarni turlicha bajaradilar. Kompaniya egasi tomonidan boshqariladigan kichik kompaniyalarda strategiyani ishlab chiqish norasmiy amalga oshiriladi. Yirik firmalar strategiyani har yili ishlab chiqishga moyildir. Strategiyani belgilashning tashkiliy jarayonida boshqaruvchilar shaxsan qatnashadilar.

Strategiya avvalo ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lishi kerak. Kompanianing har bir harakati axloq-odob, ma'naviyat doirasida bo'lishi talab etiladi. Kompaniya mulkdorlar, xizmatchilar, xaridorlar, yetkazib beruvchilar va jamiyat oldida mas'uliyatlidir. Kompanianing yetkazib beruvchilar oldidagi burchi bozor munosabatlariga quriladi. Kompaniya bilan yetkazib beruvchi ham sherik, ham o'zaro raqibdir. Shuning uchun ular o'rtaсидаги munosabatlar aniq belgilab olinishi lozim.

Agar strategiya kompanianing ahvoliga mos bo'lmasa,

raqobat ustunligi yaratilmasa, ishni yaxshilashga yaramasa, bunday strategiya g'olibona strategiya deyilmaydi. G'olibona strategiyaning uch belgisi bo'ladi:

- moslik darajasi mezoni;
- raqobat kurashida ustunlik mezoni;
- ish jadalligini oshirish mezoni.

**Moslik darajasi mezoni.** Yaxshi strategiya uning imkoniyatlari va intilishlari, ichki va tashqi omillar nuqtai nazaridan kompaniyadagi vaziyatga mos kelmas ekan, u shubhalidir.

**Raqobat kurashida ustunlik mezoni.** Yaxshi strategiya raqobatda barqaror ustunlikka vaziyatishga olib keladi. Strategiya yordamida raqobat kurashida qanchalik katta ustunlikka vaziyatilsa, strategiya shunchalik kuchli va samarali bo'ladi.

**Ishlarning jadalligini oshirish mezoni.** Yaxshi strategiya kompaniya ishining tezkorligini oshiradi. Ishlarni takomillashtirishning ikki turi o'ta muhim bo'lib, ular quyidagilar: Daromadlilikning oshishi. Kompaniyaning uzoq kelajakdagi faolligi raqobatbardoshligining oshishi.

## 2.5. Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini loyihalash.

Bozor va iste'molchilar to'liq tushunilgandan keyin, marketing boshqaruvi endi iste'molchiga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini loyihalashi mumkin. Biz marketing boshqaruvini maqsadli bozorni tanlash va u bilan samarali munosabatlarni qurish san'ati va fani deb tushunsak bo'ladi. Marketing menejerlarining asosiy maqsadi yo'qori darajadagi iste'molchi qiymatini shakllantirish orqali xaqiqiy iste'molchilarni topish, ularni jalb etish va ular sonini oshirishdan iboratdir. Samarali marketing strategiyasini loyihalash uchun marketing menejerlari quyidagi ikkita savolga

javob topishlari kerak:

- qanday iste'molchilarga xizmat ko'rsatamiz?
- va bu iste'molchilarga qanday qilib xizmat ko'rsatamiz?

### **Xizmat ko'rsatish uchun iste'molchilarni tanlash.**

Kompaniya avvalo kimga xizmat ko'rsatish kerakligi bo'yicha qaror qabo'l qilishi lozim. Uni kompaniyalar iste'molchilarni segmentlarga ajratish orqali amalga oshiradi. Ba'zilar marketing boshqaruvini imkonи boricha ko'proq iste'molchilarni topish va bu orqali talabni oshirish deb hisoblaydi. Ammo marketologlar bozordagi barcha iste'molchilarga xizmat qila olmasligini tushunadi. Barcha iste'molchilarga xizmat ko'rsatishga harakat qilish orqali ular xech bir iste'molchiga xizmat ko'rsata olmaydi. Uning o'rниga ular ayrim iste'molchilarni tajratib olib, ularga yaxshi va samarali xizmat ko'rsatishni xohlashadi. Qisqa qilib aytganda marketing boshqaruvi bu-iste'molchi va talab menejmenti hisoblanadi.

**Marketing boshqaruvi yo'llari.** Marketingni boshqarish iste'molchilar bilan samarali munosabatlarni o'rnatishga mo'ljallangan strategiyalarini ishlab chiishni o'z oldiga asosiy vazifa sifatida qo'yadi. Ammo bu marketing strategiyalarini qanday falsafa olg'a suradi? Jamiyat, tashkilot va istemolchilar manfaatlariga qanday baho beriladi? Ko'p hollarda bu savollar munozarali bo'lib qolmoqda.

Quyidagi beshta muqobil konsepsiylar asosida kompaniyalar o'z marketing strategiyalarini loyihalaydilar va amalga oshiradilar ya'ni:

- ishlab chiqarish konsepsiysi;
- mahsulot konsepsiysi;
- sotish konsepsiysi;
- marketing konsepsiysi;
- ijtimoiy marketing konsepsiylaridir.

**Ishlab chiqarish konsepsiysi** o'z harakatini mahsulot ishlab chiqarish samaradorligaga, mahsulot birligining tannarxini pasaytirish maqsadida ishlab chiqarish texnologik

jarayonlarning ortimallashuviga qaratadi. Boshqa so'z bilan autganda, keng tarqalgan va narx jihatidan qulay bo'lgan tovarlarga nisbatan marhamatli bo'ladilar. Shunga ko'pa bu konsepsiya e'tiborining asosiy ob'ekti qilib ishlab chiqarishni takomillashtirish va taqsimot tizimining samaradorligani tanladi. Maqsadga vaziyatishning yetakchi vositalari sifatida ishlab chiqarish miqqoslarini kengaytirish va mahsulot tannarxini kamaytirish tavsiya etildi.

**Tovar konsepsiysi** mahsulotning iste'molchilik xususiyatlarini oshirishga alohida ahamiyat beradi. Bunda asosiy tezis sifatida iste'molchilar eng yo'qori sifatli, eng yaxshi yeksrlyatatsion xususiyatlarga ega bo'lgan tovarga nisbatan xauriox bo'ladilar, degan tushunchani ilgari suradilar. Asosiy diqqat e'tibor tovarga qaratiladi, shuning uchun ham marketing harakatlari tovar sifatiga, aniqrog'i uning modernizatsiyasiga qaratildi.

1930-yillarning o'rtalaridan 1980-yillarning o'rtalarigacha marketing rivojlanishining ikkinchi bosqichi davri bo'ldi. Bu davrda e'tibor sotishga, so'ngra esa iste'molchiga qaratiladi.

**Sotish konsepsiysi** sotish va sotilishlarni rag'batlantirish sohasida yetarli harakatlarni amalga oshirmasa, iste'molchilar firmaning tovarlarini kerakli miqdorda sotib olmaydilar, deb hisoblaydi. Firmanın asosiy maqsadi — sotilishlar hajmining o'sishi hisobiga foyda olish. E'tiborining asosiy maqsadi — sotish va xizmat ko'rsatish texnologiyasi va sotishni rag'batlantirish bo'yicha tijorat jarayonlarini jadallashtirish.

Vaqt o'tishi bilan marketing mohiyati tovar va narx siyosati, taqsimlash, siljitish va sotish jarayonlarining majmui sifatida tobora ko'proq tushunilib boryapti. «Marketing aralashmasi» deb tarjima qilingan maxsus «marketing-miks» atamasi kiritilyapti. Keyingi umumiylar marketing konsepsiyasida marketing-miks konsepsiyasiga aylanadi, asosiy e'tibor iste'molchilar ehtiyojlari va ularning samarali qondirilishiga qaratiladi. Endi yakuniy natijaga vaziyatish, ya'ni foyda olish,

tovar va boshqa bir qator omillar va marketing harakatlari vositasida (marketing- miks) iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishga o'zviy bog'lanib qoldi.

Marketing rivojlanishining uchinchi eng sifatli bosqichi taxminan 1980-yillarning o'rtalarida boshlandi va hozirgi vaqtida ham davom etmoqda. Bu yerda strategik, ijtimoiy yo'naltirilgan, individual marketing, marketing munosabatlari, katta ijtimoiy guruhlari marketingi — mezo — va mega-marketinglar konsepsiyalari hukmronlik qiladi. Iste'molchilar dunyoning yagona markazi bo'lmay qoladi. Bunda uchta omilning muvozanati vujudga keladi: firmanın foydasи, xaridorlarning ehtiyojlari va jamiyat manfaatlari.

**Marketing konsepsiysi** asosida iste'molchilar va raqobatchilarga yo'naltirilganlik yotadi. Strategik marketing mazmuni iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish va bir vaqtning o'zida yaxshiroq iste'mol xususiyatlari ega bo'lgan tovarni yaratish yoki pastroq narx qo'yish orqali raqobatchilarga nisbatan ustunlikka vaziyatishdan iborat. Raqobatchilarga yo'naltirilganlik iste'molchilarga yo'naltirilganlikka zid bo'lmaydi. Aksincha, uni kuchaytiradi, chunki korxonalar shunday sharoitga qo'yilganki, bozor ehtiyojlarini qondirish ishlab chiqarish, xarajatlar va boshqa sohalardagi hamma yutuqlarni maksimal hisobga olishni talab qiladi. Hozirgi vaqtida jamiyat tomonidan hal etilayotgan yirik iqtisodiy, xom ashyoviy, energetik va boshqa muammolar jamiyat ehtiyojlarini va iqtisodiy resurslarga yo'naltirilganlikni kuchaytirib, marketingning iste'molchilik konsepsiyasini ancha o'zgartirib yubordi.

**Ijtimoiy marketing konsepsiysi** nafaqat bitta shaxsning, balki butun jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Korxona foydasи, xaridor ehtiyojlari va jamiyat manfaatlarining o'ziga xos muvofiqlashuvi va o'zaro bog'lanishi sodir bo'ladi (3-rasm).



**3-rasm. Ijtimoiy marketing konsepsiysi ifodasi.**

Ijtimoiy marketing bilan bog'liq bo'lgan, katta ijtimoiy jamoalarning, davlat siyosatining muammolariga diqqatini qaratuvchi *mega-marketing* paydo bo'ldi.

Jamiyat hayotini axborotlashtirish kuchaygan sharoitda korxonaning xaridor bilan bevosita munosabatda bo'lishi imkoniyati vujudga keladi. Ommaviy marketingdan alohidalashgan marketingga o'tish ko'zatiladi.

Shunday yo'llardan biri — **munosabatlар marketingi** (maksi-marketing) zamonaviy telekommunikatsiyaviy vositalardan foydalangan holda iste'molchilar bilan individual munosabatlarni iloji boricha mustahkamlashga yo'naltiriladi. Bu yerda uzlusiz ravishda interaktiv kommunikatsiyalar yordamida olingen individual iste'molchi haqidagi bilimlarni amalda tadbiq etish jarayoni boradi. Bu bilimlar uzlusiz va uzoq muddatli o'zaro manfaatli aloqalarni ta'minlash maqsadida mahsulotlar va xizmatlarni yaratish va siljitimshga yordam beradi. Bunday munosabatlarning xaridor uchun afzalliklari — aloqalarning samaradorligi, ishlab chiqaruvchi uchun — foyda, ikkalasi uchun — tinchlik, kelajakka ishonch. Qayd qilish kerakki, individual marketing mehmonxonada lyo'qsizmat ko'rsatishda, bank ishida tobora ko'proq rivojlanmoqda, aniqrog'i, har qanday alohidalashgan tovar bozorlarida qo'llanilishi mumkin.

Zamonaviy marketing konsepsiylarini chizma ko'rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin:

### **Zamonaviy marketing konsepsiyasining chizmasi.**

**2.3.-jadval**

Boshlang'ich nuqtasi	Vositalar	Bozordagi faoliyatning maqsadlari
Xaridorlarning, maqsadli guruhlarning ehtiyojlari, afzal ko'rgan narsalari	Marketing sohasidagi tadqiqotlar (marketing miks)	Xaridorlar ehtiyojlarini barqaror qondirish evaziga foyda olish

Qo'yilgan maqsadlarga vaziyatishda firma dastlab o'zining resurs potensialining bozor imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak, ya'ni ishlab chiqarish, texnologiyalar darajasi, moliya, sotish kabi hal qiluvchi sohalarda o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini hisobga olishi kerak.

Oxirgi paytlarda marketing yordamida yechiladigan masalalarning murakkablashuvi sharoitida uning baynalmillallashuvi bilan bog'liq bo'lgan global marketing haqida tobora ko'proq gapira boshladilar. Bu jarayon, ayniqsa, transmilliy kompaniyalar uchun xosdir. Ular tomonidan bozor alohida segmentlar kabi emas, ko'proq ehtiyojlarning gomogenizatsiyasi jarayoni va iste'molchilarning mashhur va tanilgan tovar markalarini olishga juda ishtyoqmandligiga ko'ra yagona bozor sifatida qaraladi. Shuni ta'kidlash joizki, global marketing asosida innovatsion tovarni ehtiyojlarni qondirishning standartlashgan va iste'molchilarning keng segmentlari uchun qulay va arzon bo'lgan usuliga aylantirish g'oyasi yotadi.

Bozorning globallashuvi mamlakatlar va ayrim hududlarning o'z chegaralaridan tashqarida faoliyat ko'rsatishga intilishiga aytildi. Bu haqda savdoning

liberallashuvi, investision to'siqlarning olib tashlanishi, erkin tadbirkorlikning paydo bo'lishi va boshqalar dalolat beradi. Yirik korxonalar doirasida esa globallashuv ichki bozor chegaralaridan chiqish vajahon bozorinio'zlashtirishga umumiy yondashuvning shakllanishini bildiradi. Bo'larning hammasi shunday xulosaga olib keladiki, zamonaviy marketing yo'llari va tendensiyalari korxona darajasida muvaffaqiyatlari amalgalashirish uni boshqarish konsepsiysi sifatida qabo'l qilish, funksiyalararo koordinatsiyaning rivojlanishi va qarorlarni qabo'l qilish, korporativ madaniyatni takomillashtirish bo'yicha funksiyalararo guruhlarning yaratilishini talab qiladi.

Ishonchimiz komilki, marketing kelajagi aynan ana shu konsepsiya bilan bog'liq. Ba'zi bozorlarda esa u allaqachon ustunlik qilmoqda. Dorilar, o'yinchoqlar, oziq-ovqat mahsulotlari, sport jihozlari, kompyuterlar va boshqalarni ishlab chiqarishni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Bundan buyon iste'molchilar bozorda uyushgan kuch tarzida namoyon bo'ladilar. Bu esa tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatida ancha qiyinchiliklarga olib keladi. Konsyumerizm, qisqacha qilib aytganda, iste'molchilarning o'z huquqlarini himoya qilishi yo'lidagi harakati deb tushuntiriladi. Bunda iste'molchilarning harakati iqtisodiy evolyusiyaning mahsuli sifatida, ishlab chiqaruvchilar iqtisodiyotidan iste'molchilar iqtisodiyotiga, sotuvchilar bozoridan xaridorlar bozoriga o'tish sifatida qaraladi. Konsyumerizm marketing konsepsiyasiga ishonchszilik bildirmaydi, balki uning amaliyotda real tadbiq etilishini talab qiladi.

Tabiiy resurslarning cheklanganligani anglab olish, iste'mol va marketingning atrof-muhitga ta'siridan tashvishlanishni ifodalovchi environmentalist harakat rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga ekologik muammolarga e'tibor kuchaymoqda. Ekologiya firma tashqi muhitining omili sifatida qaralmoqda. «Yashil marketing» harakati rivojlanmoqda, bu esa ekologik jihatdan toza bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishni

kengaytirishga ko'maklashadi.

### Nazorat uchun savollar

1. Firmada strategiyani ishlab chiqish ierarxiyasi
2. Firma faoliyat yo'llarini belgilash omillari
3. Strategiyani ishlab chiqish uslubi
4. Strategiyani yaratishga bo'lgan turli xil yondashuvlar

### **3-MAVZU. TARMOQLAR VA ULARNING IQTISODIY TAVSIFLARI VA KO'RSATKICHLARI**

#### **REJA:**

- 1. Tarmoqlar va ularning iqtisodiy tavsiflari.**
- 2. Tarmoqni ta'riflovchi umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar.**
- 3.Tarmoqdagi raqobat kuchlarini tahlil qilishda Maykl Porterningi "beshta kuch modeli".**
- 4. Firmani raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi omillar.**

**Tayanch so'z va iboralar:** besh kuch modeli, tarmoq, iqtisodiy ko'rsatkichlar, strategik guruhlar xaritasi.

#### **3.1. Tarmoqlar va ularning iqtisodiy tavsiflari.**

Strategiyani ishlab chiqish tahlilga asoslangan ish bo'lib, tahlil ikki yo'lda olib boriladi:

Tarmoqdagi vaziyat va undagi raqobatning shartlari.

Kompaniya ichidagi vaziyat, uning raqobatbardoshligi.

Tarmoqlar o'zining iqtisodiy ta'rifi, ulardagи raqobat istiqbollari bo'yicha bir biridan farq qiladi. Masalan Ilmiy-texnika taraqqiyoti sur'atlari yo'qori va past bo'lishi mumkin. Har bir tarmoq uchun zarur bo'lgan kapital qo'yilmalar hajmi ham bo'ladi. Bozorlar esa mahalliydan tortib dunyo bozorigacha farqlanadi. Raqobat kuchli yoki zaif bo'ladi. Talab ham o'sib boruvchi yoki aksincha, kamayib boruvchi bo'ladi.

Tarmoqdagi umumiy vaziyat va undagi raqobatni tahlil qilishda alohida usullar qo'llanilib, bu usullar tarmoqda bo'layotgan o'zgarishlar raqobat kurashini baholash imkonini beradi. Buning uchun quyidagi omillarni belgilash talab etiladi:


- 1. Tarmoqni ta'riflovchi umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar.**
- 2. Tarmoqdagi raqobat kuchlari va ular ta'sirining darajasi.**
- 3. Raqobat kuchlari tarkibida o'zgarish yasovchi omillar.**

- 4. Kompaniya raqobat mavqeining kuchli va zaif jihatlari.**
- 5. Raqobat kurashidagi muvaffaqiyat kaliti va muvaffaqiyatsizlik omillari.**

#### **6. Raqobat qaysi yo'lda borishini belgilovchi shaxslar.**

Vaziyat tahlilining maqsadi kompaniyaning ichki va tashqi muhitiga xos bo'lgan va kompaniyaning strategik yo'li va imkoniyatlarini eng ravshan ifodalovchi jihatlarni aniqlashdan iborat. Bunda asosiy e'tibor strategiyaga oid bir qator muhim savollarga aniq javoblar topishga qaratiladi. So'ngra bu savollar kompaniyadagi strategik vaziyatning aniq manzarasini shakllantirish va uning hatti-harakatlariga muqobil variantlarni belgilash uchun foydalaniladi.

Yakka biznes bilan shug'ullanuvchi kompaniyadagi strategik vaziyatni tahlil qilish usullaridan kelgusida ko'pincha diversiyalangan kompaniyaning strategiyasini tahlil qilishda ham foydalaniladi. Yakka biznes bilan shug'ullanuvchi kompaniyadagi tashqi vaziyatni (makromuhitni) tahlil qilishda odatta soha va raqobat tahlillaridan foydalaniladi. Vaziyatni tahlil qilishda firmaning eng yaqin atrof-muhiti (makromuhiti) o'rganiladi. 6-chizmadagi yakka biznes bilan shug'ullanuvchi kompaniya uchun strategik tahlilning tuzilmasi keltirilgan. Kompaniyaning strategik tahlilining mantiqiy yechimi strategiyani tanlashda muqobil variantlarga baho berishdir. Shunday qilib ushbu tahlil strategik rejani shakllantirshning dastlabki nuqtasi hisoblanadi.



### 3.1.-chizma. Vaziyat tahlilining strategik tanlovga.

### 3.2. Tarmoqni ta'riflovchi umumiyl iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Tarmoqdagi umumiyl vaziyat va undagi raqobatning tahlili asosiy iqtisodiy ko'rsatkiyalarni o'rganishdan boshlanadi. Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Bozor hajmi.
2. Raqobat miqyosi (mahalliy, mintaqaviy, dunyo)
3. Bozorning o'sish sur'atlari va u rivojlanishning qaysi

bosqichda ekanligi

4. Raqobatchilar soni va ularning hajmi.
  5. Xaridorlar soni va ularning moliyaviy imkoniyatlari.
  6. Integratsiya qaerga qarab ketayapti?
  7. Texnologik o'zgarishlarning yo'li va sur'atlari.
  8. Tarmoqqa kirish va undan chiqishning osonligi.
  9. Raqobatchilar mahsuloti va xizmatlarining tabaqlanish darajasi.
  10. Kompaniyaning ishlab chiqarish hajmi, yo'qlarni tashishni tashkil qilish, marketing va reklamani tashkil qilish tejamkorlikka vaziyatish imkonining mavjudligi.
  11. Tarmoqdagi «o'qitish tajriba» egri chizig'i ijobjiy tendentsiyaga egami?
  12. Tarmoqqa zarur bo'lgan kapital sarmoyalar qo'yilayaptimi?
  13. Tarmoqdagi daromad darjasasi umumiy daromad darajasida pastmi yoki yo'qori?
- Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha soha «portretini» to'zib, so'ng tahlil qilish maqsadga muvofiq. Buning uchun ushbu jadvalda ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlarning strategik jihatdan muhimligiga doir ma'lumotlar keltirilgan.
- Tarmoqdagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning strategik ahamiyati.**

### 3.1-Jadval

Ko'rsatkich	Ko'rsatkichning strategik ahamiyati
Bozor hajmi	Kichik bozorlarda katta va yangi raqobatchilarni jalb qilish tendentsiyasi ko'zatilmaydi; katta bozorlar muayyan tarmoqlarda raqobatchilik ustunligini mustahkamlash maqsadida turli kompaniyalarni sotib olmoqchi bo'lgan korporatsiyalarni o'ziga jalb qiladi.

Bozor hajmining ortishi	Jadal sur'atlar bilan o'sish yangiliklarga olib keladi, o'sishning sekinlashishi esa raqobatni kuchaytiradi va zaif raqiblarni kurashdan siqib chiqaradi
Ishlab chiqarish quvvatlarining ortiqchaligi yoki tanqisligi	Ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari xarajatlarni ko'paytirib, daromadni kamaytiradi, ularning tanqisligi esa xarajatlarga oid teskari tendentsiyalarga olib keladi
Tarmoqning daromadliligi	Yuqori daromadli tarmoqlar ham yangiliklarga olib keladi
Kirish chiqish to'siqlari	Katta to'siqlar mavjud firmalarning mavqeini va daromadlarini himoya qildi, to'siqlar past bo'lganda esa yangi firmalarning kirib kelishi ularga salbiy ta'sir ko'rsatadi
Tovar xaridorlar uchun qimmat	Ko'pchilik xaridorlar tovarni eng past narxlarda sotib oladilar
Standartlash-tirilgan tovarlar	Xaridorlar bir sotuvchidan boshqasiga oson o'tishlari mumkin.
Texnologiya-ning tez o'zgarishi	Texnologiya va asbob-uskunalarga ajratilgan investitsiyalar ularning yeskirib qolishi tufayli o'zini oqlamay qolish xavfi kuchayadi
Kapitalga qo'yilgan talablar	Katta talablar investitsiyalarga oid qarorlarga tanqidiy munosabatda bo'ladi, investitsiyalash payti muhim bo'lib boradi, kirish va chiqish to'siqlari kuchayadi
Vertikal integratsiya	Kapitalga nisbatan qo'yilgan talablar kuchayib boradi, ko'pincha raqobatli differentsiatsiya hamda integratsiya darajasi turlicha bo'lgan firmalar o'rtaсидаги qiymat differentsiatsiyagi kuchayadi

Ko'lamdan tejash	Narx bo'yicha raqobatlashish uchun zarur bo'lgan bozor hajmi kattalashadi
Tovarning tez yangilanishi	Tovarning hayot tsikli qisqaradi

### 3.3.Tarmoqdagi raqobat kuchlarini tahlil qilishda Maykl Portering "beshta kuch modeli"

«GARVARD» universitetining professori Maykl Porter tarmoqdagi raqobatchi kuchlarni quyidagicha guruuhlagan:

1. Tarmoq ichida sotuvchilar o'rtaсидаги raqobat.
2. Boshqa tarmoqdagi kompaniyalarning o'z tovarlari bilan bu tarmoqdagi xaridorlarni egallab olishga harakat qilishi.
3. Tarmoq ichida yangi raqobatchilarning paydo bo'lishi.
4. Xom ashyo va butlovchi detallaryetkazib beruvchilarning o'z shartlarini o'tkazishga urinishlari.

Bu tahlil korxona mazkur tarmoqda duch kelishi mumkin bo'lgan qulay imkoniyatlar va xavf-xatarlarni aniqlab olish maqsadida amalga oshiriladi.

Porter buning «beshta kuch» modelini taklif qilgan. U ushbu modelni asoslab berar ekan, bu ko'rsatkichlarning ta'sir kuchi qanchalik yo'qori bo'lsa, mavjud kompaniyalarda narx va daromadni oshirish imkoniyati shunchalik kam bo'lishini ta'kidlagan edi. Bu kuchlarning zaiflashishi esa kompaniyalar uchun qulay imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Kompaniya o'z strategiyasini o'zgartirib, ushbu ko'rsatkichlarni o'z foydasiga o'zgartirishi mumkin.

**Portering birinchi raqobat kuchi.** Potensial raqobatchilarning kirish xavfi kompaniyaning daromadlariga tahdid solishi mumkin. Ikkinci tomondan, agar bu xavf kichik bo'lsa, kompaniya narxlarni oshirib, o'z daromadlarini ko'paytirishi mumkin.

Bu omilning uchta asosiy manbai bor:

- xaridorlarning savdo markasiga sodiqligi;
- xarajatlar bo'yicha mutloq;
- ko'lamdan tejash.

U standartlashtirilgan mahsulotni yoppasiga ishlab chiqarishda xarajatlarning kamaytirilishi, xom ashyo, material va tarkibiy qismlarni katta miqdorlarda sotib olishdagi chegirmalar, reklamaga sarflanadigan xarajatlarning kamaytirilishi va hokazolar bilan bog'liqdir. Bo'larning barchasi ishlab chiqarishni endi boshlayotgan kompaniyalar uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi.

**Porter nazariyasi bo'yicha ikkinchi raqobatchi kuchi** tarmoqda mavjud bo'lgan kompaniyalarning raqobatlashuvdir. Bu yerda ham uchta omilning ta'sirini ko'rsatib o'tish mumkin:

- tarmoqdagi raqobatning strukturasi;
- talabning shart-sharoitlari;
- tarmoqqa kirish tusiqlarning balandligi.

Tarmoqdagi raqobatning strukturasi tarmoqdagi darajasiga bog'liqdir. Tarmoqda potensial xatarlar qulay imkoniyatlarga qaraganda ko'proq bo'ladi, chunki bunday tarmoqlarga kirib kelish nisbatan yengildir.

Konsolidatsiyalangan tarmoqlarda odatda katta va mustaqil kompaniyalar faoliyat ko'rsatadilar. Binobarin, bir kompaniyaning raqobatchilik faoliyati boshqa raqobatchilarning bozordagi ulushiga bevosita ta'sir qiladi, natijada ular tezda bunga javoban harakat qilib, raqobat kuchayadi. Bunday kompaniyalarning narx urushi olib borish imkoniyati raqobatning asosiy xatarli kuchidir. Bunday hollarda kompaniyalar sifatdagi ustunliklar bo'yicha raqobatlashishga intiladilar, ya'ni raqobatchilik urushi savdo markasiga sodiqlik va narx urushi ehtimolini kamaytirish pozisiyalaridan olib boriladi. Bunday taktikaning muvaffaqiyati tarmoqda mahsulotni tabaqalash imkoniyatlariga bog'liqdir.

Tarmoqda talabning usib borishi raqobatning susayishiga olib keladi. Talab bozor bilan birlgilikda usib boradi,

kompaniyalar investitsiyalarning qaytish tezligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularga bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi. Aksincha, o'sishning sekinlashishi raqobatni kuchaytirib yuboradi, kompaniyalar sotish bozorlarini faqat boshqa kompaniyalardan tortib olish hisobigagina qo'nga kiritishlari mumkin bo'lib qoladi. Shunday qilib, talabning kamayishi - raqobatning kuchayishiga olib keladigan asosiy xatardir.

**Porter nazariyasingning uchinchi kuchi** xaridorlarning «savdolashish» imkoniyatidir. U eng yaxshi sifat yoki xizmat ko'rsatishga bo'lgan talab tufayli narxlarga bosim ko'rsatish xavfini vujudga keltiradi. Zaif xaridorlar yesa, aksincha, narxlarning o'sishiga va daromadning ortishiga yul qo'yadilar.

Xaridorlar quyidagi hollarda aynilsa kuchlidirlar:

- yetkazib beruvchi soha bir necha kichik kompaniyalardan tarkib torgan bo'lib, xaridorlar kam bo'lganda;
- xaridorlar tovarlarni katta miqdorda sotib olganda;
- tarmoq o'z faoliyat turidan kelib chiqqan holda xaridorlarga kuchli darajada bog'liq bo'lganda;
- xaridorlar bir necha yetkazib beruvchi tarmoqlar ichidan eng past narx taklif qilayotgan bittasini tanlash imkoniyatiga ega bo'lganda (bu ushbu tarmoqda narx raqobatini kuchaytiradi);
- xaridorlar uchun turli kompaniyalardan tovar sotish olishni iqtisodiy jihatdan yaxlit bitta harid deb qarash mumkin bo'lganda;

**To'rtinchi raqobat kuchi** yetkazib beruvchilarning bosim ko'rsatishidir. Bu bosim natijasida yetkazib beruvchilar narxlarni ko'tarish bilan tahdid solib, kompaniyalarni yetkazib berilayotgan mahsulot miqdorini kamaytirishga majbur qiladi va daromadni pasaytiradi. Bunga muqobil ravishda - zaif yetkazib beruvchilar o'z mahsulotlariga bo'lgan narxni pasaytirishga va yo'qoriq sifatni talab qilishga imkon beradilar.

Quyidagi hollarda yetkazib beruvchilar tomonidan

ko'rsatiladigan bosim ayniqa kuchli bo'ladi:

- yetkazib berilayotgan mahsulotning o'rnini bosa oladigan tovarlar kam bo'lib, u kompaniyaning ishonchli mahsuloti bo'lganda;
- tarmoqdagi kompaniyalar ta'minotchi korxonalar uchun muhim bo'lmaganda;
- yetkazib berilayotgan mahsulotlarning sifati yo'qoriligi tufayli kompaniyalarning boshqa mahsulotga o'tishi qimmatga tushganda.

**Beshinchi raqobatchi kuch** tovarning o'rnini bosuvchi mahsulotlarning paydo bo'lish xavfidir. Tovarning o'rnini to'liq bosa oladigan mahsulotlarning mavjudligi jiddiy xavf tug'diradi va kompaniyaning narxlarini hamda daromadlarini cheklab qo'yadi. Ammo, agar kompaniya mahsulotlarining o'rnini bosa oladigan tovarlar kam bo'lsa, kompaniya narxlarni oshirishi va qo'shimcha daromad olishi mumkin. Kompaniyaning strategiyasi bu faktdan foydalana olishi lozim.

#### **Tarmoqdagi raqobat darajasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:**

1. Shafqatiz raqobat
2. Intensiv raqobat
3. Me'yordagi raqobat
4. Jalb qiluvchi zaif raqobat

Bozorga yangi kirib kelgan korxona yangi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lishi, ayrim hollarda kattagina resurslarga ega bo'lishi mumkin. Bunday korxonalar bozorda o'z o'rnini topib egallash uchun kurashadi.

#### **Bozorda yangi raqobatchining paydo bo'lishi quyidagi omillarga bog'liq:**

- bozorga kirish yo'lidagi to'siqlar;
- bozorda ishlayotgan kompaniyalarning reaksiysi;
- bozorga kirish yo'lidagi to'siqlar quyidagicha bo'ladi:
- ishlab chiqarish miqiyosining tejamkorligi;
- texnologiya va nou-xauga vaziyatishning imkoniyati

yo'qligi:

- xaridorlarning ma'lum markalariga moyilligi;
- sotish qanallariga kira olish;
- nazorat qiluvchi organlarning harakatlari. (litsenziya, ruxsatnomalar).

#### **Raqobat kuchlari tarkibida o'zgarish yasovchi omillar**

Bozordagi vaziyat tez-tez o'zgarib turadi, chunki bozorda" ishlayotgan kompaniyalar bozorga kirib kelayotgan yangi firmalarni o'z siyosatini o'zgartirishga majbur qiladi. Bozorda eng ko'p ta'sir qiladigan kuchlar «raqobatni harakatlantiruvchi kuchlar», deb ataladi. Bu kuchlarni tahlil qilish ikki bosqichdan iborat:

1. Harakatlantiruvchi kuchlarni aniqlash.
2. Ushbu kuchlar ta'sirini aniqlash.

Bozorda eng ko'p uchraydigan harakatlantiruvchi kuchlar quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli tendentsiyalaridagi o'zgarish;
- iste'molchilar tarkibi va tovarlardan foydalanish usullarining o'zgarishi;
- yangi mahsulotlarni joriy qilish;
- texnologik o'zgarishlar;
- marketing tizimidagi o'zgarishlar;
- yirik firmalarning bozorga kirishi yoki chiqishi;
- nou-xau ning tarqalish darajasi;
- tarmoqlar keng qamrovliligining o'sishi;
- unumdarlik va xarajatlar tarkibining o'zgarishi;
- xaridorlar moyilligining tabaqlangan tovarlardan standart tovarlarga o'tishi;
- davlat qonunchiliga va siyosatidagi o'zgarishlarning ta'siri;
- ijobjiy qadriyatlar, moyilliklar va turmush tarzining o'zgarishi;
- noaniqlik va tavakkalchilik omillari ta'sirining kamayishi.

## **Kompaniya raqobat mavqeining kuchli va zaif jihatlari.**

Tarmoqdagi raqobat tarkibini o'rganishdagi keyingi qadam - bu raqobatlashayotgan kompaniyalarning bozordagi o'rnini aniqlashdir. Tarmoqdagi korxonalar raqobat mavqeini taqqoslashning asosiy usuli - bu strategik guruxlar kartasini tuzishdir.

**Strategikguruxlarkartasi**-tarmoqda raqobatlashayotgan korxonalarning raqobat mavqelarini aks ettiruvchi asbobdir. Bu tahliliy usul tarmoqning umumiy tahlili va har bir korxonaning bozordagi mavqeini bir biriga bog'laydi. Buning uchun tarmoqda ishlayotgan barcha kompaniya va korxonalar strategik guruxlarga bo'linadi. Strategik guruxlarga raqobat uslubi va bozordagi mavqeい bir xil bo'lgan korxonalar kiritiladi. Bozordagi asosiy raqobatchilar nechta bo'lsa strategik guruxlar soni ham shuncha bo'ladi, ammo buning uchun raqobatchilarning har biri o'zining raqobat usuliga va bozorda o'z mavqeiga ega bo'lishi lozim.

### **Strategik guruxlar kartasini-tuzish tartibi quyidagicha:**

- Tarmoqdagi korxonalarning bir biridan farqlantiruvchi belgilari aniqlanadi.
- Kartaning o'qlari bo'ylab turli harakteristikalarini juftligi tushiriladi.
- Kartaga korxonalar 2 o'zgaruvchan ko'rsatkichlarga asosan joylashtiriladi.
- Bitta strategik zonaga kirgan korxonalar strategik guruxga birlashtiriladi.
- Har bir strategik gurux atrofida aylana chiziladi. Aylananing diametri har bir strategik guruxning bozordagi o'rniga proporsional bo'ladi. Ana shu ko'rsatkichlardan foydalanib strategik guruxlarning 2 o'lchamli kartasini tuzish mumkin.

Bir tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning raqobat pozisiyalarini o'rganish uchun strategik guruxlash jarayonlaridan foydalaniladi.

Bir strategik guruxdagi kompaniyalar mahsulotlar diarazonining kengligi, tovar harakati qanallaridan foydalanish usullari; uxshash texnologik yondashuvlar, vertikal integratsiyalanish darajasi, servisning va texnologik xizmat ko'rsatish harakteri kabi turli belgililar bo'yicha birlashishlari mumkin. Tarmoqda bozorga nisbatan strategik yondashuvlari bir xil bo'lgan bitta strategik gurux mavjud bo'lishi mumkin.

Strategik guruxlar xaritasini tuzish va korxonalarni u yoki bu gurux tarkibiga kiritish quyidagicha amalga oshiriladi:

- Tarmoqdagi korxonalarni bir-biridan farqlovchi raqobatli harakteristiqalar aniqlanadi (narx, sifat, faoliyat geografiyasi, integratsiya darajasi, mahsulot nomenklaturasi va hokazo).
- Korxonalarning holati ikki chiziqli chizmaga joylashtiriladi (tanlab olingen xususiyatlari bo'yicha).
- Bir strategik sohaga to'g'ri keladigan korxonalar aniqlanadi.
- Har bir guruxning tarmoqdagagi umumiy savdo hajmidagi ulushi aniqlanadi.

Shunday qilib, tarmoqni strategik guruxlashning yo'qorida aytib o'tilgan ikki o'lchovli xaritasi yasaladi.

Agar jiddiy tafovutlar ikkitadan ortiq bo'lmasa, bir necha xarita tuzish maqsadga muvofiqdir.

Turli strategik guruxlar bir-biriga qanchalik yaqin joylashgan bo'lsa, ular o'rtasidagi raqobat shunchalik kuchli bo'ladi. Eng yaqin raqobatchilarning fel-atvorini o'rganish muhimdir. Raqobatchilarning strategiyasini, ularning kelgusida qanday yul tutishini bilmay turib, ular bilan muvaffaqiyatli raqobatlashish mumkin emas. Raqobatchilar nima qilmoqda va nima qilmoqchi - bu savollarga javob topish kompaniyaning strategik faoliyati uchun nihoyatda muhimdir, aks holda u har doim mudofaa pozisiyasida bo'lishga majbur bo'ladi.

Korxonalarning raqobatdagi kelgusi pozisiyalarini baholash uchun e'tiborni ularning bozordagi o'z ahvolini

yaxshilash imkoniyatlariga qaratish lozim. Agressiv raqobatchilar yangi strategik tashabbuslar manbaidirlar. O'z maqsadiga vaziyatgan raqobatchilar o'zlarining hozirgi strategiyasini amalga oshirishda davom etadilar. Bezovta va moliyaviy jihatdan og'ir ahvolda qolgan raqiblar hujumchi yoki mudofaachi sifatida yangi-yangi strategik hatti-harakatlarga o'tishlari mumkin. Shu munosabat bilan o'zingizni ushbu kompaniya menejerlarining o'rniqa qo'yib ko'rishingiz va ularning qanday yul tutishlarini muloxaza qilib ko'rishingiz mumkin.

### **3.4. Firmani raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi omillar.**

Agar korxona yoki kompaniya o'z raqiblarining hatti harakatlarini ko'zatib bormasa u ko'zini bog'lab olib raqobatlashmoqchi bo'lgan hisoblanadi. Xuddishaxmatdagidek raqobat kurashida ham raqibining keyingi yurishini oldindan ko'ra bilish beباho ahamiyatga egadir. Agar raqibining keyingi qadamini bilmasa, kompaniya g'alaba qozonolmaydi. Bu boradagi raqobat kurashi quyidagi yo'llarda olib boriladi:

**1-Raqiblar strategiyasini aniqlash.** Buning uchun raqib kompaniya faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, uning bozordagi mavqeい, strategik maqsadlari raqobat strategiyasi o'rganiladi.

**2-Kelajakda tarmoqning yetakchisi bo'lishi yoki yetakchi bo'lgan korxonalarini aniqlash.** Buning uchun har bir korxonaning potensial imkoniyatlarini o'rganib ularning ichidan boshqalardan o'zib ketish yoki o'zib bo'lgan korxonalar belgilanadi. Kelajakda qaysi korxonalar o'z mavqeini yo'qotadi, qaysi biri yetakchi bo'lishi mumkinligini to'g'ri belgilash korxonaning strategiyasini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**3-Raqiblarning keyingi qadamini oldindan ko'ra bilish.**

Agressiv raqib odatda qandaydir yangi strategik qadam

qo'yadi. O'zining bozordagi mavqeidan qanoatlanadigan korxonalar esa amaldagi strategiyasini saqlab turadi. Omadsiz korxonalarining ahvoli shu qadar yomon bo'ladi-ki, ular yaxshi o'ylanmagan bo'lsa ham hujumga o'tishga majbur bo'ladilar.

Raqibning keyingi qadamini oldindan aytib berish uchun o'sha kompaniyadagi vaziyatni rahbariyatning kayfiyatini, ularning fikrlash tarzini bilish lozim. Raqib haqida axborot yig'ishga qaratilgan razvedka faoliyati uning harakatlarini oldindan bilish va samarali qarshi choralar ko'rish imkonini beradi.

Muvaffaqiyatning asosiy omillari (MAO) - muayyan tarmoqdagi moliyaviy va raqobatli muvaffaqiyatning asosiy belgilovchi omillaridir. Ularni aniqlash - strategiya ishlab chiqishning asosiy yo'llaridan biridir.

Quyida Muvaffaqiyatning asosiy omillari (MAO) ning turlari va ularning tarkibiy qismlari sanab o'tamiz:

#### **1.Texnologiyaga bog'liq omillar:**

- ilmiy tadqiqotlarning saviyasi;
- ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsiyalarga qodirligi;
- mahsulotda innovatsiyalarga qodirlik;
- mazkur texnologiyada ekspertlarning roli.

#### **2.Ishlab chiqarish bilan bog'liq omillar:**

- kam xarajatli ishlab chiqarishning samaradorligi (ishlab chiqarish ko'lamidan tejash, to'rlangan tajriba samarasи);
- ishlab chiqarish sifati;
- yo'qori fond qaytimi;
- ishlab chiqarish xarajatlarning kam bo'lishi, kafolatlanadigan holda joylashtirilishi;
- tegishli malakali ishchi kuchi bilan ta'minlash;
- yo'qori mehnat unumdorligi (ayniqsa ko'p mehnat talab qiladigan sohalarda);
- arzon loyihalashtirish va texnik ta'minot;

### **3.Taqsimlash bilan bog'liq omillar:**

- distribyutorlar/dilerlarning qudratli tarmog'i;
- chakana savdodan tushadigan daromadlar ehtimoli;
- kompaniyaning o'z tarmog'i;
- tez yetkazib berish.

### **4. Marketing bilan bog'liq omillar:**

- savdoning yaxshi sinalgan, tekshirilgan usuli;
- qulay, arzon servis va texnik xizmat ko'rsatish;
- xarid talablarini aniq qondirilishi;
- tovarlar diapazonining kengligi;
- tijorat san'ati;
- jozibali dizayn va upakovka ;
- xaridorlar uchun kafolatlar.

### **5. Malakaga bog'liq omillar:**

- noyob istedodlar;
- sifatni nazorat qilish «nou-xau»si;
- loyihalash sohasidagi ekspertlar;
- texnologiya sohasidagi ekspertlar;
- aniq va sodda reklama qilish qobiliyati;
- ishlab chiqarish natijasida yangi mahsulotlarni hosil qilish va ularni tez bozorga olib chiqa olish.

### **6. Tashkilotning imkoniyatlariiga bog'liq omillar:**

- oly darajadagi axborot tizimlari;
- o'zgarib turgan bozor sharoitlariga tez moslasha olish qobiliyati;
- boshqaruv mahorati va boshqaruv sohasidagi «nou-xau»larning mavjudligi.

### **7. Muvaffaqiyatning asosiy omillarining boshqa turlari:**

- ijobiy imidj va obro';
- o'zini peshqadam deb his qilish;
- qulay joylashuv;
- xush muomala va muloyim xizmat ko'rsatish;
- patent himoyasi;

- umumiy xarajatlarning kamligi.

Bundan tashqari, tarmoqning jozibadorligiga umumiy baho berish lozim.

**Muvaffaqiyatning kalit omillari (M.K.O.)** - bu raqobatbardosh bo'lish va moliyaviy barqarorlikka vaziyatish uchun korxona ta'minlashi lozim bo'lgan raqobat imkoniyatlari va faoliyat natijalaridir. M.K.O shunday omillarki, ularga korxona alohida etibor berishi kerak, chunki ular korxonaning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyasizligini belgilab beradi.

Tarmoq va undagi raqobat tahlilining pirovardida tarmoqning jozibadorligi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlar asos qilib olinadi:

- tarmoqning o'sish imkoniyatlari
- harakatlantiruvchi kuchlarning tarmoqqa ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi:
  - tarmoqqa yirik korxonalarining kirish (chiqish) imkoniyatlari:
  - talabning barqarorligi;
  - raqobat kuchlari ta'sirining kuchayishi yoki zaiflashishi;
  - tarmoq oldida turgan muammolarning jiddiyligi;
  - tavakkalchilik va noaniqlik darajasi;
  - raqobat natijasida tarmoqdagi daromad darajasining pasayishi yoki ko'tarilishi.

### **Soha va raqobat tahlillarini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar**

1. Sohaviy muhitning asosiy iqtisodiy tavsiflari (bozorning o'sishi, geografik xususiyatlari, tarmoqning tuzilmasi, iqtisodiy mavqeい, investitsiyalarga bo'lgan talablar va hoqazo)

#### **2. Harakatlantiruvchi kuchlar**

#### **3. Raqobat tahlili**

3.1. Raqobatlashuvchi sotuvchilar o'rtaсидаги musobaqa (kuchli, o'rtacha, zaif, raqobat vositasi)

3.2. Potentsial kirish xavfi (kuchli, o'rtacha, zaif, kirish

to'sio'larining tarkibi)

3.3. Tovarning o'rnnini bosuvchi mahsulotlarning raqobati (kuchli, o'rtacha yoki zaif (nima uchun?)

3.4. Yetkazib beruvchilarning «savdolasha olish» qobiliyati (kuchli, o'rtacha yoki zaif (nima uchun?)

3.5. Iste'molchilarning «savdolasha olish» qobiliyati (kuchli, o'rtacha yoki zaif(nima uchun?)

#### **4. Asosiy kompaniyalarning (strategik guruhlarning) raqobatchilik mavqeい**

4.1 Qulay mavqelash (nima uchun?)

4.2 Noqulay potitsiyalash (nima uchun?)

#### **5. Raqobat tahlili**

5.1. Asosiy raqobatchilarning strategik yondashuvlari (amalga oshirishi mumkin bo'lgan hatti-harakatlari)

5.2. Kimni va nima uchun ko'zatish kerak?

#### **6. Muvaffaqiyatning asosiy omillari**

#### **7. Tarmoqning istiqbollari va umumiy jozibadorligi.**

7.1. Tarmoqni jozibali qiluvchi omillar

7.2. Tovarning jozibadorligini kamaytiradigan omillar

7.3. Tarmoqning o'ziga xos natijalari (muammolari)

7.4. Rentabellik istiqbollari (ijobiyl, salbiy).

#### **Nazorat uchun savollari**

1. Tarmoqlar va ularni iqtisodiy tavsiflang ?

2. Tarmoqni ta'riflovchi umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni sanab bering ?

3. Tarmoqdagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning strategik ahamiyati?

4. Strategik guruhlar xaritasini tuzish va firmalarni u yoki guruh tarkibiga kiritish qanday amalga oshiriladi ?

5. Qanday kompaniya kuchli yoki zaif mavqega ega bo'ladi?

6. Muvaffaqiyatning kalit omili nima ?

#### **4-MAVZU. KOMPANIYA AHVOLINING TAHLILI**

##### **REJA:**

- 1. Kompaniya holatini tahlil qilish uslubi.**
- 2. Kompaniyani strategik mavqeini baholashda ichki va tashqi muhit tahlili.**
- 3. SWOT tahlil orqali kompaniya holatini baholash.**
- 4. Firma xarajatlari raqobatbardoshliligini baholash.**
- 5. Amaliy marketing. "Toyota" Yaponiya. Iste'molchilar doimo birinchi o'rinda.**

**Tayanch so'z va iboralar:** strategik pozitsiya, strategik mavqe, raqobat pozitsiyasi, kuchli va zaif tomonlar, marketing, qiymat, samaradorlik, raqobatga bardoshlik.

#### **4.1. Kompaniya holatini tahlil qilish uslubi.**

1) Kompaniya holatini tahlil qilish menejerlarga raqobat bozorida qanday qilib muvoffaqiyatga vaziyatish, raqobatda ustun chiqish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatib asoslab beradi. Buning uchun quyidagi savollarga javob izlash lozim

- 2) Amaldagi strategiya qay darajada samarali?
- 3) Kompanianing kuchli va zaif tomonlari nimada?
- 4) Kompanianing narxlari va xarajatlari raqobatbardoshmi?
- 5) Kompanianing raqobat pozisiyasi qay darajada mustahkam?
- 6) Kompaniya qanday strategik muammolarga to'qnash keladi ?

Bu savollarga javob berish uchun 4 ta tahliliy ko'rsatgichlardan foydalilanadi: SWOT - tahlil, qiymatlar zanjiri, xarajatlar tahlili va raqobatbardoshlikni baholash.

##### **SWOT-tahlil.**

**SWOT - inglizcha Strengths (kuchlar), Weaknesses (zaif**

tomonlar), **Opportunities** (qulay imkoniyatlar) va **Threats** (taxdidlar) so'zlaridan to'zilgan akronimdir. Kompaniyaning ichki holati asosan **S** va **W** bilan, tashqi muxiti yesa **O** va **T** kursatkichlarda ifodalanadi. 4.1-jadvalda **SWOT**-tahlilda xisobga olish maqsadga muvofiq bo'lган asosiy omillar keltirilgan.

Kompaniyaning strategik istiqboli uchun kuchli jihatlar ayniqsa muhimdir, chunki ular strategiyaning poydevorini tashkil qiladi, raqobatli ustunliklar ana shu jihatlar asosiga qurilishi lozim. Ayni paytda yaxshi strategiya zaif jihatlarni kurib chiqishni ham talab qiladi. Tashkiliy strategiya bajarish mumkin bo'lган ishlarga yaxshi moslashgan bo'lishi lozim.

Kompaniyaning o'ziga xos jihatlarini aniqlash aloxida ahamiyat kasb etadi. Bu esa strategiyani shakllantirish uchun muhimdir, chunki:

- noyob imkoniyatlar firmaga bozordagi qulay vaziyatlardan foydalanish imkoniyatini beradi;

### **SWOT-tahlilda hisobga olinadigan omillar**

#### **4.1-jadval**

Potensial ichki kuchli jihatlar (S):	Potensial ichki zaif jihatlar (W):
Aniq namoyon bo'lib turgan nufuzlilik	Ba'zi nufuzli jihatlarni qo'ldan boy berish
Munosib moliyaviy manbalar	Strategiyani o'zgartirish uchun zarur bo'lган moliyaviy mablag'larning yo'qligi
Raqobat kurashi san'atining yo'qsakligi	Bozor mahorati urtachadan past
Iste'molchilarни yaxshi tushunish	Iste'molchilar xaqidagi axborotning tahlil qilinmasligi
Tan olingan bozor peshqadami	Bozorning zaif ishtirokchisi

Aniq ifodalangan strategiya	Aniq ifodalangan strategiyaning yo'qligi, uni amalga oshirishdagi izchillikning yo'qligi
Ishlab chiqarish kulamidan tejash, narxdagi ustunlik	Maxsulot narxining asosiy raqobatchilarga qaraganda yo'qoriligi
Firmaning o'z noyob texnologiyasi, eng yaxshi ishlab chiqarish quvvatlari	Eskirgan texnologiya va asbob-uskunalar
Ishonchli, sinalgan boshqaruva	Boshqaruvida teranlik va moslashuvchanlikning boy berilishi
Ishonchli taqsimot tarmog'i	Taqsimot tarmog'inining zaifligi
Yo'qsak ITTKI san'ati	ITTKI pozisiyalarining zaifligi
Tarmoqdagi eng samarali (ta'sirchan) reklama	Ilgari surish siyosatining zaifligi
Potensial tashqi qulay imkoniyatlar (O)	Potensial ichki taxdidlar (T)
Iste'molchilarning qo'shimcha guruxlariga ham xizmat ko'rsatish imkoniyati	Bozor usishining sustlashishi, yangi bozor segmentlari kirib kelishining salbiy demografik o'zgarishlari
Mumkin bo'lган tovarlar	O'rın bosuvchi tovarlar savdosining usishi,
diapazonining kengayishi	xaridorlar didi va ehtiyojlarining o'zgarishi
Raqobatchilarning kungilchanligi	Raqobatning keskinlashishi
Tashqi bozorlarga chiqishdagi savdo tusiqlarining kamayishi	Tovarları arzon bo'lган xorijiy raqobatchilarining paydo bo'lishi

Valyuta kurslarining ijobiyligi	Valyuta kurslarining salbiy o'zgarishi
Resurslarning ko'pligi	Etkazib beruvchilar tomonidan qo'yilgan talablarning kuchayishi
Cheklovchi qonunchilikning susayishi	Narxning qonun tomonidan boshqarib turilishi
Biznes beqarorligining susayishi	Biznesda tashqi sharoitning beqarorligiga bog'liqlik

- bozorda raqobat ustunliklarini vujudga keltiradi;
- potensial jihatdan strategiyaning asosini tashkil etishi mumkin.

Tarmoqdagi qulay imkoniyatlarni kompaniyaning qulay imkoniyatlaridan farqlash kerak. Tarmoqdagi ustivor va qayta paydo bo'layotgan qulay imkoniyatlar raqobat ustunligiga ega bo'lgan yoki usish uchun boshqa imkoniyatlari bo'lgan kompaniyalar uchun ayniqsa mos keladi.

**SWOT-tahlil** quyidagi savollarga javob topishga yordam beradi:

- kompaniya o'z strategiyasida o'zining ichki kuchli tomonlaridan yoki ustunliklaridan foydalanadimi? Agar kompaniyaning xech qanday ajralib turuvchi ustunliklari bo'lmasa, uning qanday potensial kuchli jihatlari ana shu ustunliklarga aylanishi mumkin?
- kompaniyaning zaifjihatlari uning raqobatdagi eng nozik tomonlarimi? Ular ma'lum bir qulay jihatlardan foydalanishga imkon bermaydimi? Strategik jihatdan kelib chiqqan holda qaysi zaif jihatlarga to'zatish kiritish kerak?
- qanday qulay sharoitlar kompaniyaga muvaffaqiyat qozonishga imkoniyat yaratadi? Shuni qayd qilib utish lozimki, foydalanish usullari bo'lмаган qulay imkoniyatlar sarobdan boshqa narsa emas. Firmaning kuchli va zaif tomonlari uning boshqa firmalarga qaraganda qulay imkoniyatlardan

foydalanishgay xiroq yoki yomonroq darajada moslashishiga yordam beradi.

- menejerni qaysi taxdidlar ko'proq tashvishlantirishi kerak? U himoyani yaxshi tashkil qilish uchun qaysi strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim?

### Strategik qiymat tahlili.

Kompaniyada yuzaga kelgan vaziyatni eng aniq kursatadigan indiqatorlardan biri - uning o'z raqobatchilariga nisbatan narx pozisiyasidir. Bu ayniqsa mahsuloti kam differensiyalashgan tarmoqlarga ta'alluqli bo'lib, kompaniya har qanday sharoitda ham o'z raqiblardan orqada qolmasligi kerak, aks holda raqobatli pozisiyani qo'ldan bou berib qo'yishi mumkin. Raqobatchilarning xarajatlaridagi farqlarga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- xom ashyo, materiallar, tarkibiy qismlar, energiya va shu kabilarning narxlaridagi farqlar;
  - asosiy texnologiyalar, asbob-uskunalarning yoshidagi farqlar;
  - ishlab chiqarish birliklarining kattaligi turlicha bo'lganligi, ishlab chiqarishning kumulyativ ta'siri, ishlab chiqarish unumdonlik darajalari, turli soliq sharoitlari, ishlab chiqarishni tashkil qilish darajasi va hokazolar tufayli ichki tannarxlardagi farqlar;
  - inflyatsiya va valyuta kurslarining o'zgarishiga kuchli bog'liqlik;
  - transrort xarajatlaridagi farqlar;
  - taqsimot qanallariga sarflanadigan xarajatlardagi farqlar.
- Strategik qiymatli tahlilda asosiy e'tibor firmaning o'z raqiblariga nisbatan qiymat pozisiyasiga qaratiladi. Bunday tahlilning birlamchi tahliliy yondashuvi qiymat zanjirini yasash bo'lib, ushbu zanjir xom ashysidan pirovard iste'molchilarning narxlarigacha bo'lgan qiymat manzarasini aks qulaytiradi (4.2-jadval). Ushbu jadval harakatlar/xarajatlar zanjirida raqobatchi firmalar bir-biridan eng 4 ta farq qiladigan uchta

asosiy soha borligini kursatadi: ta'minot sohasi, taqsimot qanallarining ilg'or qismlari, kompaniyaning o'z ichki faoliyati. Agar firma zanjirning orqa yoki oldingi qismlarida raqobatbardoshlikni qo'ldan boy bersa, u raqobatbardoshlikni tiklash maqsadida o'z ichki hatti-harakatlarni o'zgartirishi mumkin.

Qiymat bo'shlqlari asosan zanjirning orqa qismida yotsa, firma quyidagi olti xil strategic hatti-harakatlarni amalga oshirishi mumkin:

- yetkazib beruvchilar bilan o'zi uchun qulay narxlar to'g'risida kelishib olishi;
- yetkazib beruvchilar bilan ularning xarajatlarni kamaytirish maqsadida ish olib borishi;
- moddiy xarajatlarni nazorat qilish uchun orqaga tomon integratsiyalanishi;
- arzonroq o'rinnbosar tarkibiy qismlardan foydalanishga urinishi;
- taqsimotning narxlari maqbo'l bo'lgan yangi manbalarini topishi;
- zanjirning boshqa qismlarida tejamkorlik evaziga farqni kamaytirishga urinishi mumkin.

Qiymat bo'yicha raqobatbardoshlikning boy berilishiga sabab zanjirning ichki sohalarida bo'lsa, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- byudjetning ichki moddalarini taftish qilish;
- ishchilarning va qimmatbaho asbob-uskunalarning mehnat unumdarligini kutarishga urinish;
- ba'zi texnologik jarayonlarni firmaning o'zida emas, balki chetda bajarish foydaliroq bo'lish-bo'lmasligini o'rganib chiqish;
- resurslarni tejovchi texnologik yangiliklarni investitsiyalash;
- qiymatning xavf tug'dirayotgan tarkibiy qismlarini ishlab chiqarish va asbob- uskunalarga yangi investitsiyalar ob'ekti

sifatida kurib chiqish;

- mahsulotning qiymatini kamaytirish maqsadida uni yangilash va hokazo;

Firmaning raqobat pozisiyasi kuchini baholash.

Qiymat, raqobat pozisiyasini baholashga qo'shimcha ravishda kompaniyaning raqobat pozisiyasi va raqobatchilik kuchini umumiy tahlil qilish ham talab qilinadi. U quyidagi savollarga javob berishi kerak:

- firmaning bugungi raqobat pozisiyasi qanchalik kuchli?
- bugungi strategiyadan foydalanilganda raqobat pozisiyasining qanday o'zgarishini kutish mumkin?
- firmaning qanday raqobat ustunliklari bor?

Firmaning raqobat pozisiyalarini baholash uchun muvaffaqiyatning asosiy omillari bo'yicha balli baholar shkalasidan foydalaniлади. Bunda firma va uning raqiblari bo'yicha ana shunday omillar solishtirib kuriladi (4.3-jadval).

Umumiyl qoida: kompaniya o'zining raqobatdagи kuchli jihatlarini ko'paytirib borishi va o'zining raqobatchilikdagи zaif jihatlarini himoya qilishi kerak. U o'z strategiyasida o'zining kuchli jihatlariga tayanishi va zaif jihatlarini mustahkamlashga oid chora-tadbirlarni kurishi lozim.

Ayni paytda raqiblarning kuchli jihatlari reytingi hujumning qaysi tomonidan bo'lishini va aksincha, raqiblarning zaif tomoni qaerda ekanligini kursatadi.

Agar aynan kompaniya raqobatda kuchli bo'lgan jihatlarda raqiblar zaif bo'lsa, ushbu vaziyatdan foydalanib qolish choratadbirlarini ko'rish lozim.

## Firmaning raqobat pozisiyasidagi kuchli va zaif jihat belgilari

### 4.2.jadval

Ustunlik belgilari	Zaiflik belgilari
Muhim farq qiluvchi ustunliklar	Real farq qiluvchi ustunliklarning yo'qligi
Bozor ulushining kattaligi (yoki bozorda peshqadamlik)	Bozordagi asosiy raqiblarga nisbatan yo'qotishlar
Izchil yoki ajralib turuvchi strategiya	Aniq strategiyarategiyaning yo'qligi
Iste'molchilar sonining usishi va ularning sodiqligi	Iste'molchilar oldida obruning pasayishi
Peshqadamlarning strategik guruxida bo'lish	O'z pozisiyalarini qo'ldan bou berayotgan strategik guruxga tushib qolish
Tez usib borayotgan bozor segmentlarida konsentratsiyalanish	Bozor potensiali eng katta bo'lgan sohalardagi zaiflik
Narxdagi ustunlik	Tannarxi yo'qori bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish
Daromad urtachadan yo'qori	Daromadlarning usishi urtachadan past
Marketing mahorati urtachadan yo'qori	Bozorda muvaffaqiyat qozonishning asosiy omillari kam
Texnologik va innovatsion qobiliyatlar o'rtachadan yo'qori	Mahsulotlar ishlab chiqishda sustlik, sifatning yaxshi emasligi
Xavf-xatarlarga tashabbuskor, tadbirkorlarcha yondashuv	Vujudga kelayotgan taxdidlarga nisbatan yaxshi pozisiyaning yo'qligi
Qulay imkoniyatlarni ko'paytirish pozisiyasi	Asosiy raqiblarga nisbatan yo'qotishlar

Kompaniyaning raqiblarga nisbatan strategik kuchini baholashning namunasi. (reyting shkalasi: eng zaif - 1, eng kuchli - 10, qavs ichida - salmoqning reyting bahosiga ko'paytmasi)

### 4.3-jadval

MAO / Kuch birligi	salmoq	O'r ganilayotgan Kompaniya	A raqib	B raqib	V raqib
Mahsulotning sifati/ ishlanishi	0,10	8 (0,80)	5 (0,50)	9 (0,90)	6 (0,60)
Nufo'z / imidj	0,10	8 (0,80)	7 (0,70)	10 (1,00)	6 (0,60)
Materiallar / qiymat	0,05	5 (0,25)	5 (0,25)	6 (0,30)	4 (0,20)
Texnologik san'at	0,05	8 (0,40)	5 (0,25)	5 (0,25)	4 (0,20)
Ishlab chiqarish quvvatlari	0,05	9 (0,45)	7 (0,35)	10 (0,50)	6 (0,30)
Marketing / taqsimot	0,05	9 (0,45)	7 (0,35)	9 (0,45)	6 (0,30)
Moliyaviy resurslar	0,10	5 (0,50)	4 (0,40)	7 (0,70)	4 (0,40)
Nisbiy qiymat pozisiyasi	0,25	5 (1,25)	9 (2,25)	6 (1,50)	4 (1,00)
Narx bo'yicha raqobatlasha olish	0,25	5 (1,25)	9 (2,25)	7 (1,75)	4 (1,00)
Kuch reytingi		(6,15)	(7,30)	(7,35)	(4,60)

### 2. Amaldagi strategiya qay darajada samarali?

Strategiya qanchalik yaxshi amalga oshirilayotganini baholash uchun quyidagilar muhim:

- kompaniyaning raqobatchilar orasidagi o'rnini aniqlash;
- kompaniyaning tarmoqdagi raqobat chegaralarini

aniqlash;

3) kompaniyaning ishlab chiqarish, marketing, moliya va kadrlar sohasidagi funksional strategiyalarini baholash;

Kompaniya strategik va moliyaviy holatining ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1) kompaniyaning bozordagi ulushi va tarmoqdagi o'rni;

2) foydahajmioshadimi, kamayadimivauraqobatchilarning shunday ko'rsatkichlariga nisbatan qanday;

3) sarmoyalarni sof foydasining o'zgarish tendensiyasi;

4) kompaniyaning sotuvlari umumiy bozordagiga nisbatan tez o'syaptimi yoki sekin o'syaptimi;

5) kreditlar hajmi;

6) firmanın xaridorlar nazaridagi obro'si, uning imidji;

7) kompaniyaning texnologiya, innovatsiya, sifat va xaridorlarga xizmat ko'rsatishda yetakchiligi va hokazo.

Qo'llanilayotgan strategiyani baholash.

Qo'llanilayotgan strategiyani baholash uchun kompaniya qanday strategiyaga amal qilayotganligini tushunib olish lozim - bu:

- arzon narx vositasi bilan peshqadamlik qilish;

- raqobatchilaridan farq qilib turish;

- iste'molchilarining tor guruxlariga yoki marketing bushliqlariga ixtisoslashish.

Tarmoqdagi raqobatli vaziyatning yana bir harakteristikasi vertikal integratsiyalanish darajasi va bozorning geografik kulamidir. Bu yerda ishlab chiqarish, marketing, moliya, ishchi kuchidan foydalanish sohalaridagi yordamchi strategiyalarni tahlil qilish lozim.

Bunga qo'shimcha ravishda kompaniya strategiyasining ayrim raqobatli ustunliklarni ta'minlash maqsadida raqobatli pozisiyani yaxshilashga imkon beradigan sunggi amaliyotini tahlil qilib chiqish kerak.

Strategik faoliyatning eng aniq kursatkichlari quyidagilardan iborat:

- firma nazorat ostiga olgan bozor ulushining kattalashishi yoki kichrayishi;

- firma oladigan daromad hajmining usishi yoki usmayotganligi hamda bu daromadning raqobatchilarga nisbatan qay darajada ekanligi;

- firmada sof foyda tendensiyalari hamda investitsiyalarning qaytish tezligi qanday;

- firmada savdo hajmining bozordagi umumiy usishga nisbatan tez yoki sekin usayotganligi va hokazo.

Tabiiyki, eng yaxshi strategiya xech qanday radikal o'zgarishlarni talab qilmaydigan strategiyadir.

#### **4.2. Kompaniyani strategik mavqeini baholashda ichki va tashqi muhit tahlili.**

Muhit tahlili odatda strategik boshqaruvning boshlang'ich jarayoni hisoblanadi, chunki u firma maqsadlarini aniqlash va harakat strategiyasini ishlab chiqish uchun asosni yaratadi. Muhit tahlili uning ikki qismini o'rganilishini ko'zda tutadi:


Makromuhit.

Ichki muhit.

Tashki muhit tahlili vositasida rahbariyat tashkilotga nisbatan tashqi omillami firma uchun imkoniyatlar va xavflarni aniqlash maqsadida nazorat qiladi. Havf va imkoniyatlarni odatda qulay yettita sohaga bo'lish mumkin. Bu sohalar bo'lib iqtisodiyot, siyosat, bozor, texnologiya, raqobat, xalqaro vaziyat va ijtimoiy sohalar hisoblanadi (4.1-rasm).

Iqtisodiyotning joriy va prognozlanayotgan holati tashkilot maqsadlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Iqtisodiy muhitdagi ba'zi omillar (inflyasiya va deflyasiya sur'atlari, bandlik darajasi, xalqaro to'lov balansi va boshqalar) doimiy tarzda baholanishi lozim. Ushbu omillardan har biri firma uchun yoki havf, yoki yangi imkoniyat tug'dirishi mumkin. Biron tashkilot uchun iqtisodiy havf boshqasi uchun imkoniyat

bo'lishi mumkin. Avtomobillar uchun yehtiyot qismlarni ishlab chiqaruvchi tarmoq turg'unlik davrida yaxshi rivojlanadi, chunki bunday davrda iste'molchilar yangi avtomobilarni sotib olish o'rniiga eskilarini ta'mirlashni afzal ko'padilar.



#### **4.1.rasm. Tashqi muhit omillari**

Biznes va tadbirkorlik firmalari yetakchilarining siyosiy jarayonda aktiv ishtiroy etish davlat siyosatining tashkilotlar uchun muhimligining aniq ko'rsatkichidir. Aniqrog'i, rahbariyat me'yoriy xujatlarni, uzoq muddatli qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun hukumatning kreditlarini, ishchi kuchini ishga olish bo'yicha cheklavlarni va ssudani olish imkoniyatlarini, shuningdek boshqa mamlakatlarga qarshi yo'naltirilgan yoki boshqa davlatlar bilan to'zilgan tariflar va savdo bo'yicha kelishuvlarni ko'zatib borish lozim. Hukumat ishbilarmonlik masalalarida doim va aktiv ishtiroy etganligi uchun tashkilotlar siyosiy faoliyatni ko'zatib borishlari kerak.

O'zgaruvchan bozor tashki muhiti tashkilotlari uchun doimiy xavotirlanish sohasini tashkil etadi. Bozor tashqi muhit tahliliga tashkilotning muvaffaqiyat yoki zarar ko'rishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ko'p omillar kiradi. Bu omillarga turli byuum va xizmatlarning hayot sikllari, o'zgaruvchan demografik shart-sharoitlar, bozorga kirishning osonligi,

aholi daromadlarining taqsimlanishi va tarmoqdagi raqobat darajasi kiradi. Misol uchun, AQSh va Qanadada aholi turmush darajasining oshishi dam olishning yanada afzalroq tovarlariga talabni keltirib chiqadi. Ushbu talabni qondirib, «Klab Med» singari firmalar katta rivojga vaziyatdi.

70-yillarda Elvin Toffler myomalaga «futuroshoq-kelajak shoki» terminini kiritdi. Toffler «futuroshoq»ni individlarga juda qisqa davr ichida juda xaddan tashqari katta o'zgarishlarni ta'sir ko'rsatishi oqibatida ulardagi dezfientatsiya va bo'zg'unchilik stressi kabi aniqlaydi. Texnologik tashqi muhiddagi o'zgarishlar tashkilotni yutqazuvchi raqobat holatiga tushirib qo'yishi mumkin. Texnologik tashqi muhit tahlili eng kamida ishlab chiqarish texnologiyasidagi o'zgarishlarni, tovar va xizmatlarni loyihalashtirishda va taqdim etishda yehmlarni qo'llashni yoki aloqa vositalari texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar, yutuqlarni hisobga olishi mumkin. Hamma tashkilotlar ham tezkor ilmiy-texnik progress ta'siriga tushmaudi. Biroq rahbariyat texnologik tashqi muhiddagi qaysi omillar «futuroshok»ning yaralishiga olib kelishi mumkinligini aniqlash darkor. Qog'oz paketlarini ishlab chiqaruvchi tarmoq doim nisbiy barqarorlikka ega bo'lgan. Lekin oxirgi yillarda plastik paketlarni ishlab chiqarish texnologiyasidagi yutuqlar neft bahosining barqarorlashuvi bilan birgalikda (plastik byuumlarni ishlab chiqarish neft mahsulotlariga asoslangan) ushbu tarmoq uchun ma'lum muammolarni keltirib chiqardi. Ushbu muammolarni hal qilishda kog'oz sanoatining yutug'i qisqa davrda keskin o'zgarishlarga uning aks ta'sirini ko'zgusi bo'ladi.

Ko'pchilik yirik firmalar va minglab kichik kompaniyalar xalqaro bozorda faoliyat yuritadilar. Raqobat bugun ushbu kengroq muhiddagi o'zgarishlarni doim nazorat qilishi va baholashi lozim. Havf va imkoniyatlar xom ashyo materiallariga oson ega bo'lish, mamlakatlarda valyuta kurslari va siyosiy qarorlarning o'zgarishi natijasida vujudga kelishi mumkin.

Firmaning umumiy strategiyasi yoki hukumat siyosatining boshqa mamlakatlarga taaluqli bo'lgan qismi kompaniya yoki taromqni himoya qilish yoki kengaytirish bo'yicha harakatlarni ko'zda tutishi mumkin. raqobatchilar tomonidan tanlangan strategiya oldida firmaning o'z strategiyasi ichki bozorni mustahkamlash, xorijiy raqiblardan davlat himoyasini izlash yoki xalqaro aktivlikni kengaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Hech qaysi tashkilot o'z raqiblarining mavjud va mumkin bo'lgan aks ta'sirini e'tiborga olmasligi mumkin emas. Porter Maykl (professor) raqib degan ob'ekt tahlilini rahbariyat javob berishi kerak bo'lgan aniq savollarga ajratadi: «Raqib nimaga asoslanib faoliyat yuritmoqda?», «Raqib nima qilyapti?» va «U nima qilishi mumkin?» raqib tahlilida to'rt diagnostik unsur mavjud:

- 1) raqiblar kelajak maqsadlarining tahlili;
- 2) raqiblar joriy strategiyasini baholash;
- 3) mazkur raqiblar faoliyat yuritayotgan tarmoq obzori;
- 4) raqiblarning kuchli va zaif tomonlarini chuqur o'rganish.

Rahbariyatga ushbu unsurlarni batafsil o'rganishda yordam berish uchun Porter to'rtta oddiy savolni taklif etadi:

Raqib o'zining hozirgi holati bilan qoniqadimi?

Raqib strategiyada qanday mumkin bo'lgan, ehtimoliy o'zgarishlarni amalga oshiradi?

Raqibning zaif tomoni nimada?

Nima raqib tomonidan eng yirik va samarali javob chora-tadbirlarga olib keladi?

Ijtimoiy omillar jamiyatning o'zgarayotgan kutishlari, munosabatlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda muhim omillarga tadbirkorlikka munosabat, jamiyatda ayollar va milliy kamchiliklarning o'rni, iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish harakati kiradi. Ba'zida aynan ijtimoiy omillar tashkilot uchun eng katta muammolarni tug'diradi. Ijtimoiy omillarning o'zgarishlariga samarali aks ta'sir ko'rsatish uchun

korporatsiyaning o'zi yangi atrof muhitga moslashgan holda o'zgarib borishi lozim.

Tashqi muhit tahlili yordamida tashkilot u mazkur muhitda to'qnashayotgan havf va imkoniyatlar ro'yxatini tuzishi mumkin. Ro'yxat omillarning ulushi (mazkur tashkilot uchun har bir omilning ahamiyatini o'zgartirishi uchun) va omilning tashkilotga ta'sirini baholashni o'z ichiga oladi.

Ro'yxat tahlilidan keyin rahbariyat tashkilotning kuchli va zaif tomonlarini baholashi lozim. Muvaffaqiyatli boshqaru uchun rahbariyat tashkilotning ichki potensial imkoniyalari va kamchiliklari, shuningdek tashqi muammolari xaqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi shart.

Rahbariyat to'qnashadigan keyingi muammo bo'lib firma tashqi imkoniyatlardan foydalanishi uchun ichki kuchlarga ega ekanligini, shuningdek tashki havflar bilan bog'liq bo'lgan muammolarni murakkablashtirish mumkin bo'lgan ichki zaif tomonlarni aniqlash hisoblanadi. Ichki muammolar diagnozi amalga oshiriluvchi jarayon boshqaruva tekshiruvi deyiladi. U tashkilotning strategik kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun mo'ljallangan metodik baholashdan iborat.

Soddalashtirish maqsadida tekshiruvga beshta funksiya-marketing, moliya (buxgalteriya hisobi), operatsiyalar (ishlab chiqarish) inson resurslari, korporatsiya madaniyati va tarzini kiritish tavsiya etiladi.

Marketing funksiyasini tekshirishda tahlil qilish uchun yettita umumiy sohalar e'tiborga molik:

1. Bozor ulushi va raqobatbardoshlik;
2. Byuumlar assortimentining turli xilligi va sifati;
3. Bozorning demografik statistikasi;
4. Bozor tekshiruvlari va yangiliklarni ishlab chiqish;
5. Mijozlarga sotuvdan oldin va undan keyin xizmat ko'rsatish;
6. Samarali sotuv, reklama va tovarni bozorga olib kirish;
7. Foyda.

Moliyaviy holat tahlili tashkilotga foyda keltirishi mumkin va strategik boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam berishi mumkin.

Moliyaviy holatning batapsil tahlili tashkilotdagi mavjud va potensial ichki zaif tomonlarni, shuningdek tashkilotning raqiblarga nisbatan holatini qrsatsishi mumkin. Moliyaviy faoliyatni o'rganish rahbariyatga uzoq muddatli istiqbolda ichki kuchli va zaif tomonlarni ochib berishi mumkin. Masalan, «Teksas Instrulonte» firmasi 1983 yilda jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarga duch keldi. Ammo batapsil tahlil firma aslida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini aniqladi. Keyin moliyaviy zona bo'lib iste'mol tovarlarga guruhi hisoblangan, lekin u kompaniya tadbirkorlik faoliyatining faqat 6% ni tashkil etgan. Ushbu moliyaviy baholash asosida rahbariyat ushbu bo'lib moliyaviy faoliyatini yaxshilash maqsadida mablag'larni unga yo'naltirish uchun fondlarni qayta taqsimlash qarorini qabo'l qildi.

Firmaning uzoq vaqt davomida hayot kechirishi uchun operatsiyalarni boshqarish (korxonada ishlab chiqarishni boshqarish)ning o'zluksiz tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida operatsiyalarni boshqarish funksiyasining kuchli va zaif tomonlarini tekshirishda javob berish zarur bo'lgan ba'zi savollar keltirilgan:

Biz raqiblarimizga nisbatan o'z tovar yoki xizmatlarimizni pastroq narxda ishlab chiqarishimiz mumkinmi? Agar yo'q bo'lsa, u holda nimaga?

Biz bitta mol yetkazib beruvchi yoki mol yetkazib beruvchilarning cheklangan soniga bog'liqmizmi?

Bizning uskuna (quvvat)larimiz zamonaviyimi?

Haridlar moddiy zaxiralar miqdori va byuurtmani realizatsiya qilish vaqtini kamaytirishga mo'ljallanganmi? Kipayotgan materiallar va chiqib ketayotgan byuumlar ustidan nazorat qilishning adekvat mexanizmlari mavjudmi?

Bizning mahsulotimizga davriy tebranishlar ta'sir

ko'rsatadi va bu ishchilarni vaqtinchalik ishdan bo'shatishga majbur qiladimi?

Bizning raqiblar xizmat ko'rsata olmaydigan bozorlarga biz xizmat ko'rsata olamizmi?

Biz sifatli nazorat qilish tizimiga egamizmi?

Ishlab chiqarish jarayonini biz qanchalik samarali rejalashtirdik va loyihalashtirdik? U yanada yaxshilanishi mumkinmi?

Tashkilotdagi ko'p muammolarning manbalari oxir-oqibatda insonlarda topilishi mumkin. Har qanday tashkilotning inson resurslari funksiyasining kuchli va zaif tomonlarini tekshirganda bir qator masalalar hisobga olinishi lozim. Quyidagi jadvalda bugungi kunda tashkilotlar to'qnashayotgan inson resurslari bilan bog'liq bo'lgan qator muammolar keltirilgan.

Ushbu savollarning har birini batapsil ko'rib chiqish orqali rahbariyat potensial zaif sohalarni aniqlashi va muvofik choralarini ko'rishi mumkin. agar rahbariyat ushbu keltirilgan savollardan bittasini yoki bir nechtasini e'tiborga olmasa, nima bo'lishi mumkin? Misol sifatida «Vametko» firmasini ko'rib chiqamiz. «Vametko» ichimliklarni idishlari qo'yish va ularni kinoteatr va turistik muassasalarga yetkazib berish bo'yicha fabrikalarga ega yedi. 1983 yilning oxirida «Vametko» 1mlrd. doll.gainvestitsion firma tomonidan sotib olindi. Sotuv sabablari to'g'risida taxminlar ko'p bo'lishiga qaramay, birinchi darajali omil bo'lib 50 yil davomida boshqaruv raisi va «Vametko» ning asoschisi bo'lgan Mitchell Volksonning vafot etishi xizmat qildi. Volkson o'zini o'rniga hech kimni tayyorlamagan edi va xodimlarning hech biri u tomonidan yaratilgan «imreriya»ni boshqara ololmasdi.

Agar tashkilot malakali xodimlarga va yaxshi asoslangan maqsadlarga ega bo'lgan rahbarlarga ega bo'lsa, u holda tashkilot turli alternativ strategiyalarga amal qilishi mumkin. Aks holda ushbu zaiflik tashkilotning kelajakdag'i faoliyatni

havfga solish ehtimoli katta.

Nixoyat, bevosita yo'qori rahbariyat javob beruvchi boshqa omillarni ham ajra-tish mumkin. Ular firma ichki va tashqi holatining normal faoliyatini saqlab turish uchun rahbariyat shug'ullanishi lozim bo'lgan muhim masalalarni o'z ichiga oladi. Bu noan'anaviy omillar tashkilotning uzoq muddatli istiqbolda muvaffaqiyatli faoliyat uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ularga korporatsianing mada-niyati va imidji kiradi. Tashkilotdagi atmosfera va iqlim korporatsiya madaniyati deyiladi. Madaniyat tashkilotdagi urf-odatlar, an'analarni aks qulaytiradi. Rahbariyat bu madaniyatdan ma'lum toifadagi xodimlarni jalg qilish va ma'lum turdag'i o'zini tutishni rag'batlantirish uchun foydalananadi. Korporatsiya imidji xodimlar, mijozlar va butun jamoat fikri yordamida yaratuluvchi tasavvurga tegishlidir. Bu taassurot mijozlarni ma'lum firmalardan tovarlarni harid qilishga rag'batlantiradi.

Firmaning madaniyati va imidji kompaniya obro'si bilan mustahkamlanadi yoki susayadi.

#### **4.3. SWOT - Tahlil orqali kompaniya holatini baholash.**

Korxona faoliyati shart-sharoitini baholashning bir nechta usuli mavjud. Eng tarqalgan va tanilganlardan bo'lib **SWOT** - tahlil (SWOT dan olingan: kuch (strength), zaif tomon (weakness), imkoniyatlar (opportunities), havf-xatarlar (threats)) va **STER** - tahlil (ster dan olingan: ijtimoiy (social), texnik (technical), iqtisodiy (economic), siyosiy (political) omillar hisoblanadi. **SVOT** - tahlil asosida tashqi muhit tahlilini o'tkazish uslubini qisqa ko'rib chiqamiz.

**SVOT** - tahlil ikki qismidan iborat:

1. Korxona uchun hozir va kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan tashqi imkoniyatlar va xavflar o'rganiladi;
2. Korxonaning kuchli va zaif tomonlari o'rganiladi. Bunda korxona potensial baholanadi.

Korxonaning kuchli (yo'qori malaka, komrqlayentlik, mos texnologiya, xaridorlarda yaxshi obro'ga ega bo'lishi, xarajatlar, raqobat sohasidagi ustunlik, adekvat moliyaviy resurslar va h.k.) va zaif (aniq strategik yo'llarning yo'qligi, eskirgan uskunalar, tor ishlab chiqarish assortimenti, past marketing imkoniyatlari, bozor va raqiblar xaqida tasavvurga ega bo'lmaslik va h.k.) tomonlari, shuningdek imkoniyatlari (yangi bozorlarga chiqish, ishlab chiqarishni kengaytirish, investitsion fondlarning qiziqlishi, iste'mol bozorining tuyinmaganligi va h.k.) va havf-xatarlari (yangi raqiblarning paydo bo'lishi, o'rinosbasor mahsulot sotuvining o'sishi, xukumatning noqulay siyosati, xaridorlar ehtiyojlari va didlarining o'zgarishi, noqulay demografik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa o'zgarishlar va h.k.) ning aniq ro'yxati to'zilganidan so'ng ular o'rtaсидаги aloqalarni o'rnatish uchun SVOT matritsasi to'ziladi (4.2-rasm).

Imkoniyatlar 1. 2.	Xavf-xatarlar 1. 2.	
Kuchli tomonlar 1. 2.	KUI maydoni Kuch va imkoniyatlar	KUX Kuchli tomonlar va xavf xatarlar
Zaif ton monlar 1. 2.	ZAI Zaif tomonlar va imkoniyat	ZAX. Zaif tomonlar va xavf xatarlar

#### **4.2 rasm. Omillarning o'rtaсидаги aloqalarni o'rnatish uchun to'zilgan SVOT matritsasi.**

Bo'limlar kesishish nuqtasida to'rtta maydon tashkil topadi: «KUM» (kuch va imkoniyat); «KUX» (kuch va xavf); «ZAI» (zaif tomonlar va imkoniyat); «ZAX» (zaif tomonlar va

xavf). Ushbu maydonlarning har birida tekshiruvchi barcha mumkin bo'lgan juft kombinatsiyalarni ko'rib chiqib, harakat strategiyasini ishlab chiqishda hisobga olishi lozim bo'lganlarini ajratishi kerak. «ZAI» maydonidagi juftliklar uchun vujudga kelgan imkoniyatlar hisobiga tashkilotdagi zaif tomonlarni engish strategiyasi to'zilishi lozim. Xuddi shunday: «KUX» da tashkilot kuchini havfni bartaraf etish uchun ishlatish, «zax»da zaif tomonidan qutilish va havfni oldini olish strategiyasi, «KUI» da kuchli tomonlarni tashqi muhitdangi imkoniyatlardan foyda olish uchun ishlatish strategiyasi.

Tashqi va ichki muhit tahlili natijalarini hisobga olgan holda tashkilot maqsadi aniqlanadi.

#### **Kompaniyaning kuchli va zaif tomonlari .**

Kuch - bu shunday xususiyatki, kompaniyaga qo'shimcha imkoniyatlar beradi. Bu kuch mahoratda, sezilarli tajribada, qimmatli tashkiliy resurslardayokianiq imkoniyatlarda, firmaga bozorda ustunlik yaratib beruvchi yutuqlarda bo'lishi mumkin. Kuch shuningdek, bozorda raqobatchilikni kuchaytirish tajribasiga ega bo'lgan boshqa bir kompaniya bilan qo'shilishi yoki sherikchilik qilish yo'li bilan ham yaratilishi mumkin.

Zaiflik - bu kompaniya faoliyati uchun zarur bo'lgan nimaningdiretishmasligi, kompaniya qila olmaydigan qandaydir ish yoki kompaniyani noqulay vaziyatga solib qo'yadigan sharoit. Kompaniyaning kuchli va zaif jihatlari aniqlangach, har ikkala ro'yxat o'rganilishi va baholanishi lozim. Buning uchun SWOT tizimi qo'llaniladi (tahlil, xarajatlar tahlili, imkoniyatlar va boshqalar tahlili) . Bunda kuch va zaiflik balansi to'ziladi. Kompaniyaning eng muhim yutug'i - bu raqiblariga nisbatan kompaniya yaxshi bajara oladigan ishdir.

#### **4.4. Firma xarajatlari raqobatbardoshligini baholash.**

Kompaniya axvoli tahlilining muhim qismi - bu firma xarajatlarining raqobatga bardoshligini aniqlashdir. Baholardagi farqlarning kelib chiqish sabablari xilma-xil bo'lishi mumkin. Ularning eng muhimlari quyidagilar:

- 1) xom ashyolar, butlovchi qismlar, quvvatlar va boshqa tovarlar narxlaridagi farq;
- 2) texnologiyaning turliligi va jixozlar yoshining turliligi;
- 3) ishlab chiqarish xarajatlarining turliligi;
- 4) raqiblarning inflayasiyaga va xorijiy valyutalar almashtiruv kurslarining o'zgarishiga bogliqlik darajasining turliligi;
- 5) marketing xarajatlarining turliligi;
- 6) transortirovka xarajatlarining turliligi;
- 7) sotish shaxobchalarini tashkil etish xarajatlarning turliligi.

Raqobatga bardoshli bo'lish uchun kompaniyaning xarajatlari raqiblar xarajatlariga teng yoki undan past bo'lishi lozim. Buning uchun kompaniya qiymatlar zanjirining har bir bo'g'inida tahlil o'tkaziladi. Qiymat yaratuvchi zanjir quyidagilardan iborat bo'ladi.

##### **Asosiy faoliyat doirasida:**

- moddiy-teknika ta'minoti;
- tayyorlash;
- tovarlarni iste'molchilarga yetkazish;
- sotish va marketing;
- xizmat ko'rsatish;

##### **Qo'shimcha faoliyat doirasida:**

- tadqiqotlar va ishlanmalar, texnologiyalar va tizimlarni rivojlantirish;
- inson resurslarini boshqarish;
- umumiy boshqarish;

## **Xarajatlarni to'g'ri baholash uchun menedjer 4 ta ishni bajarishi lozim:**

- firmaning qiymatlar zanjirini tuzish;
- zanjir ichida turli uchastkalar o'rtaсидаги aloqani o'rganish;
- bozorda muvaffaqiyat keltiruvchi faoliyat turlarini aniqlash;
- solishtirma baholash o'tkazish;

## **Kompaniyaning raqobat pozisiysi qay darajada mustahkam.**

Kompaniyaning raqobatga bardoshlilagini aniqlash uchun qiymatlar zanjiridan foydalanish yetarli emas. Kompaniyaning raqobatchilik kuchi va pozisiyasi chuqurroq tahlil qilinishi lozim. Buning uchun quyidagilar aniqlanadi:

- hozirgi vaqtida kompaniya o'zining raqobat pozisiyasini qanchalik qattiq ushlab turibdi;
- amaldagi strategiya saqlanib qolsa kompaniya raqobat pozisiyasining mustaxkamlanish va zaiflashish istiqboli qanday;
- asosiy raqiblar ichida kompaniya qanday o'ringa ega;
- hozirgi vaqtida kompaniya asosiy raqiblardan ustunmi yoki orqadami;
- tarmoqning harakatlantiruvchi kuchlari, raqobat bosimlari, raqobatchilarning kutilayotgan qadamlaridan kelib chiqib kompaniya o'zining pozisiyasini himoya qila oladimi;

## **Bu savollarga javob topish uchun quyidagilarni bajarish lozim:**

**1-qadam** - tarmoqdagi muvaffaqiyatning kalit omillari ro'yxati to'ziladi;

**2-qadam** - har bir ko'rsatkich bo'yicha kompaniya va uning raqiblariga baho beriladi;

**3-qadam** - raqiblarning kuchli tomonlariga berilgan baho umumlashtiriladi;

**4-qadam** - raqiblarning raqobatda ustunlik yoki zaif jihatlari xaqida xulosa chiqariladi;

## **Kompaniya qanday strategik muammolarga to'qnash keladi?**

Yo'qoridagi tahlil natijasini o'rganib, menejerlar nimaga e'tibor berish kerakligini aniqlashlari lozim. Kompaniyaning zaif joyini topa bilish, ana shu zaifliklarni bartaraf qilish choralarini ishlab chiqish menejerlarning asosiy vazifasiga aylanadi. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun menejerlar quyidagi savollarga javob topishlari lozim:

- 1) tarmoqdagi harakatlantiruvchi kuchlarni hisobga olganda firmaning bugungi strategiyasi ma'qulmi;
- 2) firmaning amaldagi strategiyasi tarmoqning kelajakdagi muvaffaqiyatning kalit omillariga mos keladimi;
- 3) tarmoqdagi 5 ta raqobat kuchlaridan amaldagi strategiya yaxshi himoya qiladimi;
- 4) qanday vaziyatlarda bugungi strategiya kompaniyani tashqi xavflar va ichki zaifliklardan himoya qila olmaydi;
- 5) bir yoki bir nechta raqiblarning hujumi kompaniyaga zarar yetkaza oladimi, agar yetkaza olsa qanday zarar yetkaza oladi;
- 6) kompaniya raqobat ustunligiga egami yoki u raqobatchilikdagi kamchiliklarni tugatish uchun yanayam ko'proq ishlashi kerakmi;
- 7) bugungi strategiyaning kuchli va zaif tomonlari nimalardan iborat;
- 8) kompaniyaning raqobat pozisiyasini kuchaytirish uchun qo'shimcha choralar ko'rish lozimmi;

Ushbu savollarning javoblari kompaniya amaldagi strategiyasini davom qulaytirgani ma'qulmi yoki strategiyani tubdan o'zgartirish lozimmi degan savolga javob beradi.

Vaziyat tahlilining sungi bosqichida kompaniyaning ish rejasini tashkil qiluvchi barcha muhim strategik yondashuvlar aniqlanadi. U bajarilgan vaziyat tahliliga tayanishi va quyidagi savollarga javob berishi kerak:

- mayjud strategiya tarmoqdagi harakatlantiruvchi

kuchlarga mosmi?

- mavjud strategiya tarmoqning kelgusidagi muvaffaqiyat omillari bilan qanchalik kuchli bog'liq?
- mavjud strategiya hozir va ilgari emas, kelgusidagi beshta raqobat kuchidan qanchalik yaxshi himoyalangan?
- mavjud strategiya kompaniyani ichki xatarlar va tashqi zaifliklardan himoyalau oladimi?
- kompaniya bir yoki bir nechta raqiblarning hujumlaridan xavfsirashi kerakmi?
- kompaniyaning qiymat pozisiyasini yaxshilash, ijobiy imkoniyatlarni ko'paytirish yoki uning raqobatli pozisiyasini yaxshilash uchun qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish kerakmi?

#### **4.5. Amaliy marketing. "Toyota" Yaponiya. Iste'molchilar doimo birinchi o'rinda.**

"Toyota"ning bugungi kungi muvafaqqiyati eng avvalo, iste'molchilar uchun eng maqbo'l marketing xizmatlarini taklif etishi bilan bog'liq. Ko'plab sotilgan avtomobilлarini qaytarib olishiga qaramay iste'molchilarga eng yaxshi xizmatlarni taqdim qulayuvchi birinchi raqamli kompaniya sifatida ye'tirof etilmoqda.

"Toyota" biznes faoliyatini "Iste'molchilar doimo birinchi o'rinda" degan konsepsiysi asosida olib boradi. Bu konsepsiya 1935 yilda yaratilgan bo'lib, "Toyota" guruhining iste'molchilarga eng maqbul xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan yetakchi falsafasiga aylanib ulgurgan. Bu konsepsiya kompaniyaning ta'minotchilari tomonidan ham qabo'l qilingan. Iste'molchi qiymati bo'yicha axborotlarni ular doimiy ravishda yig'ib, tahlil qilib borishadi. Bunday axborotlar dillerlar, xaridorlar, vositachilar, hamda jamotchilik fikrlariga asoslangan holda to'rlanadi. Bo'larning ichida iste'molchilarning ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha fikr-mulohazalar hamda

takliflari juda muhim rol o'unaudi. Quyida kompaniya haqidagi ba'zi iste'molchilarning fikrlarini keltiramiz:

- kompaniyaning iste'molchilaridan biri o'zining "Toyota" rusumli avtomobilida do'stining dafn marosimiga ketayotgan paytda, avtomobilning motor qismida qandaydir g'alati tovush kelayotganing payqab qoladi. Va shu yaqin atrofdagi kompaniyaning servis xizmati ko'rsatuvchi shaxobchasiga boradi. U yerda ta'mir uchun navbatda turgan avtomobillar juda ko'p yedi. Shunda mijoz u shoshayotganligi va mashinasini zudlik bilan tekshirib berishlarini so'paydi. Navbatga qaramasdan aynan shu mijoz uchun shaxobcha menejering o'zi servis xizmatini ko'rsatib, avtomobilni sozlab beradi. Hattoki, dafn marosimiga ketayotgani uchun, mijozdan xizmat haqini olishmaydi. Bundan mijoz ta'sirlanib, kompaniya tomonidan iste'molchilar uchun ko'rsatiladigan xizmati haqida ijobiy fikr bildiradi. Va bu haqida barcha tanish va yaqinlariga so'zlab beradi.

"Toyota" 2010 yilda "iste'molchi birinchi" deb nomlangan o'quv markazini tashkil qulaydi. Unda tayyorlanayotgan xodimlarga iste'molchilar uchun qaerda va qachon bo'lishidan qat'iy nazar qiymat va qoniqish beradigan xizmatlarni qanday qilib ko'rsatilishi bo'yicha dars mashg'ulotlari o'qitiladi.

Shuningdek, kompaniya iste'molchilarga qulay bo'lishi uchun "Istemolchilarga ko'maklashish" markazlarini tashkil qilgan. Unda yil 12 ou mijozlarga qo'ng'iroqlar orqali bepul maslahatlar berib boriladi. Kompaniya uchun iste'molchilar qanday qadrli ekanligini 24 soat qo'ng'iroqlarni kutib, o'zlarini vaqtini ular uchun ajratishga bag'ishlashidan ko'rish mumkin. "Istemolchilarga ko'maklashish" markazlari turli tabiiy ofatlar ro'y berishi mumkin bo'lgan vaqtarda, o'z mijozlarini xavfsizlik uchun ogohlantirish xizmatini ham tashkil etgan.

### **Nazorat uchun savollari:**

1. Kompaniya strategik pozisiyasini baholash uslubi nima?
2. Kompaniya strategik mavqeini baholashda ichki va tashqi muhit tahlilini tushuntiring?
3. Kompaniyaning kuchli va zaif tomonlari nimada?
4. Kompaniyaning raqobat pozisiyasi qay darajada mustaxkam?
5. Kompaniya qanday strategik muammolarga to'qnash keladi?
6. Marketing funksiyasini tahlil qilishda qaysi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratiladi?
7. Qiymat yaratuvchi zanjir nimalardan iborat?
8. Kompaniya axvolining tahlili qanday amalga oshiriladi?
9. Amaldagi strategiyaning samaradorligi qanday aniqlanadi?
10. Kompaniya baholari va xarajatlarining raqobatga bardoshliligi qanday aniqlanadi?

### **5-MAVZU. STRATEGIYA VA RAQOBAT USTUNLARI**

#### **REJA:**

- 1. Raqobatning 5 ta umumiy strategiyasi.**
- 2. Raqobat ustunligini saqlab qolish uchun hujumkorlik strategiyasidan foydalanish.**
- 3. Raqobat ustunligini himoya qilish uchun mudofaa strategiyalaridan foydalanish.**
- 4. Vertikal integratsiya strategiyasi va raqobat ustunligi.**
- 5. Boshlovchilikning ustunliklari va kamchiliklari.**

**Tayanch so'z va iboralar:** ustunlik, himoya, mudofaa, vertikal integratsiya, hujumkor strategiya, yetakchilik strategiyasi, tabaqaqlashtirish strategiyasi, hujum.

#### **5.1. Raqobatning 5 ta umumiy strategiyasi.**

**Kompaniyaning raqobat strategiyasi** - bu biznesga yondoshuv va mijozlarni jalb qilishga qaratilgan tashabbuslar, kompaniyaning bozordagi pozitsiyani mustahkamlash uchun olib boradigan kurashidan iborat. Bozordagi raqobatni urushga o'xshatish mumkin. Bu urushda raqiblar yarador bo'lishi, zarar ko'rishi mumkin. Bunda faqat eng yaxshi strategiya g'alaba qozonadi. Kompaniyaning raqobat strategiyasi hujumkorlik va mudofaa harakatlarini, qisqa muddatli taktik va uzoq muddatli harakatlarni o'z ichiga oladi.

Bozordagi raqobatchilar nechta bo'lsa raqobatchilik strategiyasining variantlari va ko'rinishlari shuncha bo'ladi. Biroq ularning turi qanchalik ko'p bo'lmasin, ularning o'xshashliklari topiladi. Strategiyaga yondoshishning keng tarqalgan 5 ta varianti mavjud bo'lib ular quyida keltirilgan:

**1. Xarajatlar bo'yicha ilg'orlik strategiyasi.** Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda to'la xarajatlarini pasaytirishni

ko'zda tutadi. Bu yesa ko'p sonli xaridorni jalg qiladi.

2. **Keng tabaqalashtirish strategiyasi.** Kompaniya tovarlariga raqobatchi firmalar tovarlaridan farq qildiradigan o'ziga xos chizgilarni berishga qaratilgan. Bu ham xaridorlarni jalg etishga yordam beradi.

3. **Ortimal xarajatlar strategiyasi.** Xaridorlarga past xarajatlar va mahsulotni keng tabaqalashtirishni uyg'unlashtirish hisobiga qimmatli tovar olish imkoniyatini beradi. Asosiy vazifa uxshash tovarni ishlab chiqaruvchilarga nisbatan ortimal xarajat va past baholarni ta'minlashdan iboratdir.

4. **Foquslangan strategiya.** Bunda strategiya past xarajatlarga asoslangan bo'lib, xaridorlarning tor segmentiga yunaltiriladi. Bunda firma o'z raqobatchilaridan ancha past baholar hisobiga utib ketadi.

5. **Ifodalangan strategiya yoki mahsulotni tabaqalashtirishga asoslangan bozor uyasi strategiyasi.**

Uning maqsadi - tanlangan segmentlar namoyondalarini ularning did va talablariga yanada tularoq javob beradigan tovar va xizmatlar bilan ta'minlashdir.

## 5.2. Raqobat ustunligini saqlab qolish uchun hujumkorlik strategiyasidan foydalanish.

Raqobat ustunligiga deyarli har doim muvaffaqiyatli hujumkor strategik harakatlar hisobiga vaziyatiladi. Ustunlikka vaziyatishni ta'minlash uchun muvaffaqiyatli hujumkor strategiyaga qancha vaqt talab etilishi tarmoqdagi raqobat tavsifiga bog'lik.

Ustunlikni ta'minlash vaqt qisqa bo'lishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi kabi, murakkab texnologik jarayonli kapital talab etadigan tarmoqlardagi kabi ancha davomli bo'lishi ham mumkin. Ideal darajada sozlangan harakatlar miqyosi ancha katta bo'lgan (masalan, yangi qimmatbaho dorining patentiga

farmatsevtikada ega bo'lish sezilarli ustunlikni ta'minlaydi) yoki uncha katta bo'lмаган (masalan, tikuvchilik sanoatida. Bunda kiyimlarning yangi modadagi fasonlari osongina o'zlashtirilishi mumkin, nusxa kuchirish orqali) raqobat ustun-ligini yaratishi mumkin.

Muvaffaqiyatli hujumdan so'ng «mevalarning samarasini» ko'rish davri keladi. Bu davrning davomiuligi yesa raqiblarga yo'qotilgan pozitsiyalarni qaytarib olish uchun hujumga utishga qancha vaqt kerak bo'lishiga bog'liqdir.

Raqiblar firma yaratgan ustunlikka qarshi jiddiy qarshi hujum boshlashlari bilan uning yemirilishi boshlanadi. Egallangan mavqeini saqlab qolish uchun firma ikkinchi strategik hujumni amalga oshirishi kerak. Uning fundamentini esa raqobatchi ustunlikka vaziyatish maqsadida kurashni kuchaytirgan paytlarida hujumga utishga tayyor turish uchun «mevalarning samarasini» kurish davrida kurib quyish kerak bo'ladi. Raqobat ustunligini saqlab turish uchun firma raqiblardan bir bosh baland bo'lishi kerak. Bozordagi o'zining pozitsiyasini mustahkamlash uchun ketma-ket strategik hujumlar uyushtirishi va xaridorlarning moyilligini saqlab turishi lozim.

Hujumkor strategiyaning oltita asosiy turi ajratiladi:

1.Raqobatchining kuchli tomonlariga qarshilik ko'rsatish yoki ulardan o'zib ketishga qaratilgan harakatlar.

2.Raqobatchining zaif tomonlaridan foydalanishga qaratilgan harakatlar.

3.Bir nechta frontlarda bir vaqtida hujumga o'tish.

4.Egallanmagan bushliqlarni egallah.

5.Partizan urushi.

6.Zarbalar.

### **5.3. Raqobat ustunligini himoya qilish.**

Raqobat bozorlarida barcha firmalar raqobatchilar yuushtiradigan hujumlarning ob'ektlari bo'lishi mumkin. Hujumlar xuddi yeski, amaldagi firmalar tomonidan bo'lganidek, yangi firmalar tomonidan bo'lganidek, yangi firmalar tomonidan ham bo'lishi mumkin. Himoyaviy strategiyaning maqsadi hujumga uchrush xavfini kamaytirish yoki ularni eng kam yo'qotish bilan utkazib yuborish. Himoya strategiyasi kompaniyaning raqobat ustunligini kuchaytirmasa ham, raqobat pozitsiyasi atrofida mudofaa inshootlarini tashkil etish va raqobat ustunligini saqlab kolish imkonini beradi.

Raqobat ustunligini himoya qilishning bir qancha yo'llari mavjud. Ulardan biri - raqobatchilarining sozlangan harakatlarni boshlashlari uchun halal berish. Bunday yondoshuv quyidagi asosiy qadamlarni ko'zda tutadi:

1. Bush bozor uyalarini tuldirish uchun mahsulot nomenklaturasini kengaytirish.
2. Raqobatchilar ega bo'lgan yoki ega bo'lishi mumkin bo'lgan modellar va mahsulotlar sortlarini ishlab chiqish.
3. Pastroq narxlarda raqobatchilarining mahsulotlariga yakin modellarni taklif etish.
4. Raqobatchilarни vositachi va distribyuterlarning taksimlash tarmogidan sikib chiqarish uchun ular bilan shartnomalar imzolash.
5. Vositachilar va distribyuterlar boshqa ta'minotchilar bilan aloqa boglashlariga halal berish uchun ularga sezilarli skidkalarni kafolatlash.
6. Iste'molchilarni bepul yoki past narxlarda o'qitishni taklif etish.
7. O'z mahsulotiga iste'molchilar talabini saqlab qolish uchun choralar ko'rish.
8. Kreditga sotish hajmlarini oshirish.
9. Butlovchi qismlar yetkazib berish vaqtini qisqartirish.

10. Muqobil texnologiyalarni patentlash.
11. Xususiy nou-xaularni himoyalash.
12. Eng yaxshi ta'minotchilar bilan eksklyuziv kontraktlar imzolash.
13. Raqobatchilarni yakinlashtirmaslik uchun xom ashylarni katta hajmlarda sotib olish.
14. Raqobatchilar bilan ishlaydigan ta'minotchilardan voz kechish.
15. Tovarlar va raqobatchilar harakatlarni doimo nazorat qilib turish.

Himoyaviy strategiyaga bo'lgan ikkinchi yondoshuv raqobatchilarga ularning harakatlari javobsiz kolmasligi va kompaniya hujumga tayyor ekanligini yetkazib turishdan iborat.

Raqobatchilarining hujumkor harakatlariga qarshilik ko'rsatishning boshqa yo'li raqobatchilarni o'ziga jalb etadigan va ularni hujumkor harakatlarga undaudigan foydani kamaytirishga urinishdan iborat.

Firmanın foydaliligi qanchalar yo'qori bo'lsa, bu boshqalar uchun o'ziga jalb etadigan «xurak» vazifasini utaudi va hujumkor harakatlar qilish istagini tugdiradi. Bunday sharoitda kompaniya hisob mexanizmlari yordamida himoyalanishi mumkin.

### **5.4. Vertikal integratsiya strategiyasi va raqobat ustunligi**

Kompaniya mablag'larini vertikal integratsiyaga investitsiya qilishning asosiy sababi uning raqobat pozisiyasini kuchayishidir. Agar vertikal integratsiya kompaniya xarajatlarini sezilarli darajada pasayishiga yoki qo'shimcha raqobat ustunligiga vaziyatishga olib kelmas ekan, u strategik hisoblanmaudi va unga mablag' sarflashning foydasi yo'q.

«Orqaga» integratsiya shundagina xarajatlarni pasayishiga olib keladiki, unda ishlab chiqarishning talab etiladigan hajmi

shu darajada yo'qori bo'ladiki, u xuddi ta'minotchilardagi kabi ishlab chiqarish miqyoslarida shunday tejamkorlikni ta'minlaydi.

«Oldinga» vertikal integratsiya ham ana shunday ildizlarga ega.

Vertikal integratsiyaning kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

1. Integrallashgan firmalar yangi texnologiyalarga sekin kunikish tendentsiyasiga ega bo'ladilar, chunki bu katta xarajatlar bilan bog'liq.
2. Integratsiya ta'minotchilarni yerkin tanlash xususida firmaning imkoniyatlarini cheklaudi.

3. Vertikal integratsiya kadriyatlar zanjiridagi har bir bosqichda kuvvatlarni balansligi bilan bog'liq bo'lgan muammolarga olib keladi.

4. «Oldingi» yoki «orqaga» integratsiya turli malaka, mahorat va ishbor qobiliyatlarini talab etadi.

Shunday qilib, vertikal integratsiya strategiyasining ham kuchli, ham kuchsiz tomonlari bo'lishi mumkin. Integratsiyaning qanday yo'naliш va qanday miqyoslarini tanlash quyidagilarga bog'liq:

1. Integratsiya kompaniyaning strategik jihatdan muhim bo'lgan ish sohalari xarajatlarini pasaytirish yoki tabaqalashtirishni chuqurlashtirish tomoniga yaxshilashga kodirmi?
2. Kapital xarajatlar, javobiу reaktsiyaning chardastligi va tezligiga, ma'muriu xarajatlarga qanday ta'sir kursatadi?
3. Raqobat ustunligini yaratishga kodirmi?

## 5.5. Boshlovchilikning ustunliklari va kamchiliklari.

Vaqt omili strategiyani tanlashda hal qiluvchi rol yunaudi: Ustunlikka vaziyatish uchun «qaldirg'och» firmaning «kaltis vaqtida strategik harakat kerakmi yoki kerak emas?»

degan savolga javob beradi.

Strategik qadamlarni birinchi bo'lib qo'ygan firma shundagina yo'qori natijalarga erishishi mumkin, kachonki:

1. Tashabbuskorlik firmaning obro' orttirishiga yordam bersa.

2. Xom ashyo, yangi texnologiyalar ta'minotchilari, sotish tarmoqlari bilan yerta urnatilgan aloqalar mutloq ustunlikni egallahsga imkoniyat yaratishi mumkin.

3. Birinchi xaridorlar takroriy haridlarni amalgaga oshirib kompaniyaga kuchli ixlosmandlikni saqlab koladilar.

Ammo kutish har doim ham muvaffaqiyatsiz yondoshuv bo'lavermaydi.

«Qaldirg'och»lar uchun qiyinchiliklar paydo bo'ladi, qachonki:

1. Birinchi bo'lib yurish, yo'boshchilardan keyin yurishga karaganda ancha qimmatga tushadi.

2. Texnologik o'zgarishlar shunchalik tez amalgaga oshadiki, ilk investitsiyalar tezda samarali bo'lmay qoladi.

3. Kutayotganlarga bozorga kirish osonroq chunki xaridorlar har doim ham «qaldirg'och»larga sadoqatni saqlab qolavermaydilar.

4. Ilgarilab ketayotganlarning mahorat va nou-xaularidan osongina nusxa kuchirilishi mumkin yoki hatto orqada qolayotganlar tomonidan takomillashtirilishi ham mumkin.

## Nazorat uchun savollari:

1. Kompaniyaning raqobat strategiyasi deganda nimani tushunasiz ?

2. Raqobatning 5 ta umumiy strategiyasini aytib bering ?

2. Raqobat ustunligini saqlab qolish uchun hujumkorlik strategiyasidan foydalanishni tushuntiring ?

3. Raqobat ustunligini himoya qilish uchun mudofaa strategiyalaridan foydalanishni tushuntiring ?

4. Vertikal integratsiya strategiyasi va raqobat ustunligini

auting ?

5. Boshlovchilikning ustunliklari va kamchiliklari nimada ?
6. Hujumkor strategiyaning asosiy turlarini sanab bering ?
7. Xarajatlar bo'yicha yetakchilik strategiyasi qanday vaziyatda qo'llaniladi ?
8. Tabaqalashtirish strategiyasi qachon qo'llaniladi ?
9. Raqiblar hujumini oldini olish uchun nimalar qilinadi ?
10. Raqobat ustunligini himoyalash yo'llari.

## 6-MAVZU. MARKETING STRATEGIYASINI MAVJUD VAZIYATGA MOSLASHTIRISH

REJA:

1. Firma strategiyasini mavjud sharoitga moslashtirish.
2. Yangi tarmoqlarda raqobat strategiyasi. Yetuklik bosqichida bo'lgan tarmoqlarda raqobat strategiyasi.
3. Dersinayotgan yoki tushkunlik holatidagi korxonalar uchun strategiya. Tarqoq tarmoqlarda raqobat strategiyasi.
4. Xalqaro bozorlarda raqobat strategiyasi.
5. Ikkinchisi darajali o'rinda bo'lgan firmalar strategiyasi.

**Tayanch so'z va iboralar:** strategik imkoniyatlar, hujumkorlik strategiyasi, harakatlantiruvchi kuchlar, sharoitga ko'niktirish.

### 6.1. Firma strategiyasini mavjud sharoitga moslashtirish.

1. Tarmoq holatini va undagi raqobat shartlarini tavsiflovchi omillar.
2. Firmanın raqobat imkoniyatlarını, uning bozordagi pozitsiya va imkoniyatlarını tavsiflovchi omillar.

Marketing strategiyasini mavjud sharoitga moslashtirishni amalga oshirish uchun tarmoqdagi vaziyatning beshta klassik variantini va firma axvolining uchta klassik variantini kurib chiqib, namouish etish mumkin.

**Tarmoqdagi sharoit variantlari:**

1. Yangi va tez usayotgan tarmoqlardagi raqobat.
2. Yetuklik bosqichida bo'lgan tarmoqlardagi raqobat.
3. Dersinayotgan yoki tushkunlik holatida bo'lgan tarmoqlardagi raqobat.
4. Tarqoq tarmoqlardagi raqobat.

5. Halkaro bozorlardagi raqobat.

**Firma axvolining variantlari:**

1. Bozordagi ilg'orlar (etakchilar).
2. Ikkinci darajali o'rinda bo'lganlar.
3. Zaif yoki raqobatda talofat ko'rgan firmalar.

## 6.2. Yangi tarmoqlarda raqobat strategiyasi.

Yangi tarmoq - bu «oyoqqa turish»ning ilk bosqichida bo'lgan tarmoq. Yangi tarmoqlar strategiyani ishlab chiquvchilar oldiga alohida muammolar quyadi. Ular quyidagilar:

- yangi bozor yaxshi urganilmaganligi, statistik ma'lumotlar yetarli bo'lmanligi uchun uning kelajakdagisi rivojlanish tendentsiyalarini aniq belgilash imkoniyati bo'lmaydi;
- nou-xaularning ko'p qismi patentlangan bo'lib, astoydil qo'riqlanadi, shuning uchun ulardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi;
- raqobat kurashida texnologiyalarning qaysinisi yutib chiqishi va qaysi tovarlar xaridorlarga ma'qul kelishi haqida bir xil fikrga kelish qiyin bo'ladi;
- har bir firma o'zining texnologiyasini, tovar turini va mahsulotni tarqatishga bo'lgan strategik yondoshuvini iste'molchilarga tan oldirishga harakat qiladi;
- ishlab chiqarish hajmlarining usishi bilan tajribaning yegri chizig'i samarasi ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada pasaytiradi;
- firmalar o'z raqobatchilari haqidagi ma'lumotlarni etishmasligini doim his qiladilar;
- ko'p hollarda firmalarda xom ashyo va materiallar bilan ta'minlaydigan ishonchli ta'minotchilarni qidirish muammolari yuzaga keladi;
- juda ko'p kompaniyalar pul mablag'larini etishmasligini his qiladilar va raqib firmalarga qo'shilib ketadilar yoki ularni

sotib oladilar.

**Yangi tarmoqlarda raqobat strategiyasi. Yetuklik bosqichida bo'lgan tarmoqlarda raqobat strategiyasi.**

Yangi tarmoqda biznes qilishning eng muhim strategik muammolaridan biri shuki, unda doimo tavakkalchilik qilish va imkoniyatlarni baholab berish talab etiladi. Yangi tarmoqda muvaffaqiyatga vaziyatish uchun bir qancha tavsiyalarga amal qilish zarur bo'ladi.

**Tavsiyalar:**

1. Tavakkalchilik qilib va yaratuvchilikning dadil strategiyasidan foydalanib ilg'orlik uchun kurashishga birinchi bosqichda g'alabaga vaziyatishga harakat qiling.
  2. Texnologik jarayonni takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash tashabbuslarini faol qullab-quvvatlang.
  3. «Qaldirg'ochlik»ning har qanday ustunliklaridan foydalanishga harakat qiling.
  4. Yangi iste'mol segmentlarini, tovari iste'molchilarga yetkazib berishning yangi vositalarini qidiring, faoliyatning geografik chegaralarini kengaytiring.
  5. Reklamada asosiy urg'uni xaridorlarni tovar bilan tanishtirishdan asta-sekin ularda firma va tovar markasi haqida yaxshi fikr paydo qilishga kuchiring.
  6. Texnologik o'zgarishlarga tez reaksiya kursating.
  7. Bozorga xaridorlar guruxini jalb etish uchun narxlarni pasaytirishdan foydalaning.
  8. Bozorga moliyaviy jihatdan baquvvat autsayderlar kirishini kuting. Bu tarmoqqa investitsiyalar quyishdagi xavf kamayganda mumkin bo'ladi.
  9. Kuchli raqobatchilar paydo bo'lishiga tayyorlaning.
- Firma ilg'orlik uchun kurashda ilk g'alabadan keladigan bir daqiqalik manfaatni uzoq muddatli raqobat ustunligi va bozorda mustahkam pozitsiya yaratish ehtiyoji bilan muvofiqlashtirishi zarur.

## **Yetuklik bosqichida bo'lgan tarmoqlarda raqobat strategiyasi.**

Yangi tarmoqlarning tez sur'atlar bilan usishi uzoq davom yetmaydi. Yetuklik bosqichiga utish davrida, tarmoqning raqobat muhitida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Bo'lar quyidagilar:

1. Iste'mol talabining pasayishi tarmoqning bozordagi ulushini saqlab qolish uchun kuchli raqobatni yuzaga keltiradi.
  2. Mijozlar injiqroq bo'lib boradilar va takroriy haridlarida katta foyda talab qiladilar.
  3. Raqobat ko'p hollarda xarajatlarga va xizmat ko'rsatish darajasiga katta ta'sir kursatadi.
  4. Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda jiddiy muammolar paydo bo'ladi.
  5. Innovasion jarayon va tovarlarni qo'llashning yangi usullarini izlash qiyinlashadi.
  6. Xalqaro raqobat kuchayadi.
  7. Tarmoqning daromadliligi pasayadi.
  8. Raqobatning kuchayishi avvalgi raqobatchilarining bir-birga qushilib ketishlariga va bir-birlarini «yutib» yuborishlariga olib keladi.
- Yetuklik bosqichi rivojlanib borgan sari firmalar o'zlarining strategik harakatlarini raqobatchilar orasida pozitsiyalarini mustaxkamlashga yunaltiradilar. Bunda ular quyidagi vositalardan foydalanadilar:

- parametrik qatorlarini qisqartirish.
- Ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilishga e'tiborni qaratish.
- Xarajatlarni kamaytirishga e'tiborni kuchaytirish.
- Mavjud xaridorlarga sotuvni oshirish.
- Raqobatchi firmalarni past baholarda sotib olish.
- Xalqaro bozorga chiqish.

## **6.3. Depsinayotgan yoki tushkunlik holatidagi korxonalar uchun strategiya. Tarqoq tarmoqlarda raqobat strategiyasi.**

Ko'pgina firmalar sanoatga nisbatan o'sish past bo'lgan tarmoqlarda ish olib boradilar.

Bunday firma yoki kompaniyalar davom qulayayotgan turg'unlikning aniq voqeligini tan olishlari va bozorning mavjud imkoniyatlari mos keladigan maqsadlarni ifodalashga o'z kuchlarini sarflashlari kerak bo'ladi.

Depsinayotgan yoki tushkunlik holatidagi tarmoqlarda muvaffaqiyatga erishgan kompaniyalar asosan quyidagi strategiyalarga amal qiladilar:

1. O'suvchi bozor segmentlarini aniqlab, mos strategiya yaratish va ishlab chiqish yo'li bilan fokuslash strategiyasi tomon yo'l tutish.
2. Sifatni yaxshilash va innovasiya asosida differentsiyalash tomon yo'l tutish.
3. Xarajatlar darajasini pasaytirish uchun zur berib va o'zilishlarsiz ishlash.

Odatda sanab utilgan uchta strategyaning bittasidan foydalaniш talab etiladi.

Lekin ular bir-birini inkor etmaydilar. Unumdoorlikning usishi baholarni pasaytirish imkonini beradi, bu o'z navbatida sotuv hajmini usishiga olib keladi.

### **Tarqoq tarmoqlarda raqobat strategiyasi.**

Ba'zi tarmoqlar yuz, hatto minglab kichik va o'rta firmalardan iborat bo'ladi.

Ularning ko'pchiligin xususiy firmalar tashkil etib, ularning birortasi ham tarmoqdagi umumiylotuv hajmida sezilarli rol uynmaydi. Bo'lib tashlangan tarmoqning asosiy farqlanadigan xususiyati, unda yetakchilarning yo'qligidir. Bunday tarmoqlar qatoriga kitob nashriyotlarini, neftni tanker bilan tashish, avtomobilarni ta'mirlash, tez xizmat kursatadigan restoran

va kafelar, xususiy firmalarda buxgalterlik xizmatlari, ayollar kiyimlarini tikish ustaxonalari, mexmonxona va otellar, mebel ishlab chiqarish, karton qutichalar tayyorlash, oziq-ovqat tovarlarini qadoqlash kabilarni kiritish mumkin.

Tarqoq tarmoqlarda raqobat kurashi o'rtacha kuchlidan shiddatligacha bo'lishi mumkin. Tarqoq tarmoqlarga to'g'ri keladigan raqobat strategiyasining ehtimoldagi variantlariga quyidagilar kiradi:

1. Namunali sharoitlarni yaratish va ulardan foydalanish.
2. Past xarajatlarni ta'minlash.
3. Integratsiya yo'li bilan xaridor uchun foydani oshirish.
4. Tovar turiga ixtisoslashish.
5. Xaridor turiga ixtisoslashish.
6. Cheklangan geografik xududlarga foquslash.

Tarmoqning tarqoqlik sharoitida firmada strategik tanlash erkinligi mavjud:

-ya'nini keng marketing maqsadlarini ko'zlash, xarajatlarning raqobat ustunligi yoki tabaqalashtirishdan foydalanish.

Tarqoq tarmoqlarda bir vaqtning o'zida ko'p strategik yondoshuvlardan foydalanish mumkin bo'ladi.

#### **6.4. Xalqaro bozorlarda raqobat strategiyasi.**

Firmalarning xalqaro bozorga chiqishlarini asosiy sabablari quyidagilardir:

- yangi bozorlarni egallash,
- boshqa mamlakatlar tabiiy resurslaridan foydalanish huquqini olish yoki yana ham past xarajatlarga vaziyatish zaruriyati.

Sanab utilgan har bir holatda dunyo bozoriga chiqish strategiyasi mavjud sharoitga mos kelishi kerak. Dunyo bozorlaridagi raqobat strategiyalarini ishlab chiqishga milliy bozorlardagiga qaraganda ancha qattiq talablar quyadi. Bir mamlakat bozorining ikkinchi mamlakat bozoridan asosiy

farqlariga xaridorlarning didlari, sotish qanallari, usish istiqbollari, harakatlantiruvchi kuchlar va raqobatchilarning ta'ziqlari, milliy bozorlardagi sharoitlardan qanchalik farqlanishi kiradi. Bundan tashqari bunday farqlarga xalqaro operatsiyalarning to'rtta harakterli xususiyatlari ham kiradi.

1. Ishlab chiqarish xarajatlari darajasini har-xilligi.
2. Valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi.
3. Hukumatlarning savdo siyosati.
4. Xalqaro raqobatning harakteri.

Turli tarmoqlarda xalqaro raqobat shakllari bir-birdan tubdan farq qiladi. Fransiyada ham, Braziliyada va Yaponiyada ham bank xizmatlari kursatiladi, lekin bu mamlakatlardagi bank sohasidagi raqobat shartlari va sharoitlari turlichadir.

Xalqaro bozorda raqobat global va ko'p millatli bo'ladi. Turli milliy bozorlarda raqobat sharoitlari bir-biri bilan o'zviy bog'langan taqdirda global raqobat mavjud bo'ladi. Bu esa haqiqatda dunyo bozorini tashkil etish imkonini beradi. Global raqobatning mavjud bo'lish shartlaridan yana biri turli mamlakatlardagi ilg'or firmalar o'zaro, bir-birlari bilan raqobat qilishi bilan ifodalanadi. Ko'p millatli raqobat davomida firmalar milliy bozorda ilg'orlik uchun kurashadilar, global raqobatda esa firmalar dunyo miqyosida ustunlikka vaziyatish uchun kurashadilar.

Dunyo bozorida firma faoliyatining strategik imkoniyatlari mavjud bo'ladi:

1. Chet yel firmalariga uning mahsulotini ishlab chiqarish uchun uning xususiy texnologiyalaridan foydalanish huquqini berish.
2. Milliy ishlab chiqarishni mustahkamlash va xorij bozorlariga tovarlar chiqarish.
3. Ko'p millatli strategiya tomon yo'l tutmoq. Bunda firma o'z faoliyatini amalga oshirayotgan har bir davlat uchun alohida strategiya ishlab chiqadi. Ayni paytda u mazkur davlatlardagi xaridorlar didlariga va raqobat sharoitlariga mos kelishi kerak.

- Past xarajatlar global strategiyasiga yo'l tutmoq.
- Tabaqalashtirishning global strategiyasiga yo'l tutmoq.
- Foquslashgan global strategiyasi tomon yo'l tutmoq.

Kompaniya mustahkam mavqega ega bo'lgan va katta foyda olayotgan mamlakat bozorlari «xazina» deb ataladi. Yaponiya yapon kompaniyalari uchun eng daromadli bozor bo'lib hisoblanadi. Chunki yapon qonunchiligi tomonidan yaratilgan savdo tusiqlari uni xorijiy raqobatchilardan samarali himoya qiladi.

## **6.5. Ikkinchini darajali o'rinda bo'lgan firmalar strategiyasi.**

Ikkinchini darajali urinda bo'lgan firmalar bozorda tarmoqning ilg'orlariga nisbatan ancha zaif pozitsiyasiga ega bo'ladilar. Ularning ba'zilari tirishqoq, serg'auratlikga da'vogar bo'ladilar va sozlangan strategiyalardan uo'z pozitsiyalarini mustahkamlashda, bozordagi ulushini kengaytirishda foydalanadilar. Ular ancha chardast bo'ladilar va quyidagi yondoshuvlardan har qanaqasini qullau oladilar.

- Vakant uya strategiyasi.
- Mutaxassis strategiyasi.
- Firmaning «bizda ulardagidan yaxshi» strategiyasi.
- «Itoatguy izdosh» strategiya.
- «Ega bo'lish (yoki orttirish) hisobiga usish» strategiyasi.
- Obruga mos strategiya.

## **Muvaffaqiyatli ishbor strategiya ishlab chiqish uchun tavsiyalar.**

Raqobat mavqeい yomonlashayotgan firma o'z siyosatini to'rtta asosiy strategik imkoniyatlardan kelib chiqib quradi. Firmada moliya mablag'lari mavjud bo'lsa, u quyidagi strategiyani amalga oshirishi mumkin.

- Aylanma hujum strategiyasi.
- Himoya va mustahkamlash strategiyasi.
- Tezlik bilan chekinish strategiyasi.

- «Xosil yig'ish» strategiyasi.

Bunday firmalar jozibasiz tarmoqlarda «xosil yig'ish» dan pul mablag'larini daromadli sohalarga yo'naltiradilar.

Muvaffaqiyatli ishbor strategiya ishlab chiqish uchun tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- Strategiya ishlab chiqish va uni amalga oshirishda firmaning raqobat mavqeini uzoq muddatga kuchaytirish imkonini beradigan harakatlarga alohida e'tibor bering.
- Shuni bilingki, izchillik bilan aniq ishlab chiqarilgan va keskirlik bilan amalga oshirilgan raqobat strategiyasi firmaga obro' keltiradi va uning tarmoqdagi mavqeini tan oldiradi. Bir lahzalik bozor imkoniyatlaridan foydalanishga asoslangan o'zgaruvchan strategiya esa yuzaki natijalar beradi.
- Pastroq xarajatlar va kengroq tabaqalashtirish o'rtaisdagi murosasozlikka asoslangan, «yo'lning yarmisida to'xtab qolgan» strategiyalardan uzoqroq bo'ling.
- Mablag'larni mustahkam bozor ustunliklari yaratishga sarflang.
- Raqobat ustunliklari yaratish uchun agressiv hujum taktikasini va ularni himoya qilish uchun qat'iy himoya taktikasini qo'llang.
- Eng qulay sharoitlardagina muvoffaqiyat keltirishi mumkin bo'lgan strategiyalardan qoching.
- Firmaga manevr imkoniyatlari qoldirmaydigan qattiq strategiya qo'llayotganda ehtirot bo'ling, chunki tez o'zgaruvchan bozor sharoiti barcha harakatlariningizni yo'qqa chiqarishi mumkin.
- Raqiblar harakatiga yetarli baho bermaslikka yo'l qo'y mang.
- Salobatli raqobat ustunligi va yetarli moliyaviy ta'minot bo'lmasa kuchli raqiblarga hujum qilmang.
- Kuchli raqibdan ko'ra kuchsiz raqibga hujum qilish foydaliroq ekanligini biling.
- Xarajatlar bo'yicha yetarli ustunlikka ega bo'lmay turib

baholarni pasaytirmang.

12. Raqiblarning bozordagi o'rnini bosib olishga qaratilgan agressiv siyosat ularni urush ochishga va «marketingcha» qurollanish poygasini boshlashga turtki bo'lishi mumkin.

13. Tabaqalashtirish strategiyasini amalgaga oshirishda sifat, tovarlardan foydalanish va xizmat ko'rsatishda muhimroq tafovvtular topishga harakat qiling.

#### **Nazorat uchun savollari:**

1. Firma ishlayotgan tarmoqni qanday ta'riflash mumkin ?
2. Firmaning tarmoqdagi ahvoli qanday baholanadi ?
3. Firmaning tarmoqdagi mavqeい va strategik imkoniyatlari o'rtasida qanday bog'lanish bor ?
4. Hujumkorlik strategiyasini qachon qo'llash lozim ?
5. Tarmoqdagi harakatlantiruvchi kuchlarga nimalar kiradi ?
6. Firmaning strategik harakatlari deganda nimani tushunasiz ?
7. Firma strategiyasini mavjud sharoitga kuniktirish qanday amalgaga oshiriladi?

## **7-MAVZU. DIVERSIFIKASIYALASHNING KORPORATIV STRATEGIYASI**

### **REJA:**

- 1. Korporatsiyaning o'sishi va rivojlanishi.**
- 2. Vertikal integratsiya.**
- 3. Yangi tarmoqlarga kirish strategiyasi.**
- 4. Qisqartirish va tugatish strategiyasi.**

**Tayanch so'z va iboralar:** korporatsiya, yangi tarmoqlar, turdosh tarmoqlar, qisqartirish va tugatish, qayta tarkiblashtirish, ko'pmillatli diversifikatsiyalash.

### **7.1. Korporatsiyaning o'sishi va rivojlanishi.**

**Diversifikasiya** (lot. diversificatio — o'zgarish, xilmal taraqqiyot) — korxonalarning faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi. Diversifikasiyada yo'qori samaradorlikka vaziyatish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va boshqa maqsadlarda amalgaga oshiriladi.

Ko'pchilik kompaniyalar o'z faoliyatlarini katta bo'limgan tor ixtisosli korxona sifatida mahalliy va xududu bozorlarga xizmat kursatib boshlaudilar. Boshlang'ich bosqichda mahsulot assortimenti katta bo'lmaydi, o'z mablag'lari cheklangan, raqobat pozitsiyalari zaif bo'ladi. Ko'p yosh kompaniyalar bozordagi ulushini oshirib va xaridorlar e'tiborini qozona borib, odatda sotuv hajmlarini oshirishga harakat qiladilar. Narx, sifat, xizmat ko'rsatish va reklama xaridorlar manfaatlariga bo'yundiriladi.

Keyingibosqichdageografikekspansiya uchun imkoniyatlar axtariladi. U shunday davomiylikda kechadi: mahalliy, xududiymilliyl-xalqaro bozorlar.

Bozorlarga kirib borish darajasi rentabellik darajasiga

bog'liq ravishda o'zgarib turadi.

Kompaniya bir tarmoqning imkoniyatlaridan foydalanib, daromad olib turar ekan, diversiyani amalga oshirishning xech qanday zaruriyati yo'q. Lekin, usish salohiyati qisqarib borar ekan boshqa sohalar faoliyatiga diversiya qilish strategik jihatdan o'zini oqlaydi yoki to'g'ri bo'ladi.

Bunday strategik imkoniyatlar turlichadir. Kompaniya turdosh tarmoq kabi o'zi uchun butunlay yangi bo'lgan tarmoqqa ham diversiya qilishi mumkin. Buni katta va katta bo'lмаган hajmlarda amalga oshirish mumkin.

Biznesning bir turida faoliyat kursatayotgan kompaniyalar uzoq yillar diversiyasiz amal qilib xavas qilarli natijalarga erishishlari mumkin. Bunga misollar ko'p. Bir sohada kontsentratsiya - jamlanish qator foydali tashkiliy va boshqaruva ustunliklariga egadir. Birinchidan, kontsentratsiya «biz kimmiz va nima bilan shug'ullanamiz» degan savoldagi mavhumiylikni istisno qiladi. Bunda barcha kuch biznesning bir turiga yo'naltiriladi va rahbariyatning hatti-harakatlari boshqa sohalarga «sochilib ketish» ehtimoli bo'lmaydi.

Ikkinchidan, bir sohada jamlanish jiddiy rag'batlar borligini ko'zda tutadi. Ular menejerlarni bir daqiqalik foyda olishga emas, firmaning tarmoqdagi raqobat pozitsiyalarini uzoq kelajakda ham mustahkamlashga rag'batlantiradi.

Boshqa tomondan, bir yo'nalishda jamlanish, uning harakatlarini bir tomonga yunaltirish kompaniya uchun katta tavakkalchilik bo'lib hisoblanadi. Obrazli qilib autganda «uning, firmaning barcha tuxumlari bir savatda bo'ladi».

Sekin o'sayotgan tarmoq sharoitida kuchli kompaniyalar diversiyani boshlash uchun naqd pul ortiqchaligidan foydalanish imkoniyatini ko'rib chiqishlari kerak. Diversiyani (**Diversiya** lot. diversio — diqqatni tortish, chalg'itish) boshlash masalasi qisman kompaniyaning mazkurtarmoqda ushish imkoniyatlariga, qisman uning raqobat pozitsiyalariga bog'liqidir. Firma o'zining asosiy ustunliklaridan samarali foydalana oladigan sohalarga

diversiya qilishi eng yaxshi strategiya bo'lib hisoblanadi. Lekin firma uchun butunlau yangi bo'lgan tarmoqlarga diversiyalash, turdosh tarmoqlarning birortasiga ham usish istiqbollarini ta'minlay olmay qolgan taqdirda ko'zda tutilishi kerak. Shunday qilib, «kachon diversiyalash kerak?» degan masalani hal etish, bir tomondan firmanın bozordagi raqobat pozitsiyasiga, boshqa tomondan tub tarmoqdagi qolgan imkoniyatlariga bog'liqidir. Kompaniyalar diversiyani amalga oshirishlarining aniq belgilangan vaqt yo'q.

Kompaniyalar uchun uzoq muddatli daromadni maksimallashtirishning ma'nosi shuki, kompaniya odatda o'z bozori doirasida narxdagi ustunlik, tabaqlashtirish va fokuslanish strategiyalari vositasida yaxshi raqobatlashadi. Ammo bu strategiyalar (sotishda va ta'minotda strategik ustunliklarga ega bo'lish uchun) oldinga va orqaga vertikal integratsiyani ham o'z ichiga olishi mumkin. Yana bir imkoniyat kompaniya faoliyatini diversiyalashdir.

Kompaniyaning o'sishi va rivojlanishi odatda uchta asosiy bosqichdan iborat:

- milliy bozorda yakka biznesga ixtisoslashish;
- vertikal integratsiya, yoki asosiy biznesdag'i eng kuchli pozitsiya tomon global ekspansiya;
- erkin resurslarni biznesning boshqa turiga investitsiyalash yo'li bilan diversiyalash.

Bularning barchasi kompaniyaning o'sishiga olib keladi, ammo «diversiyalash darajasi» oshgan sari kamayuvchi qaytim «qonuni»ni nazarda tutish kerak.

Ma'lum bir nuqtadan so'ng yekstensiv diversiyalash, vertikal integratsiya va biznesning baynalmillonashuvi sarflangan kapital birligiga to'g'ri keladigan daromadlarning kamayishiga olib keladi, chunki kompaniya birinchi navbatda eng daromadli qulay imkoniyatlarni amalga oshiradi, so'ngra eng kam daromad keltiruvchi imkoniyatlar qoladi, bu esa firmanın o'sish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

## Diversiyalashni qo'llash

Diversiyalashning tub maqsadi aktsionerlar uchun qadriyatlar yaratish hisoblanadi. Yagona korporativ tizimga birlashgan firmalar guruxi ularning har biri beradigan samaradan ko'proq samara bermas ekan, diversiyalash aktsiyalarning daromadlilagini oshirmaydi. Agarda «A» kompaniya «V» kompaniyani sotib olish bilan diversiyalanar ekan va ular oladigan foyda ular birlashishidan oldin oladigan foyda summasidan oshmas ekan, bunday diversiyalash muvaffaqiyatsizdir. «A» kompaniyaning omonatchilari  $2+2=4$  natijani o'z mablag'larini «V» kompaniya aktsiyalariga quyib ham olishlari mumkin yedi. Lekin, diversiyalash natijasi  $2+2=5$  samarasini bermas ekan, aktsianing daromadliligi oshmaydi.

Korporativ boshqaruvchilar diversiyalash bo'yicha u yoki bu qarorlar aktsiya daromadlilagini oshirishga qodir ekanligini, quyidagi uchta mezondan foydalanib baholashlari mumkin:

1. Jozibadorlik mezoni. Diversiyalash uchun tanlangan tarmoq quylgan mablag'lardan yaxshi foyda olish nuqtai nazaridan jozibali bo'lishi kerak.

2. «Kirish uchun xarajatlар» mezoni. Foyda olish salohiyatiga zarar yetkazmaslik uchun tarmoqqa kirish xarajatlari u darajada yo'qori bo'lmasligi lozim.

3. Qushimcha manfaatlar mezoni. Faoliyatda yangi raqobat ustunligini barro etish uchun kompaniya ma'lum harakatlarni amalga oshirishi zarur.

Diversiyalash bilan shug'ullanuvchi korporativ boshqaruvning strategik tanlovi diversiyalashning quyidagi strategiyalarida namoyon bo'ladi:

1. Yangi tarmoqqa kirish strategiyasi.
2. Turdosh tarmoqlarga diversiyalash strategiyasi.
3. Noturdosh tarmoqlarga diversiyalash strategiyasi.
4. Qisqartirish va tugatish strategiyasi.
5. Qayta tarmoqlashtirish, qayta tiklash va tejamkorlik strategiyasi.

Birinchi uchta strategiya diversiyalash usullarini o'zida jamlaydi, turtinchi va beshinchisi yesa diversiyalanib bo'lingan kompaniya pozitsiyalarini mustahkamlash strategiyasidir.

Diversiyalashning ikkita asosiy turi - bog'liq va bog'liq bo'lмаган турлари mavjud. Bog'liq diversiyalash kompaniya faoliyatidagi biznesning mavjud sohalari (masalan, ishlab chiqarish, marketing, moddiy ta'minot yoki texnologiya) bilan bog'liq bo'lgan yangi sohadir.

Bog'liq bo'lмаган diversiyalash - faoliyatning, biznesning mavjud sohalari bilan ochiqdan-ochiq aloqasi bo'lмаган yangi sohasidir.

Diversiyalash quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- ichki kapitallar bozori orqali;
- qayta tarkiblashtirish orqali;
- funktsiyalar yoki resurslarni taqsimlash orqali.

Ichki kapitallar bozori yordamidagi diversiyalash fond bozori qaysi funktsiyalarini bajarsa, ayni shu funktsiyalarini bajaradi. Ichki kapitallar bozorida korporatsiya quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- korporatsiya xujalikning o'rta bug'ini tarkibidagi strategik rejalashtirish funktsiyalarini bajarish;
- moliyaviy maqsadlarni belgilab olish va xujalikning o'rta bug'ini faoliyatini ko'zatib borish;
- korporativ kapitallarni raqobatlashuvchi o'rta korxonalar o'tasida joylashtirish.

Bunday sharoitlarda o'rta korxonalar asosiy idoraning faqat moliyaviy nazorati ostida bo'lgan mustaqil daromad markazlari vazifasini bajaradi.

Qayta tarkiblashtirish strategiyasi ichki kapitallar bozori strategiyasi turlaridan biridir. Ular o'tasidagi farq korporatsianing o'rta korxonalar faoliyatiga aralashuv darajasidadir. Qayta tarkibla-nadigan korxonalar odatda tashkil qilish va rivojlantirish jarayonida yomon boshqarilgan bo'ladi.

Maqsad ularga o'z faoliyatini faollashtirishda yordam berish, o'rta korxonalar darajasida yangi strategiyalarni rivojlan-tirish va kompaniyaga yangi moliyaviy va texnologik resurslarni kiritishdan iboratdir.

Resurslarni qayta taqsimlash yo'li bilan amalga oshiriladigan diver-siyalashni mavjud va yangi o'rta korxonalarning bir yoki bir necha muhim funktsiyalari uxshash bo'lgan hollarda amalga oshirish mumkin. Resurslarni qayta taqsimlashdan maqsad kompaniya faoliyatidagi umumiyl ishlab chiqarish, taqsimot qanallari, ilgari surish vositalari, ITTKI va shu kabilardan foydalanishda sinergizmni amalga oshirishdir. Shunday qilib, har bir o'rta korxonalarga ushbu masala mustaqil hal qilingandan kura kamroq xarajatlar talab qilinadi.

Kompaniya faoliyatini diversiyalashda bunday kompaniyani boshqarish qiymatini ham hisobga olish talab qilinadi. Ushbu xarajatlar o'rta korxonalar soni va ular o'rtasidagi koordinatsiya zarurati bilan aniqla-nadi. Masalan, ma'lum bir sinergizm mavjud bo'lgan 12 ta o'rta korxonadan iborat kompaniyadagi boshqarish xarajatlari sinergizm bo'lмаган 10 ta o'rta korxonadan iborat kompaniyadagiga qaraganda ko'proq bo'ladi. Koordinatsiyaga ehtiyoji kuchli bo'lган kompaniya o'z mavqeini o'rta korxona sinergizmi orqali kuchaytirishga intilmoqda, deb faraz qilaylik.

Koordinatsiyaga bo'lган ehtiyoji unchalik kuchli bo'lмаган kompaniya esa ichki kapital bozori yoki qayta strukturalash strategiyasiga rioya qiladi. Xarajatlar bog'liq bo'lмаган diversiyalashda o'rta korxonalar o'rtasida koordinatsiya talab qilinmaydi. Demak, kompaniya portfelidagi o'rta korxonalar soni ko'paygan sari boshqaruv xarajatlari ham ko'payadi. Bunga aksincha, bog'liq diversiyalashdagi kompaniyalarning xarajatlari o'rta korxonalar soniga va ular o'rtasidagi kerakli koordinatsiya darajasiga qarab ortib boraveradi. Ushbu ko'paygan xarajatlar bog'liq diversiyalashda katta daromadlarni ham yo'qqa chiqarishi mumkin (7.1-jadval).

Shundayqilib,bog'liqvabog'liqbo'lmagandiversiyalashning qaysi birini tanlash daromadlarni va boshqaruvga sarflanadigan qo'shimcha xarajatlarni solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Kompaniya mahoratidan keng foydalanilsa, shuningdek, boshqaruv xarajatlari ham resurslarni taqsimlashda kerak bo'lgan qiymatlardan oshmasa, firma butun e'tiborni bog'liq diversiyalashga qaratishi kerak. Xuddi shuningdek, agar asosiy o'rta korxonalar o'ta ixtisoslashgan bo'lib, boshqa joyda qo'llanilmasa, boshqaruv xarajatlari ichki bozor strategiyasini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan qiymatlardan ortiq bo'lmasa, kompaniya bog'liq bo'lмаган diversiyalashga kontsentratsiyalanishi kerak.

### Bog'liq va bog'liq bo'lмаган diversiyalashni taqqoslash

#### 7.1-jadval

Diversiyalash strategiyasi	Amalga oshirish yo'llari	Boshqaruv xarajatlarining manbalari
Bog'liq	Ichki kapital bozori. Qayta tarkiblashtirish Resurslarni taqsimlash	O'rta korxonalar soni O'rta korxonalar o'rtasidagi koordinatsiya
Bog'liq emas	Ichki kapital bozori Qayta tarkiblashtirish	

Diversiyalashning aksi bo'lган strategiya ikki yoki undan ko'p kompaniyalarni biznesning yangi imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog'liq (masalan, ITTKI) qiymat, tavakkalchilik va daromadlar sohasidagi strategik alyansni tashkil qilishidir.

#### Vertikal integratsiya

**Vertikal integratsiya** - shunday usulki, bu usul yordamida kompaniya texnologik zanjirda o'z chiqish bosqichlarini (orqa integratsiya) yoki uning kirish bosqichlarini (oldinga

integratsiya) tashkil qiladi.

Integratsiya to'liq va tor bo'lishi mumkin. To'liq integratsiyada barcha kirish yoki chiqishlar birlashadi. Tor integratsiyaga kompaniyaning kirish yelementlarining bir qismini sotib olishi va qolganlarini o'z kuchlari bilan ishlab chiqarishi misol bo'la oladi.

Vertikal integratsiyadan foydalanadigan kompaniya odatda o'zining asosiy dastlabki biznesiga xos raqobatli pozitsiyani kuchaytirish istagi bilan izoxlanadi. Bunga quyidagilar sabab bo'ladi:

- xarajatlardan tejash;
- integratsiyalayotgan ishlab chiqarishlarda bozor qiymatidan chetlanish;
- sifat nazoratini yaxshilash;
- o'z texnologiyasini himoyalash.

Ammo vertikal integratsiyaning salbiy tomonlari ham bor. Ularning ichida eng muhimi quyidagilardir:

- ortiqcha xarajatlar;
- texnologiyalar tez almashgandagi yo'qotishlar;
- talabning mavhum bo'lgandagi yo'qotishlar.

Agar kompaniyaning tashqi arzon ta'minot manbalari mavjud bo'lib, o'z ishlab chiqarishidan foydalansa, vertikal integratsiya xarajatlarni ko'paytirib yuborishi mumkin. Bu kompaniya ichida raqobatning yo'qligi sababli ham yuz berishi mumkin bo'lib, bu uning shu'ba korxonalarini (etkazib beruvchilarni) ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga undamaudi.

Texnologiya keskin o'zgarganda kompaniyaning yeskirgan texnologiyaga bog'lanib qolish xavfi vujudgakeladi. Talab doimiy bo'lganda yo'qiroq integratsiya darajasi mahsulot ishlab chiqarishni ishonchliroq himoyalash va muvofiqlashtirishga imkon beradi. Talab beqaror va mavhum bo'lganda vertikal integratsiyada bunday muvofiqlashtirish qiyin bo'ladi. Bu boshqaruv qiymatining usishiga olib kelishi mumkin. Bunday

sharoitlarda tor integratsiya tula integratsiyaga qaraganda xavfsizroq bo'lib chiqishi mumkin.

Shuni ham qayd qilib utish lozimki, tor integratsiya tula integratsiyaga qaraganda xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi. Bu esa ma'lum sharoitlarda kompaniyaga vertikal integratsiyani kengaytirishga imkon beradi.

Ammo, umuman olganda, tor integratsiya boshqaruv xarajatlarini kamaytirishi mumkin bo'lsa-da, u xarajatlarni batamom bartaraf qila olmaydi.

Kompaniya bunga teskari strategiya sifatida yetkazib beruvchilar yoki iste'molchilar bilan uzoq muddatli kontraktlardan foydalanishi mumkin. Bunday aloqalar kredit majburiyatlardan yoki ishlab chiqarishni rivojlantrishga garov investitsiyalardan foydalanishda ayniqsa, katta samara beradi. Bu boshqaruv xarajatlarini oshirmau turib, vertikal integratsiya samarasiga vaziyatishga imkon beradi.

## 7.2. Yangi tarmoqlarga kirish strategiyasi.

Yangi tarmoqqa kirish quyidagi uch shakldan birida davom etishi mumkin:

- a) «yutib yuborish»;
- b) yangi kompaniya tuzish;
- v) qo'shma korxona tuzish.

Mavjud firmani «yutib yuborish» eng ommaviy usul bo'lib, yangi bozorga tezroq kirish ustunligiga ega. Shuningdek u texnologik qoloqlikni tugatish, ta'minotchilar bilan aloqalar bog'lash, yangi tarmoqda raqobatbardoshlikka vaziyatish kabi tusiqlarni engish uchun yordam beradi. Ko'p tarmoqlarda zarur axborot bazasini rivojlantirish, o'zini resurslar bilan ta'minlash va jiddiy raqobatchi obrusini egallash uchun firmalarga bir necha yil kerak bo'ladi.

«Noldan boshlash» diversiyasi tanlangan tarmoqda «bosh» kompaniya boshchiligidagi yangi kompaniya tuzishni ifodalaudi.

Bu quyidagi hollarda jozibali hisoblanadi:

- bunda yetarli vaqt bo'lgan taqdirda;
- yangi firmaning bozorni egallashga bo'lgan harakatlariga raqobatchi firmalar reaktsiya bildirmaudilar.

Bunday yo'l bilan bozorga chiqish boshqa kompaniyani sotib olishdan arzonga tushadi.

Firma samarali faoliyat ko'rsatish uchun yetarli tajribaga ega bo'ladi.

Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish tarmoqdagi talab va taklif muvozanatiga salbiy ta'sir kursatmaydi.

Maqsadli tarmoqda nisbatan katta bo'limgan firmalar bo'lganligi uchun yosh kompaniyalarga yirik raqobatchilar bilan raqobat qilishiga to'g'ri kelmaudi.

Qo'shma korxonalar tuzish quyidagi hollarda foydali samara berishi mumkin.

Qo'shma korxona - bu yakka tartibda biror bir narsani qilish xavfli yoki tejamsiz ekanligida yaxshi usuldir.

Qo'shma korxonalar resurslarni birlashtirish yanada kuchliroq raqobat ustunliklariga ega bo'lgan tarkibni yaratadigan takdirda qulaydir.

Xorijiy hamkorlar bilan qo'shma korxonalar ba'zida imrort kvotalarini, tariflarni milliy-siyosiy manfaatlar va madaniu tusiqlarni engib utishning yagona imkoniyati bo'lib hisoblanadi.

### **7.3. Turdosh tarmoqlarga diversiyalash strategiyasi.**

Diversiyalash variantlarini izlash jarayonida kompaniya turdosh tarmoqlarni tanlashi mumkin. Bunday paytda tarmoqqa diversiyalash strategik muvofiklikdan kelib chiqib amalga oshiriladi. Strategik muvofiklik turli firmalar uxhash ishlab chiqarishga ega bo'lgan taqdirda mavjud bo'ladi. Bu esa quyidagilar uchun imkoniyat yaratadi:

- a) mahorat va tajribani bir korxonadan boshqa korxonaga utkazish;

b) ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish maqsadida turlicha bo'lgan ishlab chiqarishni yagona tizimga birlashtirish.

Strategik muvofiklikka asoslangan aloqalar ishlab chiqarish sohasida, personal mahoratiga bo'lgan talablarda, mineral resurslar va ta'minotchilarning manbalarining yagonaligida, dqulayallar va komponentlarni birgalikda ishlab chiqarish uchun saloxiyatda, uxhash ishlab chiqarish usullari va boshqaruv nou-xaularida, marketing va mahsulot sotishda bir xil yondoshuvlarni kullahshda, bir xil ulgurji xaridorlar va chaqana dilerlarda, sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish saloxiyatida, shuningdek umumiy savdo markasidan foydalanishdan olingan sinergitik samarada namoyon bo'ladi.

Turdosh tarmoqlarga diversiyalash haqiqatda jozibali kurinadi. U mavjud ishbor faollik darajasini saqlab kolish, mahorat va tajribani urgatish hisobiga raqobat ustunligidan foydalanish, shuningdek investitsiyalash xavfini turdosh tarmoqlardagi firmalar bilan bo'lishish imkoniyatini beradi.

Kachonki ikkita korxonaga rahbarlik qilish, ularning aloxida faoliyat ko'rsatishiga nisbatan arzonga tushsa, shundagina turdosh diversiyalashda faoliyat mikyoslaridagi tejamkorlik mavjud bo'ladi.

Turdosh tarmoqlar o'rtaсидаги strategik muvofiklik quyidagilar hisobiga raqobat ustunligi uchun saloxiyatni vujudga keltiradi:

- a) ancha past ishlab chiqarish xarajatlari.
- B) bir tarmoqdan ikkinchisiga asosiy malaka va tajriba, texnologik xususiyatlar, boshqaruv nau-xaularni samarali o'zatish.

v) umumiy tovar markasidan foydalanish imkoniyatlari.

Biznesning yakin sohalaridagi strategik muvofiqlik hisobiga vaziyatilgan raqobat ustunligi individual ishlab chiqarishga qaraganda qo'shimcha salohiyat beradi.

Raqobat ustunligining qo'shimcha manbasi aktsiyalar daromadliligi bo'yicha  $2+2=5$  samarasini olish imkonini beradi.

Turdosh tarmoqlarga diversiyalashning eng tarqalgan yo'llari quyidagilar:

Sotish imkoniyatlari va reklama faoliyatidan birligida foydalanishi mumkin bo'lgan tarmoqlarga kirish.

Turdosh texnologiyalardan foydalanish.

Nou-xau va tajribalarni bir faoliyat turidan boshqa faoliyat turlariga utkazish.

Yangi mahsulotga firmaning nomi va iste'molchilarning ishonchini utkazish.

Faoliyatning asosiy turini kuvvatlash uchun yangi tarmoqlarda harid qilish.

#### **Noturdosh tarmoqlarga diversiyalash strategiyasi.**

Diversiyalash haqidagi qaror daromadli kompaniyalarni izlash va sotib olish natijasi hisoblanadi. Noturdosh diversiyalashning asosiy qoidasi shuki, unda manfaatli moliyaviy shartlarda sotib olinishi mumkin bo'lgan va foyda olish uchun yaxshi istikbolga ega bo'lgan har qanday kompaniya diversiyalash uchun manfaatli yo'nalish bo'ladi. Ba'zida, noturdosh diversiyani amalga oshirayotgan kompaniyalar o'zining aloxida mavkei hisobiga tez moliyaviy foyda olish uchun imkoniyatlarni taklif qiladigan kompaniyalarni izlab topishga o'z kuchlarini yunaltiradilar. Bunday korxonalarning uchta turi mavjud bo'ladi.

1) Narxi pasaytirilgan kompaniya. Bunday holda mazkur korxonalarni bozor narxlardan pastroq narxlarda sotib olish imkoniyati mavjud. Bu yesa keyinchalik kompaniyani nisbatan yo'qori narxda sotish imkonini beradi.

2) Moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan kompaniyalar. Bunday firmalar shartnomaviy narxlarda sotib olinishlari mumkin.

3) O'sish imkoniyatlari katta bo'lib, investitsiya imkoniyatlari bo'lmagan kompaniyalar.

Noturdosh tarmoqlarga diversiyalash quyidagi nuqtai nazardan juda jozibalidir:

1. Tijorat tavakkalchiligi sanoatning ko'pgina har turli tarmoqlari bo'yicha «sochilgan» bo'lib, bu kompaniyani biron-bir sohasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar izmida bo'lish darajasini pasaytiradi.

2. Kompanianing moliyaviy resurslari rentabellik nuqtai nazaridan jozibali istiqbollari bo'lgan tarmoqlarga investitsiya qilinishi mumkin.

3. Kompanianing ichki foyda normasi umuman sezilarli darajada barqarorlashadi, chunki bir tarmoqdagi qiyinchilik davrlari boshqasi hisobiga qisman komrensatsiya qilinishi mumkin.

4. Korporativ rahbariyat yetarli baholanmagan kompaniyalarning haqiqiy qiymatini aniqlash tajribasini orttirib borgan sari, korporatsiyaning moliyaviy ahvoli yaxshilanib, aktsiyalarning daromadliligi oshib boradi.

#### **7.4. Qisqartirish va tugatish strategiyasi.**

Korporatsiya faoliyatining aniq yo'nalishi o'z jozibasini yo'qotib qo'ysa, bunday ahvoldan omadli chiqish yo'li biznesni sotish hisoblanadi. Mahsulotni sotish vaqtini va zaruratini aniqlashning muhim tamoyili «Agar biz mazkur faoliyat bilan shug'ullanmaganizda, hozir shu sohada ish boshlarmidik?» degan savolga javob berish hisoblanadi. Agar javob salbiy bo'lsa, bunday korxonani sotish imkoniyatlarini hisoblab chiqish zarur.

Bunday korxonadan qutilishning ikkita yo'li bor:

1. «Bosh» kompaniya aktsiyalarini bir qismini saqlab qolgan holda yoki ulardan butunlau qutilib, bunday biznesdan chiqib ketishi mumkin.

2. Korporatsiya mahsulotni bevosita tashqariga sotishi mumkin, lekin bu holda xaridor topish kerak bo'ladi. Odatda sotishda «Mazkur biznesni biz kimga sotishimiz va buning uchun biz qancha olishimiz mumkin?» degan nuqtai nazardan

qaramaslik kerak. Aksincha, «Kim uchun bu korxona muvaffaqiyatli xarid bo'lishi va qanday vaziyatda ular uchun ma'qul bo'lishi mumkin?» deb suralsa oqilona ish bo'ladi. Qaysi tashkilot uchun bunday korxonani sotib olish shubhasiz foydali bo'lsa, shu tashkilot eng yo'qori bahoda sotib olishi mumkin.

Barcha mavjud strategik muqobil variantlar ichida tugatish ayniqsa yagona biznes bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun eng noxush va ayanchli hisoblanadi. Chunki ular uchun bunday vaziyat tirikchilik utkazishni butunlay tuxtatishni bildiradi. Shunga qaramay ilojsiz qolgan sharoitda erta tugatish, bankrot bo'lishga qaraganda aktsiyadorlar manfaatiga mos keladi.

#### **Qayta tarkiblashtirish strategiyasi.**

Portfeli tiklash tejamkorlik va qayta tarkiblash strategiyasi xaridorlari qashshoqlashayotgan korxonalarda vaziyatni o'zgartirish talab etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Tiklashning korporativ strategiyasi zararga ishlayotgan korxonalardan qutulishga emas, ularni qayta tiklashga urg'u beradi. Bunday strategiyaning maqsadi xaridorlarning umumiyligi sonini kamayishiga «katta hissa» qo'shayotgan korxonalarning muammolarini hal etish yo'li bilan korporatsiyani sog'lomlashtirishdan iborat.

Tejamkorlikning korporativ strategiyasi diversiyalash miqyoslarini qisqartirish va korxonalar sonini kamaytirishga o'z e'tiborini qaratadi.

Portfeli qayta tarkiblash strategiyasi tarkibni va korporatsiyaning ishbor portfelida foiz nisbatlarini tubdan qayta kurib chiqishni o'z ichiga oladi. Qayta tarkiblashga bo'lgan ehtiyoj quyidagi vaziyatlarda paydo bo'lishi mumkin:

1. Korporatsiyani strategik tahlil qilish portfelda sekin rivojlanayotgan, zarar bilan ishlayotgan va zaif korxonalarning katta hajmda mavjudligi natijasida kompaniyaning uzoq muddatdagi istiqbollari o'z jozibasini yo'qotib qo'yganligi to'g'risida xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

2. Bir yoki bir nechta kalit yo'nalishlar qiyin paytlarni

boshdan kechirayotgan paytlarida.

3. Kompaniyaning yangi rahbariyati korporatsiyaning strategik siyosatini qayta kurib chiqish haqida karor qabo'l qiladi.

4. Yangi texnologiyalar va mahsulotlar paydo bo'ladi.

5. Firmada shunday katta korxonani sotib olish imkoniyati paydo bo'ladiki, bunday loyixani moliyalash uchun kichik firmalarni sotish zarur bo'ladi.

6. Portfeldagi ko'pgina yo'nalishlar borgan sari jozibasizroq bo'lib boradi va ularni jiddiy ravishda qayta kurib chiqish talab etiladi.

#### **Ko'pmillatli diversiyalash strategiyasi.**

Diversiyalashning ko'pmillatli strategiyasini farqlantirib turuvchi belgisi portfelda korxonalar sonining va qamrab olingan milliy bozorlar sonining ko'pligi hisoblanadi. Bunday hollarda korporatsiya rahbariyati har birtarmoqqa bo'lmaganda bittadan turli strategik yondoshuvlarni rivojlanтирib va qo'llab borishi kerak. Menejerlar turli tarmoqlarga tegishli va turli mamlakatlarda joylashgan firmalarning strategik tadbirlarini muvofiqlashtirish uchun muvaffaqiyatli yechimlar topishni bilishlari lozim. Strategik muvofiqlashtirishning maqsadi faoliyatining har bir sohasida va har bir milliy bozorda barqaror raqobat ustunligini ta'minlash uchun resurslar va muvofiqlashtirish imkoniyatlaridan to'liq foydalinish hisoblanadi.

60-yillardning boshlanishida TNK turli mamlakatlarda butunlay mustaqil bo'lgan kichik korxonalar qatori sifatida mavjud bo'lgan. Ularning har biridan o'z milliy qonunchiliklarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq kelish talab etilgan.

70-yillardan boshlab ko'pmillatli strategiya o'z samarasini yo'qota boshladi.

80-yillardan boshlab raqobat ustunligining boshqa manba'i

vujudga kela boshladi: bir yo'la bir nechta tarmoqlarda kuchli raqobat pozitsiyalarini egallash uchun bog'liq tarmoqlarni diversiyalashning strategik manfaatlardan foydalanish.

**Nazorat uchun savollari:**

1. Korporatsiyaning o'sishi va rivojlanishiga qanday tashqi omillar ta'sir etadi?
2. Yangi tarmoqlarga kirish strategiyasi qanday amalga oshiriladi ?
3. Turdosh tarmoqlarga diversifikatsiyalash strategiyasi. Noturdosh tarmoqlarga diversifikatsiyalash strategiyasi.
4. Qisqartirish va tugatish strategiyasini tushuntirib bering?
5. Qayta tarkiblashtirish strategiyasi qachon qo'llaniladi ?
6. Ko'pmillatli diversifikatsiyalash strategiyasisamarasi nimada ?
7. Kompaniyaning amaldagi strategiyasini baholash uchun qanday savollar qo'yiladi ?

## **8-MAVZU. DIVERSIFIKATSIYALANGAN KOMPANIYANING STRATEGIK TAHLILI**

**REJA:**

- 1. Kompaniyaning joriy strategiyasini belgilash.**
- 2. Matritsali tahlil yordamida diversiyalangan portfeli baholash.**
- 3. O'rta korxonalar yevolyutsiyasining matritsasi.**

**Tayanch so'z va iboralar:** matritsa, yevolyutsiya, diversifikatsiyalangan, korporativ, kirish va chiqish strategiyasi, ko'p tarmoqli kompaniya.

### **8.1. Kompaniyaning joriy strategiyasini belgilash.**

Diversiyalangan kompaniyaning strategik tahlili tashkilotning mavjud strategiyasini va uning ishbor faolligini baholashdan boshlanadi. Divertsiyalangan kompaniyaning korporativ strategiyasi istiqbollari to'g'risida qo'yidagi ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish mumkin:

Firmaning diversiyalanganlik darajasi qanday?

Firma portfeli bog'langan yoki bog'lanmagan diversiyalash asosida shakllantirilganmi yoki bu ikki turni uyg'unlashtirish asosidami?

Kompaniya operatsiyalarni asosan mamlakat ichida olib boradimi yoki ular ko'pmillatli yoki global xarakterga egami?

Asosiy xo'jalik birliklarini rivojlantirish yoki mavjud pozitsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan choralar kandau xarakterga ega?

Portfeli kengaytirishga va yangi tarmoqlarni egallahsha doir qadamlar quyilmoqdami?

Zararga ishlayotgan yoki jozibasiz xo'jalik birliklaridan qutulish uchun harakatlar qilinmoqdami?

Korporativ boshqaruv strategik o'zaro bog'liklardan

vujudga kela boshladi: bir yo'la bir nechta tarmoqlarda kuchli raqobat pozitsiyalarini egallash uchun bog'liq tarmoqlarni diversiyalashning strategik manfaatlaridan foydalanish.

#### **Nazorat uchun savollari:**

1. Korporatsiyaning o'sishi va rivojlanishiga qanday tashqi omillar ta'sir etadi?
2. Yangi tarmoqlarga kirish strategiyasi qanday amalga oshiriladi?
3. Turdosh tarmoqlarga diversifikatsiyalash strategiyasi. Noturdosh tarmoqlarga diversifikatsiyalash strategiyasi.
4. Qisqartirish va tugatish strategiyasini tushuntirib bering?
5. Qayta tarkiblashtirish strategiyasi qachon qo'llaniladi?
6. Ko'pmillatli diversifikatsiyalash strategiyasisamarasi nimada?
7. Kompaniyaning amaldagi strategiyasini baholash uchun qanday savollar qo'yiladi?

#### **8-MAVZU. DIVERSIFIKATSIALANGAN KOMPANIYANING STRATEGIK TAHLILI**

##### **REJA:**

- 1. Kompaniyaning joriy strategiyasini belgilash.**
- 2. Matritsali tahlil yordamida diversiyalangan portfeli baholash.**
- 3. O'rta korxonalar yevolyutsiyasining matritsasi.**

**Tayanch so'z va iboralar:** matritsa, yevolyutsiya, diversifikatsyalangan, korporativ, kirish va chiqish strategiyasi, ko'p tarmoqli kompaniya.

##### **8.1. Kompaniyaning joriy strategiyasini belgilash.**

Diversiyalangan kompaniyaning strategik tahlili tashkilotning mavjud strategiyasini va uning ishbor faolligini baholashdan boshlanadi. Divertsiyalangan kompaniyaning korporativ strategiyasi istiqbollari to'g'risida qo'yidagi ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish mumkin:

Firmaning diversiyalanganlik darajasi qanday?

Firma portfeli bog'langan yoki bog'lanmagan diversiyalash asosida shakllantirilganmi yoki bu ikki turni uyg'unlashtirish asosidami?

Kompaniya operatsiyalarni asosan mamlakat ichida olib boradimi yoki ular ko'pmillatli yoki global xarakterga egami?

Asosiy xo'jalik birliklarini rivojlantirish yoki mavjud pozitsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan choralar kanda xarakterga ega?

Portfeli kengaytirishga va yangi tarmoqlarni egallahga doir qadamlar quyilmoqdami?

Zararga ishlayotgan yoki jozibasiz xo'jalik birliklaridan qutulish uchun harakatlar qilinmoqdami?

Korporativ boshqaruvi strategik o'z'aro bog'liklardan

manfaat olishga qaratilgan kandau harakatlarni amalga oshirmokda va raqobat ustunligini vujudga keltirish uchun diversiyalashdan qanday foydalanimoqda?

Har bir xo'jalik birliklariga quyilgan kapital mablag'lar qanday nisbatga ega?

Joriy korporativ strategiyani belgilash uni ob'ektiv tahlil qilish va keyinchalik unga aniqliklar kiritish, hamda rahbariyat fikriga maqbul bo'lgan uzgartirishlar kiritish uchun asos yaratadi.

## **8.2. Matritsali tahlil yordamida diversiyalangan portfeli baholash.**

Diversiyalangan kompaniya faoliyati turlari sifatini baholashning eng keng tarqalgan usullaridan biri uning xo'jalik portfeli matritsali tahlil kilish hisoblanadi. Xo'jalik portfeli matritsasi diversiyalangan kompaniyani har bir tarkibiy birligining strategik pozitsiyalari taqqoslangan jadval kurinishida bo'ladi. Matritsa, strategic tahlil pozitsiyalarni tavsiflovchi har kandau ikkita kursatkich asosida tuzilishi mumkin. Eng ahamiyatli kursatkichlar bo'lib, tarmoqning usish sur'atlari, biror ulushi, tarmoqning uzoq muddatli jozibaliligi, raqobatbardoshlik va u yoki bu mahsulot va bozorning rivojlanish bosqichi kabilar hisoblanadilar. Odatda matritsaning bir chizig'i tarmoqning jozibalilagini ko'rsatsa, boshqasi undagi aniq faoliyat turlarining ahvolini ko'rsatadi. Xo'jalik portfeli matritsalarining quyidagi xillari eng ko'p qo'llaniladi:

- «o'sish - ulush» matritsasi;
- «tarmoqning jozibaliligi raqobatdagi ahvoli» matritsasi;
- tarmoqning hayotiy sikli matritsasi;
- Mak Kinsey matritsasi.

Eng keng qo'llaniladigan birinchi matritsa - ishbor faollik portfeli matritsasi to'rtta kvadrantdan iborat bo'lib, yetakchi konsalting kompaniyasi «Boston Konsalting Group» (BKG 12-

rasm) tomonidan ishlab chiqilgan. O'q chiziqlarda tarmoqning usish sur'atlari va bozorning nisbiy ulushi qayd qilinadi. Har bir xo'jalik qismi doira shaklida ifodalangan bo'lib, uning hajmi korporatsiyaning barcha turdag'i faoliyatidan olingan umumiy foydasida mazkur qism foydasining ulushi bilan belgilanadi. Mazkur xo'jalik birligi bozor ulushini dollarda emas, nisbiy birlikda ifodalangan va asosiy raqobatchining nazoratidagi bozor ulushiga bo'lgan nisbati bozorning nisbiy ulushi hisoblanadi. Masalan, agar «A» biznes bozorning umumiy hajmini 15 % ni egallagan bo'lsa, yirik biznes «V» ning ulushi 30 % bo'lsa unda «A» biznesning bozordagi nisbiy ulushi 0,5 foizni tashkil etadi. Agar, «A» biznes bozorda eng katta - 40 % ulushga ega bo'lib, asosiy raqobatchi 30 % ulushga ega bo'lsa, unda «V» biznes uchun bozorning nisbiy ulushi 1,33 ga teng bo'ladi. Shunday qilib, faqatgina mos sohalarda bozor ulushi bo'yicha ilg'or bo'lgan tarmoqlarda bozorning nisbiy ulushi 10 dan yo'qori bo'ladi va aksincha ulardan ustun hisoblangan bitta yoki bir nechta raqobatchilarga bo'lgan qismlarda 1,0 dan past bo'ladi.

So'rov belgilari yoki «murakkab bolalar» matritsaning yo'qoridaung katagiga tushgan kompaniyalarni BKG «surov belgilari» yoki murakkab bolalar deb ataudi. Yo'qori usish sur'atlari ularni tarmoq nuqtai nazaridan jozibali qiladi. Lekin, bozorning nisbiy ulushini pastligi bu tarmoqlar faoliyat olib borayotgan raqiblar bilan muvaffaqiyatlari raqobat qila oladilarmi degan savolni quyadi. «Surov belgilari» yoki «murakkab bolalar» ning qismati shunday.

Yulduzlar. Tez usayotgan tarmoqlardagi yo'qori nisbiy bozor ulushiga ega bo'lgan kompaniyalar jadvalida yulduzlar deb nomlangan. Chunki ular eng ko'p foyda olish va usish istiqboliga ega bo'ladir.

Sog'in sigirlar. Sekin usayotgan tarmoqlarda yo'qori nisbiy bozor ulushiga ega bo'lgan kompaniyalar BKG jadvalida sog'in sigirlar deb atalgan.

Itlar. Sekin usayotgan tarmoqlardagi past nisbiy bozor ulushiga ega bo'lgan kompaniyalar. Bularning usish istiqbollari zaif bo'lib, bozorda qoloq pozitsiyalarni egallaudilar. Tajriba yegri chizig'ida ilg'orlardan keyinda turishlari ular oladigan foydaning hajmini cheklaudi.

«O'sish - ulush» matritsasining asosiy ustunligi shundan iboratki, u naqd pullarning harakati va har bir biznesning investitsion ta'siridagi diqqatini qaratadi. Korporatsianing moliyaviy resurslarini xo'jalik birliklari o'rtasidagi qanday qilib oqilona taqsimlash mumkin degan savolga javob beradi.

«Jozibalik - pozitsiya» matritsasida har bir xo'jalik birligining ahvoli tarmoqning uzoq muddatli jozibaligini kuchini qismining raqobatdagi pozitsiyasini son jihatdan baholash asosida aniqlanadi. Tarmoqning jozibaligi - raqobatdagi pozitsiya matritsasi «usish- ulush» matritsasiga qaraganda ancha kuchli kontsertyal asosga egadir.

Hayotiy sikl matritsasi diversiyalangan kompanianing turli xo'jalik birliklarini tarmoqning hayotiy sikli bosqichlari bo'yicha taqsimlanishini ko'rsatadi.

Ushbu matritsса «Menejment asoslari» kursida batafsил ko'rib chiqilgan. Undan foydalanimishdan asosiy maqsad menejerga firma portfelidagi o'rta korxonalar o'rtasidagi moliyaviy oqimlarga bo'lgan talablarni aniqlashda yordam berishdir. BKG yondashuv uchta asosiy bosqichdan iborat:

- firma faoliyat sohasini o'rta korxonalarga bo'lish va ularning uzoq muddatli istiqbollarini baholash;

- o'rta korxonalarlarni matritsa yordamida o'z'aro taqqoslash;

- har bir o'rta korxonalarga nisbatan strategik maqsadlarni ishlab chiqish.

BKGning asosiy tavsiyaları:

1. «Sog'in sigirlar»dan tushgan daromadlarning ortiqcha qismi tanlangan «yovvoyi mushuklar»ni rivojlantirish va rivojlanayotgan «yulduz»larni tarbiyalashga sarflanishi kerak.

Uzoq muddatli maqsadlar «yulduzlar»ning pozitsiyalarini mustahkamlash va «yovvoyi mushuklarni» «yulduzlar»ga aylantirishdan iborat bo'lib, bu kompaniya portfeling jalb qiluvchanligini yanada kuchaytiradi.

2. Uzoq muddatli istiqbollari zaif yoki mavhum bo'lgan «yovvoyi mushuklar»ni shunday yechintirish kerakki, kompaniyadagi moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning kamayishiga vaziyatish lozim.

3. Tarmoqdagi o'rta korxonalar «kuchuk»larga aylanib qolganda kompaniya «xosilni yig'ib olish», «echintirish» yoki tugatish yordamida sohani tark etishi kerak.

4. Agar kompaniyaga «sog'in sigirlar», «yulduzlar» yoki «yovvoyi mushuklar» etishmayotgan bo'lsa, u holda portfeli muvozanatlash uchun yon bosib, «echintirish» kerak bo'ladi. Portfelda kompanianing sog'lom usishini ta'minlash uchun yetarli miqdorda «yulduzlar» va «yovvoyi mushuklar» bo'lishi hamda ularni investitsiyalar bilan ta'minlash uchun «sog'in sigirlar» mavjud bo'lishi kerak.

BKG matritsasining asosiy afzalligi turli o'rta korxonalar uchun moliyaviy mablag'larni oqimlariga qaratilishi va ushbu oqimlardan korporatsiya portfelinı optimallashtirish uchun foydalanimishdir. Ammo BKG matritsasida bir qator kamchiliklar ham bor. Bu ikki ulchamli soddalashtirilgan model bo'lib, bir qator muhim omillarni hisobga olmaydi. Bozorning kichik qismini egallagan biznes ham juda katta daromad keltirishi va kuchli raqobatli pozitsiyani egallashi mumkin. Xuddi shuningdek, o'rta korxonalarining jalb qiluvchanligini belgilovchi yagona omil emas.

**MakKinsey matritsasi** Ushbu matritsса ham, BKG matritsasi kabi, ikki ulchamlidir, biroq ushbu uzgaruvchilar ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi.

O'rta korxonalarining jalb qiluvchanligi quyidagi to'rt bosqichda baholanadi:

- menejerlar o'rta korxonalarining jalb qiluvchanlik

mezonlarini aniqlashi orqali;

- alohida omillarning nisbiy ahamiyatlarini aniqlab;
- menejerlar ayrim tarmoqlarning jalb qiluvchanligini korporatsiya portfeliga qayd qilishi orqali;
- har bir o'rta korxonalar uchun umumiy baholarni belgilash orqali.

Firmaning raqobatchilik mavqeい ham shunga uxshash tarzda baholanadi:

- strategik menejer kompaniya raqobatlashayotgan har bir sohadagi muvaffaqiyat omillarini aniqlaydi;

- muvaffaqiyatning har bir hal qiluvchi omiliga uning uziga tegishli bo'lgan va raqobatli pozitsiyadagi nisbiy ahamiyatiga bog'liq bo'lgan mavqe belgilanadi;

- sungra muvaffaqiyat omilining tarmoq uchun nisbiy ahamiyatiga mos holda har bir o'rta korxonalardagi raqobat kuchining darajasi aniqlanadi;

O'rta korxonalarlar BKG matritsasiga uxshagan Mak Kinsey matritsasi yordamida taqqoslanadi.

Mak Kinsey matritsasi to'qqizta katakka bo'lingan. Ularning uchtasida o'rta korxonalar «g'olib» hisoblanadi yoki biznesning eng qulay sohasi sanaladi. Uchta katak yesa yutqazuvchi hisoblanib, ular biznes uchun eng noqulay bo'ladi.

Bitta katak «so'roq belgisi» deb belgilangan (BKG matritsasidagi «yovvoyi mushuk» kabi). Bu biznesdagи mavhum, biroq istiqbolli holatdir. Ushbu o'rta korxonalar qo'llab-quvvatlansa, «g'oliblar»ga aylanadi, biroq ularning «yutqazuvchilarga» aylanib qolish xavfi ham bor. Katakchalardan biri «daromad ishlab chiqaruvchi» deb ataladi (BKG matritsasidagi «sog'in sigir» kabi).

Tarmoqning jalb qiluvchanligi	Raqobatli pozitsiya		
	Yaxshi	O'rta	Zaif
Yo'qori	G'olib	G'olib	Suroq belgisi
O'rta	G'olib	O'rta biznes	Yutqazuvchi
Quyi	Daromad ishlab chiqaruvchi	Yutqazuvchi	Yutqazuvchi

Mak Kinsey matritsasi asosidagi tahlildan quyidagi strategik xulosalar kelib chiqadi:

- «yutqazuvchilar» tugatilishi yoki ularda hosil yig'ib olinishi lozim;

- «g'oliblar»ning va rivojlanayotgan «g'oliblar»ning pozitsiyalari mustahkamlanishi (shu jumladan, kerak bo'lsa moliyaviy investitsiyalar bilan ham) kerak;

- «daromad ishlab chiqaruvchilar»ning kuchli raqobatli pozitsiyalarini hisobga olgan holda, ulardan daromadlarni «g'oliblarga» yoki tanlab olingen «suroq belgilariga» qayta investitsiyalashda foydalanish lozim;

- «o'rta biznes»ni «g'oliblar»ga aylantirishga yoki agar kelgusida istiqbolli bo'lmasa, «hosilni yig'ib olish»ga urinib kurish kerak.

O'rta korxonalarning muvozanatlashgan portfelida asosan «g'oliblar» va rivojlanayotgan «g'oliblar», bir nechta «daromad ishlab chiqaruvchilar» va «g'oliblar»ga aylana oladigan, birozgina kichik «suroq belgilar» bo'lishi kerak.

Biroq, ko'pincha kompaniyalarning portfellari muvozanatlashmagan bo'ladi. Bunday muvozanatlashmaganlikning turli kurnishlari 8.1-jadvalda ko'rsatilgan.

Mak Kinsey matritsasining katta afzalliklaridan biri uning moslashuvchanligidir. Ushbu yondashuv turli tarmoqlarning raqobatli muvaffaqiyatning turli omillari bilan xarakterlanishini hisobga oladi. Ayni paytda unda BKG yondashuvlaridagiga

qaraganda ko'proq strategik muhim uzgaruvchilar hisobga olinadi.

### Kompaniyalar portfelini muvozanatlashmaganlik turlari 8.1-jadval

Asosiy muammolar	Umumiy belgilar	Umumiy tuzatishlar
«Yutqazuvchilar» haddan tashqari ko'p	Moliyaviy oqimlarning mos emasligi. Daromadning mos emasligi O'sishning mos emasligi	«Echintirish» (tugatish) «Yutqazuvchi» o'rta korxonalarda «hosilni yig'ib olish» «Daromad ishlab chiqaruvchilar»ni sotib olish. G'oliblarni sotib olish
«Suroq belgilari» haddan tashqari ko'p	Moliyaviy oqimlarning mos emasligi. Daromadning mos emasligi.	«Echintirish» (tugatish) Tanlab olingan «suroq belgilari»da «hosilni yig'ib olish»
«Daromad ishlab chiqaruvchilar» haddan tashqari ko'p	O'sishning mos emasligi Ortiqcha moliyaviy oqimlar	«G'oliblar» ni sotib olish Tanlab olingan «suroq belgilari»ni ustirish va rivojlantirish
«G'oliblar» haddan tashqari ko'p	Mablag'larning ortiqcha talab qilinishi Boshqarishda ortiqcha urinishlar o'sish va daromadning barqaror emasligi	Tanlab olingan «Rivojlanayotgan g'oliblar»ni «echintirish» «Daromad ishlab chiqaruvchilar»ni sotib olish

Ammo ushbu yondashuv har tomonlama mukammal emas. Asosiy qiyinchiliklardan biri shuki, u bir qator muhim

strategik yechimlarni beradi, biroq ularning qaysi biri afzal yekanligini kursatib bermaydi. Demak, strategik menejer ushbu tahviliga sub'ektiv fikrlarni qo'shimcha qilishi kerak. Firmaning bozordagi holatini aks qulaytirishning barqarorligi ham yana bir muammodir.

### 8.3. O'rta korxonalar evolyutsiyasining matritsasi.

Bunday matritsaning ustunligi firma o'rta korxonalarining hayot tsiklining turli bosqichlari byulab taqsimlanishidir. Masalan, yo'qori salohiyatlari «suroq belgisi» shaklidagi o'rta korxonalar va «rivojlanayotgan g'oliblar»ni kelgusida «ustivor g'oliblar» va «daromad ishlab chiqaruvchi»larga aylanishi uchun qo'llab-quvvatlash lozim. Potentsial «yutqazayotgan» o'rta korxonalarini imkon qadar tezroq «echintirish» kerak. Yetuklik va pasayish bosqichlaridagi o'rta korxonalardagi biznesni shunday boshqarish kerakki, ularning raqobat kuchidan foydalanish imkoniyati yaratilishi lozim. Ushbu o'rta korxonalarining har qanday ortiqcha pul mablag'lari «rivojlanayotgan g'oliblar»ni va usishning sekinlashish bosqichini boshidan kechipayotgan o'rta korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi lozim.

Ushbu matritsa ham, Mak Kinsey matritsasi kabi, menejerlarga o'rta korxonalar portfelining muvozanatlashganlik darajasini baholashga imkon beradi. Muvozanatlashgan portfelda «ustivor g'oliblar» va «daromad ishlab chiqaruvchilar», bir nechta «rivojlanayotgan g'oliblar» va yo'qori potentsiali «suroq belgili» bo'lishi lozim. Ayni paytda ushbu matritsa o'rta korxonalar portfelining dinamikasini baholashga imkon beradi. Ikkinchi tomondan, ushbu matritsa Mak Kinsey matritsasiga qo'shimchadir, chunki u ko'pgina muhim omillarni aks qulaytirmaudi.

Bunday texnologiyaning ustunliklari quyidagilardan iborat:

- menejerlar uchun diversifikatsiya oqibatlarini tahlil qilish imkoniyati;

- alohida o'rta korxonalar o'rtasidagi kerakli pul oqimlarining aks qulaytirilishi, firmaning oliy rahbariyati uchun resurslarni tug'ri taqsimlash imkoniyati;

- o'rta korxonalar portfelining muvozanat kontsertsiyasi o'rta korxonalarning hozirgi strukturasini aniqlashga va uzoq muddatli daromadlarni optimallashtirishga imkon beradi (muvozanatlashgan portfel - kompaniyaning kuchli jihatni bo'lib, muvozanatlashmagan portfel yesa uning zaifligi hisoblanadi).

Ammo o'rta korxonalar tahlilining matritsa texnologiyasi ma'lum bir «qorqon»larga olib kelishi mumkin:

- o'rta korxonalar sonining ko'pligi firma rahbariyati uchun axborotning g'oyatda ko'pligi tufayli turli muammolarni vujudga keltirishi mumkin (amalda bu o'rta korxonalar soni 40-50 taga yaqin bulganda yuz beradi);

- o'rta korxonalar va butun kompaniyaning moliyaviy ustunliklari o'rtasida ziddiyatlar vujudga kelishi mumkin;

- matritsa texnologiyasidan soddalashtirilgan holda foydalanish vertikal integratsiyadan yoki bog'liq diversifikasiyadan foydalanadigan kompaniyalar uchun muammolar vujudga kelishi mumkin (o'rta korxonalar o'rtasidagi muhim strategik munosabatlarni ham xisobga olish lozim).

#### **Nazorat uchun savollari:**

1. Kompaniyaning joriy strategiyasini belgilash qanday omillarga bog'liq ?

2. Matritsali tahlil yordamida diversifikasiyalangan portfeli baholashni tushuntiring ?

3.O'rta korxonalar yevolyutsiyasining matritsasi tahlili ?

4. Diversifikasiyalangan firmaning strategiyasini aniqlang?

5. Korporativ strategiyani ishlab chiqish qanday tashqi va

ichki omillarga bog'liq ?

6. Bozorga kirish va chiqish strategiyasi haqida tushuncha bering ?

7. Tarmoqdagi ustuvor kompaniyalarga qanday firmalar kiradi ?

8. Tor diversiyalangan kompaniya qanday bo'ladi ?

9. Keng diversiyalangan kompaniya qanday bo'ladi ?

10. Ko'ptarmoqli kompaniya qanday belgilarga ega bo'ladi ?

11. Turdosh diversiyalanish qanday bo'ladi ?

12. Noturdosh diversiyalanish qanday bo'ladi ?

## **9-MAVZU. INNOVATSION MENEJMENT ASOSLARI VA XORIJ TAJRIBASI**

### **REJA:**

- 1. Innovatsion menejment fanining predmeti va uslubi.**
- 2. Innovatsion menejmentning maqsad va vazifalari, tashkil etish va nazorati.**
- 3. Innovatsiyani klassifikatsiyasi va iinvestitsion menejmentning mohiyati.**

**Tayanch so'z va iboralar:** innovatsiya, innovatsion menejment, iinvestitsion menejment, innovatsiyani klassifikatsiyasi, yendogen uyg'unlik.

### **9.1. Innovatsion menejment fanining predmeti va uslubi.**

1. Yangiliklar kiritish innovatsion menejmentning ob'ekti sifatida. Innovatsion menejment O'zbekiston da qitadadbirkorlarga va ilmiy ommaga nisbatan yangi tushunchadir. Aynan shu vaqtida O'zbekistonda yangiliklar ko'payib ketmoqda. Iqtisodiyotni boshqarish formalari o'rniiga boshqa yangi uslublar va shakllar paydo bo'lmoqda. Bunday sharoitda mazkur faoliyat bilan davlat organlaridan tortib pastki tabaqalardagi korxonalar ham kichik biznes shaklida shug'ullanmoqlari lozim. Maxsus adabiyotlarda va rasmiy hujjatlarda ko'p hollarda iqtisodiyotning markazdan boshqarishga taalluqli bo'lgan tushunchalar, ya'ni ilmiy-texnikaviy progresslarni boshqarish, ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqarishda qo'llash kabi tushunchalar qo'llanilar yedi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat korxonalari yuridik va iqtisodiy yerkinliklarga ega, shu sababli hech qanday kiritishlar haqida (davlat tomonidan) gar bo'lishi mumkin emas. Bu rrinsir orqali innovatsion menejment oblastidagi alohida tushunchalardagi farqlarni tushunish mumkin.

Innovatsion so'zining ma'nosi ingliz tilidagi «innovatsion»

so'zidan olingan bo'lib, yangilik va yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. Bu yangilik zamirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni tushunish lozim. Yangilikni bozorga kiritish jarayonini tijoratlashish jarayoni deb atash lozim. Yangilikning paydo bo'lishi va uni hayotga tatbiq etilishi oralig'idagi vaqt innovatsion loyihasi deb ataladi. Kunlik amaliyotda, odatda, yangiliklar, yangilik kiritish, innovatsiya tushunchalarini o'xshatish ko'p uchraydi, qachonki har qanday kashfiyotlar, yangi voqealar, xizmatlar va mqlayodlar xillari tarqalishiga qabul qilinsa (tijoratlashish) ushanda xalq ommasi tomonidan tan olinadi.

Bizga ma'lumki, mahsulot sifatini yoki xizmat sifatini o'zgartirish resurslar sarflanishini (energiya, vaqt moliya va boshqalar) talab qiladi.


Yangilikni (novatsiya) kiritish jarayoniga (innovatsiya) o'tkazish jarayoni ham har xil resurslarni talab qiladi, ulardan muhimmi investitsiya va vaqt hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlar tizimiga o'xshash bozor sharoitlarida tovarning xaridi va sotuvi ramkasida shakllanadigan talab, taklif va narxlarda, asosiy innovatsion faoliyat komronenti sifatida yangilik, innovatsiya — yangilik kiritish namoyon bo'ladi. Yangiliklar bozorini shakllantiradi, investitsiyalar kapital bozorini, yangilik kiritish yesa bozordagi sof raqobatni shakllantiradi.

Investitsiya keng ma'noda yangi texnologiyalar, turli mahsulotlar va xizmatlar, tashkiliy texnik va ijtimoiy iqtisodiy qarorlar shaklida ishlatalishi tushuniladi. Yangilikning tuzilishi, yaratilishi va tarqalishi jarayoni innovatsiyaning hayotiy sikli deyliladi.

Yangiliklar bozori (novatsiyalar). Bozorning asosiy mahsuloti bo'lib, intellektual faoliyatning ilmiy va ilmiy texnikaviy-natijaviy rroducti hisoblanadi.

Unga mualliflik va shunga o'xshash huquqlar (bu huquqlar xalqaro, respublikka, korporativ va boshqa qonuniy, me'yoriy aktlar doirasida bo'ladi) taalluqlidir.

Dunyo tajribasida ilmiy (ilmiy-tadqiqot), ilmiy-texnik faoliyat va shu bilan birga tajribaviu (konstruktorlik ishlari) kashfiyotlar o'rtasida farq mavjud. Ilmiy (ilmiy-tadqiqot) faoliyat yangi bilimlarni egallash, taqsimlash va qo'llashga qaratilgandir.



### **9.1-chizma. Innovatsion faoliyat sxemasi.**

Yangiliklar bozori ilmiy tashkilotlar, vaqtinchalik ilmiy jamoalar, ilmiy xodimlarning uyushmalari, tijorat tashkilotlari, mustaqil ilmiy laboratoriyaalar va bolimlar, milliy va an'anaviy yangilik yaratuvchilarni shakllantiradi.

#### **Yangilik kiritishning sof raqobat bozori.**

Sof raqobat bozori sotuvchi va oluvchilarning shunday uyushmasiki, unda yo'qoridagilar joriy baholarga ta'sir ko'rsatmaydi. Sof raqobat tushunchasidan foydalanish bizni narxli, narxsiz, insofsiz va boshqa xil raqobatlarni ko'rib chiqishdan ozod qiladi va shu bilan birga ishlab chiqarish munosabatlari sub'ektlari orasida eng foydali sohaga kapital qo'yishni taqsimlash bozori, resurslar manbai, ilmiy va ilmiy texnikaviy faoliyatning namunalari kabi sohalarda kurashishini o'z ichiga oladi.

Oldin aytib o'tganimizdek, ilmiy va ilmiy texnikaviy faoliyati natijasi sifatida yangilik to yangilik kiritilishi va xalq ommasiga yangi tovarlarni, texnologiyalarni, xilma-xil xizmatlarni, yangi

uslublarni va boshqalarni tan olinishida bo'lgan jarayon vaqt va xarajatlar bilan bog'liq.

Sof raqobat bozori bu jarayonda ikkilamchi pozitsiyada namoyon bo'ladi, ya'ni ular o'zlarida birlik va qarama qarshi tomonlarni kurashini ifoda etadi. Tashkilotning yangiliklar bozorida har xil formada qatnashishini aniqlovchi sharti bo'lib ilmiy va ilmiy texnikaviy faoliyat sohasiga va yangilikni kiritish jarayonini qayta tashkil etish yoki o'qitishga sarflanadigan investitsiya hajmi hisoblanadi.

**Kapital bozori.** Rivojlanishni xohlamagan tashkilotni topish qiyin. Uy xo'jaligiga mebel, videojihoz, avtomobil, gilamlar sotib olish yoki yangilash kerak. Korxonaga yesa tashqi va ichki bozorlarda raqobat qila oladigan texnologiyalarni sotib olish, o'zining mahsulotini taqsimlash uchun yangi bozorlarni topish, yangi yetkazib beruvchilar va iste'molchilar topish kerak bo'ladi. Davlatga esa yangi xil qurol-yarog'lar, ekologik toza energiyalar, resurslarni iqtisod qiladigan texnologiyalar kerak bo'ladi.



### **9.2-chizma. Innovatsion sohada kapital bozori.**

Jahon uyushmalari. Mars va boshqa sayyoralarini o'zlashtirish, jahonokeaniresurslaridan qanday foydalanishning yo'llari kerak. Zamonaviy taraqqiu etgan ilmlar va texnikalar bularning hammasiga bugunoq vaziyatishga yo'l qo'yadi. Ammo yo'qorida sanab o'tilgan ehtiyojlarning hammasini asosiy cheklanishi sifatida har xil turdag'i (aylanma, aksionerli, vechurli, nizomli va boshqa) kapital namoyon bo'ladi. Kapital bozori rivojlanishining asosiy mezonlarini 9.2-chizmada ko'rsatib utilgan. Innovatsiya sohasida aniqlovchi rolni uzoq muddatli va o'rta muddatli investitsiyalar o'unaudi. Innovatsion jarayon, odatda, o'rtacha 3-5 yil va undan yo'qori muddatlarda davom etadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston davlat sanoat siyosati konsepsiyasida quyidagi sanoatdagi iinvestitsion siyosati muhim normalarini qonuniy tartibda mustahkamlash ko'rib chiqiladi:

Respublika budjqlayidan faqat fundamental ilmiy tadqiqotlar va notijorat xarakterga ega bo'lgan ob'ektlar va shu bilan birga milliy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq ob'ektlar qaytarmaslik sharti bilan moliyalashtirladi.

Boshqa xil markazlashgan investitsiyalar qaytarish sharti bilan va tanlov asosida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat resurslarini qaytarish sharti bilan berishni foydali shakllari bo'lib, qimmatli qog'ozlarni xarid qilish yo'li bilan investitsiyalash yoki chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlarga kafolatberish hisoblanadi. Investitsiyalarningumumiyo'ki'rinishi o'zida iqtisodiyotni har xil sohalariga foya olish maqsadida uzoq muddatli vositalarni qo'yishni namoyon etadi. Maxsus adabiyotlarda investitsiyaning xilma-xil klassifikatsiyalashgan variantlarini ko'rish mumkin.

Ulardan biri 9.3-chizmada ko'rsatilgan iqtisodiy mohiyat va investitsiya maqsadiga ko'pa investitsiyalar real va moliyaviy investitsilarga bo'linadi.



### **9.3-chizma. Investitsiyalarni sanoatga jalb etish sxemasi.**

Real investitsiyani tashkilotlar, korxonalar va boshqa xil yu xo'jalik sub'ektlari yer, ishlab chiqarish vositalarini sotib olish jarayonida amalga oshiradi.

Moliyaviy investitsiyalar — bu uy xo'jalik sub'ektlari va xususiy shaxslarning har xil yelementlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olishidir. Berilgan holatda biznesga kapital qimmatli qog'ozlarga vositalarni investitsiyalash orqali keladi. Innovatsion soha o'zida yangiliklar yaratuvchilar, investorlar, raqobatbardosh tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilarni namoyon etadi. Mana shu yerda innovatsion jarayon tamom bo'ladi.

### **9.2. Innovatsion menejmentning maqsad va vazifalari, tashkil etish va nazorati.**

Innovatsion menejmentning yakuniy maqsadi bo'lib, uzoq muddatli IK (investitsion kapital)ni funksiyalashtirishni ta'minlash asosida innovatsion mahsulotni yo'qori raqobatbardoshligini ta'minlash va innovatsion jarayonlarni

samarali tashkil etish yotadi. Firmada innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish mezonlari bo'lib, zamonaviy shartlarda innovatsion mahsulot realizatsiya qilishdan olingen foyda va innovatsion faoliyat xarajatlarini hisoblashga imkon beruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. IK ning foydalilik, daromadliliqi maqsad sifatida emas, innovatsion faoliyatni amalga oshirish sharti va natijasi boo'lib hisoblanadi. Menejment IKning barcha ichki va tashqi yelementlarining samaradorligini hamda bir-biri bilan bog'liqligini ta'minlaydi. Innovatsion tizimning bu holatini uyg'unlik deb atash qabul qilingan. IK faoliyatida uyg'unlikka vaziyatuv, innovatsion menejmentning asosiy maqsadli vazifasi bo'lib hisoblanadi.

IKlarga nisbatan uyg'unlik vazifasi yendogen hamda yekzogen yo'llarga ajratilgan. Yendogen uyg'unlik deganda IKning barcha ichki tizim yelementiarini, uning sub tizimlarini muvofiqlashuvi tushuniladi. Yendogen uyg'unlikni ta'minlash uchun innovatsiyalarni firma ichidagi boshqaruvi maxsus tizimi ishlab chiqilishi lozim. Unda quyidagi vazifalar xal etiladi:

- strategik innovatsion tamoyilni ishlab chiqarish;
- innovatsion loyihamalar va dasturlarni shakllantirish va faoliyatning mavzuviu yo'llarini aniqlash;
- tashkilot tizimi hamda innovatsiyalarni boshqarish tizimi ishlab chiqilishi;
- ishlab chiqarish jarayonlarini va innovatsion mahsulotlar realizatsiyasini rejalashtirish;
- kadrlarni tanlash va joylashtirish, IK potensialidan samarali foydalanishni ta'minlash;
- ishlami kalendar bo'yicha taqsimlash va ularni bajarilishini nazorat qilish;
- ijod qilish muhitini yaratish va intellektual mehnatning yo'qori motivatsiya bilan ta'minlash.

Yekzogen uyg'unlik IK ning tashqi muhit surer tizimlari bilan muvofiqligini ta'minlaydi va tashqi muhit cheklashlarini hisobga olgan holda hamda innovatsion faoliyatni maqsadli

yo'naltirilganlik maxsus faoliyati bilan amalga oshiriladi. Innovatsion menejmentda yekzogen uyg'unlik quyidagi vazifalarini ko'rib o'tadi:


- uzoq va qisqa muddatli innovatsion faoliyat maqsadlarini shakllanishi;
- marketing tadqiqotlarini tashkil etilishi va o'tkazilishi;
- atrof-muhitga ziyon yetkazmaslik ishlarini rejalashtirilish va ekologik jarayonni hisobga olinishi;
- raqobatchilarining ilg'or yutuqlarini va progressiv tajribasini baholash va ulardan foydalanish;
- innovatsion dasturlarda kooperatsiyani tashkil qilish;
- ITT ning ob'ektiv g'oyalari va xaridor talablarini hisobga olish.

IK o'z mohiyati va vaqt bo'yicha uyg'unligi strategik va orerativ shakllarga ega. Uyg'unlikning strategik shakli IKni uzoq muddat yashab qolishiga olib keladi va strategik innovatsion maqsadlar va loyihalarni shakllantirishga yo'naltirilgan strategik menejmentni ta'minlaydi. Uyg'unlikning orerativ shakli tanlangan strategiyani rivojlantirish vositasi bo'lib, u IK-dagi orerativ menejment tizimi orqali ta'minlanadi.

Innovatsion menejment funksiyalari tizimi (9.4-chizma). Innovatsion menejment mohiyati innovatsion tadbirlarni o'tkazish va tayyorgarlik ko'rish davrida amalga oshiriladigan boshqaruv jarayonlari va funksiyalari tarkibi bilan aniqlanadi. Menejment funksiyalari deganda oldin ta'kidlab o'tilganidek, innovatsiyalar ishlab chiqarilganda yechiladigan boshqaruvning umumiy vazifalari tarkibi tushuniladi. Innovatsion jarayonlarning xiima-xilligi kulami boshqarishni turlarga bo'lishni qiyinlashtiradi.

Nazariyada va amaliyotda innovatsion menejment funksiyalarining turli xil tizimlari foydalaniladi. Biz innovatsion menejmentning ikki guruh funksiyalarini to'g'ri ajratmog'imiz lozim: asosiy va ta'minlovchi menejmentning asosiy yoki predmetli funksiyasi hamma turlar uchun va innovatsiyani

ishlab chiqarishning istalgan shartlarida umumiylashtirilgan. Menejmentning asosiy funksiyalari innovatsion faoliyat boshqaruv jarayonining asosiy bosqichlarini o'zida aks qulaytiradi va barcha boshqaruv ierarxik darajalarining predmet sohalarini ajratadi.



#### **9.4-chizma. Innovatsion menejment funksiyalari tizimi.**

Samarali menejment istalgan innovatsion tizimda quyidagi asosiy predmet funksiyalarini amalga oshirishi lozim: maqsadlarni shakllantirish, rejalashtirish, tashkil etish va boshqaruvning predmet, ijtimoiy-psixologik va jarayonli sohalari bir-birini to'diradi va innovatsion menejmentning asosiy funksiyalari bir butun tizimini tashkil qiladi.

##### ***Innovatsiyalarni boshqarish jarayonining mohiyati.***

Menejmentning asosiy predmet funksiyalari innovatsiyalarni boshqarish jarayonining mohiyatini aniqlaydi va innovatsion faoliyat maqsadlarini shakllantirishni, innovatsiyalarni rejalashtirishni, innovatsiyani ishlab chiqarishdagi ishlarni tashkil etish va nazoratni o'z ichiga oladi.

***Innovatsion faoliyat maqsadlari shakllanishi.*** Berilgan chizma bo'yicha boshqaruv jarayoni aniq vaqt oralig'ida

innovatsion faoliyatni maqsad va vazifalarini shakllantirishdan boshlanadi. Innovatsion menejmentda maqsad— bu barcha ko'rsatkichlar uig'indisi sifatida olingan rejalashtirilgan davrda innovatsion tizimning talab etilgan yoki talab etilmagan (istalgan) holati.

Tashkilot yoki faoliyat maqsadlari ma'lum vaqt oralig'ida o'zining aniq yo'lga ega bo'lishi kerak. Shunday qilib, tashkilot maqsadi, bir tomonidan, jarayon baholanishi va prognozi natijasi bo'lib, ikkinchi tomonidan, rejalashtirilgan innovatsion tadbirlarga chegara bolib xizmat qiladi. Shu ikki funksiyaga amal qilish uchun innovatsiya maqsadini shakllantirish bir qancha talablarga javob berishi kerak. Ularning asosiylariga quyidagilar kiradi:

1. Innovatsiya maqsadi aniq shaklga ega bo'lishi va o'lchana olishi kerak. Ular mohiyati bo'yicha ilmiy, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy yoki siyosiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin va ular rivojlanishning ishlab chiqarish, moliya, kadr, marketing vazifalarini yechishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Lekin barcha innovatsion faoliyat maqsadlarini shakllantirish hollarida aniq ko'rinishga ega bo'lishi, innovatsiya turi tavsifiga mos kelishi va tashkilot ichki hamda tashqi yo'llarini aniqlamog'i lozim.

2. Innovatsiya maqsadlari kerakli natijalarga vaziyatish uchun aniq vaqt bo'yicha taqsimlanmog'i lozim. Maqsadlarni vaqt bo'yicha yo'li yo'llarini aniqlashtirishga, ularga vaziyatish usullariga, davrlarga taqsimlashga, tashkilot rivojlanishi to'xtovsizligini ta'minlashga imkon yaratadi.

3. Innovatsiya maqsadlariga vaziyatish mumkin bo'lishi kerak. Maqsad unga vaziyatish strategiyasini shakllantirishga va qabul qilingan rivojlanish strategiyasini realizatsiya qilish bo'yicha rejaviu tadbirlar dasturi tayyorlash uchun ishlab chiqiladi. Shuning uchun innovatsion faoliyat maqsadlari jamoada vaziyatish mumkin bo'lgan vazifalarni qo'yishi lozim.

4. Innovatsiyalarning maqsadlari xilma-xilligi bir-biri bilan

bog'liq va bir-biriga qarama-qarshi bo'lmasligi kerak. Ma'qul innovatsion tashkilot maqsadlari tizimi shakli bo'lib, uning maqsadlar daraxtini ko'rish tushuniladi.

Maqsadlarni shakllantirish jarayoni innovatsion menejmentning muhim tadbirlaridan biri hisoblanadi. U innovatsion sohadagi barcha rejaviu hisob-kitoblarning asosiy qismi va birlamchi runtki bo'lib hisoblanadi.

Innovatsiyalarni rejalshtirish. Rejalshtirish innovatsion menejment funksiyasi sifatida rivojlanish maqsadlarini aniqlgshni resurs bilann ta'minlanganlik va bozordagi talablarga innovatsion faoliyat asosiy yo'llarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Innovatsiyani rejalshtirish mohiyati shundaki, u yerda hisob-kitoblarida quyidagilar bilan ta'minlanadi:

IK maqsadlarini qismlash va ularni alohida tizim bo'limlariga yetkazish; realizatsiya qilinayotgan loyihalar hajmini aniqlash; innovatsion loyiha ishtirokchilari bo'yicha vazifalarni taqsimlash; har davrga belgilangan vazifalarni bajarishni ta'minlashni va alohida ishlarni realizatsiya qilish muddatlarini hamda ketma-ketlikka rioxqa qilishni, kerakli resurslar hajmini aniqlash.

Innovatsiyalarni rejalshtirish zaruriyati zamonaviy shartlarda tashkilot raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liq. Ular innovatsion loyiha ko'lamenti kengayishi; innovatsion jarayonlarning ko'p variantlik va ehtimollik shakllari; innovatsion sohada kooperatsiyaning kengayishi va maxsuslashganlikni o'sishi; innovatsion faoliyat natijalari yevaziga tashkilotning iqtisodiy majburiyatlari ortishi va xo'jalik mustaqillagini kengayishi bilan aniqlanadi. Innovatsion faoliyatning hamma sanab o'tilgan rivojlanish omillari innovatsiyadagi boshqaruv qarorlarini rejaviu ishlab chiqishni talab qiladi. Bu xulosa ham kichik IKlarga ham yirik IKlarga taalluqli. Innovatsion menejmentning bir butun tizimida rejalshtirish quyidagi asosiy vazifalarni hal qiladi:

- innovatsion faoliyat maqsadlarini tizimlashtirish va

ularni alohida ijro qulayuvchilarga yetkazish;

- belgilangan rivojlanish maqsadlariga vaziyatishni tadbirlar, ilmiy, texnik va ishlab chiqarish vazifasini yechishni ta'minlaydigan dasturlarni shakllantirish;

- alohida maqsadlar, tadbirlar va ijro qulayuvchilar o'rtaсидаги ваqtinchalik bog'liqlik;

- qabul qilingan innovatsion dasturlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar baholanishi;


- innovatsion loyiha bo'yicha ishlarni bajarilishini nazorat qilish.

Rejalshtirilgan vazifalarni hal qilish aniq tashkilot tizimlarini, ularni ijro qulayuvchilarni jalb qilishni va ularning kelishilgan holdagi faoliyatini tashkil qilishni talab qiladi.

**Innovatsiyalarni tashkil qilish shakllari (9.5-chizma).** Tashkil qilish mohiyati funksiyasi qabul qilingan IK rivojlanish strategiyasini realizatsiya qilish maqsadida belgilangan rejaviu vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi.

Buning uchun kerakli resurslar hajmini belgilash, masalalarini taqsimlash, ijro qulayuvchilar vaqtini belgilash, ishtirokchilar kooperatsiyasini aniqlash, nazoratni ta'minlash va boshqa ishlar qilish kerak bo'ladi.

Barcha darajadagi boshqaruvchilar faoliyatining salmoqli qismini egallagan innovatsiyalarni tashkil qilish innovatsion menejmentning asosiy funksiyalaridan hisoblanadi. Innovatsion menejmentda tashkil etish qabul qilingan rejaviu qarorlarni samarali bajarish maqsadida innovatsion jarayonning barcha yelementlarini vaqt va oraliq bo'yicha maqsadga muvofiq birligini ta'minlaydi, innovatsiyani tashkil qilishni tizimlashtirilishi va turlanishning muhim belgilari bo'lib tashkiliy qarorlarni vujudga kelish vazifalari, shakllari va usullari tushuniladi.



### 9.5-chizma. Innovatsiyani tashkil qilish shakllari.

Innovatsion menejmentda innovatsiyani tashkil qilishning turli shakllaridan foydalaniladi. Tuzilma shakli deganda, innovatsion jarayonlar yelementlarining makon va vaqtagi birlashmasi va faoliyati usullari tushuniladi. Innovatsiyalar tuzilmasi shakllari mazmun jihatidan innovatsion loyihalarni olib borishda mehnat taqsimotining turli usullaridan iborat. Innovatsiyaning bunday tashkil etish shakllariga konsentratsiya, ixtisoslashganlik, kooperatsiyalish va kombinatsiyalishlarni kiritish mumkin.

Konsentratsiya ma'lum bir yo'ldagi innovatsiyalarning toborakattaroqmiqyosdayirikfirmaIKlargajamlanishjarayonini bildiradi. Innovatsion faoliyatning konsentratsiyalishiga intilishi xuddi kichik innovatsion biznesning kengayish jarayoni kabi biznesning eng ilg'or sohalariga mablag'larni innovatsiya qilishdek tabiiy bozor omillaridan biridir.

Ixtisoslashganlik innovatsiyalarni tashkil qilish shakli sifatida IKlarni tashkiliy tuzilmalarini barro qilishda va uning innovatsion ko'rinishini chegaralash yo'llari, hamda kichik bo'limlarga ma'lum turdag'i ishlar va mahsulotlarni biriktirishda qo'llaniladi. Bunda innovatsion ko'rinish

kengligi IK ixtisoslashganligi doirasida innovatsion jarayon mustahkamligi va rivojlanish sur'atlari asosida turlicha bo'lish mumkin.

Kooperatsiyalash zamonaviy shartlar asosida tashkil etishning muhim shakli sifatida dunyo tajribasida innovatsion loyihalar o'tkazilishida tan olingan. Kooperatsiyalash (IK) ixtisoslashganligi va loyihalarni amalga oshirish qiyinchiliklari, tashkilotlararo hamkorlikni chuqurlashuvi, innovatsion sohada xalqaro koordinatsiyaning rivojlanishi, miqyosli ilmiy ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirish natijasi sifatidadir.

Kombinatsiyalish innovatsiyalarni tashkil qilishda IKlardagi allaqachon olingan natijalar yoki xomashyo, energiya va materiallardan ikkilamchi foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish va innovatsion jarayonlarni tashkil etishda va amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Qo'shimcha samarali yeffekt olish uchun firmalar bazaviu bilimlar doirasida qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazib, ularni yangi sohalarga joriy etadi.

Yo'qorida sanab o'tilgan innovatsion jarayonlar tashkil etishning shakllari tashkiliy qarorlarni tayyorlashda asosiy quroq bo'lib xizmat qiladi. Ular rasmiy hamda norasmiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

**Innovatsion menejmentda nazorat.** Nazorat menejmentning predmet funksiyasi sifatida innovatsiyadagi boshqaruva siklini yakunlaudi va bu bilan boshqa barcha funksiyalarning samaradorligini ta'minlaydi. Innovatsion menejmentda nazorat funksiyasining mohiyati shundan iboratki, u berilgan tashkiliy shartlar asosida qabul qilingan maqsadlarga vaziyatishga yo'naltirilgan belgilangan rejaviu vazifalarni bajarilishini ta'minlaydi.

#### Nazorat vazifalariga quyidagilar kiradi:

- innovatsion faoliyat va uning natijalari to'g'risidagi axborotlarni yig'ish va tizimlashtirish;
- olingan faoliyat natijalari holatini baholash;
- faoliyat natijalariga ta'sir qiluvchi omillar, chetga chiqish

sabablari tahlili;

- rivojlanish maqsadlariga vaziyatishga yo'naltirilgan qarorlarni tayyorlash va bajarish.

Tashkilotda nazoratni tashkil qilishning asosiy mazmuni bo'lib quyidagi belgilar hisoblanadi: nazorat maqsadi, predmet sohasi, ko'lami va nazorat shakli.

Strategik nazorat yo'qori menejment faoliyatining IKga mohiyati bo'lib hisoblanadi va u innovatsiya rivojlanishining hisobi, baholanishi, natijalar tahlili, ilg'or tamoyillarini amalga oshirishni ko'rib o'tadi. U strategiyani shakllantirish bosqichida ham, uni realizatsiya qilish bosqichida ham ishtirok etadi. IKning strategik nazorati hayotiy zarur bo'lgan tizimlarga yondashadi: marketing, ilmiy-texnik prognozlarga, mahsulot portfeliga. Strategik nazoratni tashkil etish va o'tkazishda sifatli baholash usullaridan, tendensiyalarni solishtirma baholashdan foydalaniлади.

Orerativ nazorat tashkilotdagi o'rta va quyi boshqaruva tizimini o'z ichiga oladi. U joriy hisobga, amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlarni tahliliga yo'naltiriladi va belgilangan rejavi vazifalarni ijro etishni o'z vazifasi deb biladi. Orerativ nazorat ob'ektlari bo'lib mavzuviu va ishlab chiqarish vazifalari, ishni olib borish muddatları, rejada ko'rsatilgan resurslar, IK faoliyati bilan bog'liq xarajatlar hisoblanadi. Orerativ nazoratni tashkil etish va o'tkazishda miqdoriu hisob va innovatsion loyihamalar holati tahlili usullaridan foydalaniлади.

IKdagi boshqaruva nazoratining barcha turlari predmet belgisi bo'yicha moliyaviy va ma'muriuga ajratiladi.

**Moliyaviy nazorat** IK ning yakuniy iqtisodiy ko'rsatkichlariga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning ob'ektlari bo'lib foya, faoliyat xarajatlari, ishlab chiqarish va sotish ko'lami, investitsiyalar va ularidan foydalanish samaradorligi va IKning hamda alohida loyihamarning moliyaviy holati (to'lovga qobiliyatligi va likvidliligi) hisoblanadi.

Dunyo tajribasida moliyaviy nazorat bir butun controlling

tizimi doriasida olib boriladi.
3. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi nima? Innovatsion faoliyatni byudjetdan moliyalashtirish haqida gapirib bering. Innovatsion bozor ni moliyaviy ta'minlashini ta'riflang.

4. Investitsion bozorning tarkibi va tuzilishini tasvirlang.

5. Korxonadagi infestitsion resurslarning manbalarini ta'riflang.

6. Venchurli moliyalashtirish innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda qanday rol o'unaudi?

7. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy tashkiliy shakllarini ta'riflab bering.

8. Xorijdagi venchurli biznesning alohida rolini ta'riflang.

9. Investitsiyalarni moliyalashtirishda innovatsion fondlar va innovations banklarning roli nimada?

10. Investitsiyalarni moliyalashtirishda taraqqiyot banklarining roli (ayniqsa Yaponiyada) qanday?

11. Firmalararo assotsiatsiyalar shakllarining qanday istiqbollari va ularni moliyalashtirish xususiyatlarini bilasizmi?

## **11-MAVZU. INNOVATSIYA FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

**REJA:**

- 1. Innovatsiya faoliyati samaradorligining ko'rsatkichlari.**
- 2. Korxona faoliyatining strategik boshqarish.**
- 3. Korxonaning innovatsion salohiyatini baholash.**

**Tayanch so'z va iboralar:** iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya, innovatsiya faoliyati, samaradorlikni baholash, strategik boshqarish, innovatsion salohiyat.

### **11.1. Innovatsiya faoliyati samaradorligining ko'rsatkichlari.**

Har qanday innovatsion faoliyatning samaradorligi tashkilotni ushbu yo'lda rivojlantirishni taqozo etadi. Innovatsion rivojlanishni boshqarish mazmunini quyidagi qoidalar bilan ifodalash mumkin:

- innovatsiyalarni oldindan ko'rish va rivojlantirish kerak;
- yangiliklarni tezlashtirish va joriy etish zarur;
- innovatsiyalarga tayyorgarlik ko'rish kerak;
- innovatsion jarayonlarni ma'lum darajada to'xtatib turish va silliqlashtirilishi mumkin;
- tashkilot innovatsion faoliyatini boshqarishning ma'lum darajasini ta'minlash lozim.

Korxonaning innovatsion rivojlanishini boshqarish tamoyillarining umumiyligi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- har qanday tashkilot rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan tamoyillarning umumiyligi;
- boshqarish ob'ektlari rivojlangan sari doimiy takomillashib boriladigan tamoyillar o'zgarishi.

Korxonaning rivojlanish qonuniyatlari menejment tamoyillari bilan belgilanadi va uning a'zolari harakati uchun motivatsiya yaratadi, shuningdek korxonaning innovatsion rivojlanish xususiyatlarini hisobga oladi.

Korxonaning innovatsion rivojlanishini boshqarish tamoyillari innovatsion faoliyat mazmunini belgilaydigan qoidalar hisoblanadi.

Tamoyillardan maqsadga muvofiq foydalanish faoliyat natijadorligi uchun zaruriu zamin yaratadi va innovatsiyalardan salbiy natijalar olish ehtimolini kamaytiradi.

Innovatsion strategiya tamoyillari korxonaning innovatsion faoliyatining asosi bo'lib, uni rivojlantirish yo'llarini belgilab beradi. Korxona innovatsion strategiyasining quyidagi tamoyillarini sanab o'tish mumkin:

- strategiyani ishlab chiqishda ilmiy va tahliliy bashorat qilish tamoyili;
- inson omilining ustunligi tamoyili;
- korxona strategiyasi va mavjud resurslarning muvofiqligi tamoyili;
- korxonaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni tahlil qilish tamoyili;
- korxonada strategik boshqaruva tizimini tashkil etish tamoyili;
- korxona strategiyasi va umumiy boshqaruva taktikasining muvofiqligi tamoyili;
- mavjud texnologiyalar nuqtai nazaridan korxona strategiyasining maqsadga muvofiqligi tamoyili.

Yo'qorida keltirilgan tamoyillar tashkilotning innovatsion strategiyasini boshqarish uchun umumiyligi talablar, qoidalar bo'lib xizmat qiladi, ularning eng muhimlari uchta guruhga birlashtirishimiz mumkin:

- 1) korxonaning innovatsion rivojlanishini boshqarish tizimini tashkil etish tamoyillari (bashoratlash, muvofiqlik, ilg'orligi, uyg'unlik tamoyili);

2) korxonada innovatsion menejment tizimining kelgusida rivojlanishiga yo'l beradigan tamoyillar (moslashuvchanlik, bog'liqlik, o'zluksizlik va boshqalar);

3) tashkilotdagi innovatsion amaliyot sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlarning mohiyatini belgilaydigan tamoyillar, shu jumladan sinergetizm, Partisipativ va antrorologik realizm tamoyillari.

Antrorologik realizm tamoyili bo'yicha shaxs ongsiz va ongli ravishda innovatsiyalarga to'sqinlik qilishi yoki yordam ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlangan.

Ilmiy isbotlangan va shoshilinch tayyorlangan innovatsiyalar haqiqatan ham ilmiy va ta'lif faoliyatining muayyan sub'ektlarining vakolatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos kelishi kerak.

Shunday qilib, tashkilotning innovatsion rivojlanishi bilan birga xodimlarning innovatsion salohiyatini takomillashtirish jarayoni amalga oshiriladi, ular innovatorlarni doimiy ravishda o'qitish va malakasini oshirishni talab qiladi.

Xardi-Veunbergning ropulyasiyalarning genqulayik barqarorligi to'g'risidagi qonunini inson ijodi qobiliyatlariga ham qo'llash mumkin. Bir million aholiga to'g'ri keladigan iqtidorli insonlar soni nisbatan o'zgarmaydi. Korxonaning innovatsion salohiyatini rivojlantirishni boshqarishni shunday tashkil etish kerakki, tashkilot ichida va tashqarisida iqtidorli shaxslarni doimiy ravishda qidirib, shuningdek ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yetarlicha e'tibor berish lozim.

Partisipativ tamoyiliga binoan innovatsion faoliyatning har bir sub'ekti mazkur faoliyatni chuqr tushunadi va ob'ektiv ma'lumotlar oladi, chunki u ushbu jarayonni rejalashtirishda ishtirok etadi. Oxir oqibat, innovatsion faoliyat natijalari juda shaxsiy bo'lib qolib odamlar innovatsiyalarni yana keyinchalik yaratish uchun yangi rag'batlar paydo bo'ladi. Mutaxassisning kasbiy rivojlanishi sodir bo'ladi, u yangi bilimlarga ega bo'ladi va shaxsiy imkoniyatlari kengayadi.

Partisipativ tamoyilini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun Florian Znaneskiyning "inson koeffisienti"ni hisobga olish lozim, u ijtimoiy-redagogik vaziyatda ishtirok qulayayotgan shaxslarning fikrlarini hisobga oladi va ular uchun ushbu vaziyatning muhim jihatini hisobga oladi. F.Znaneskiyning fikriga ko'pa, har bir kishi ko'pincha muqobil tanlovga duch keladi: yoki o'rnatilgan qoida-qonuniyatlar shaxsni rarchalaudi, yoki shaxs ularni yo'q qiladi.

Sinergetizm tamoyiliga binoan, korxona rivojlanishiga boshqaruvning ta'siri qanchalik korxonaning o'zini-o'zi rivojlantirishning ichki yo'llariga mos kelsa shunchalik u samarali hisoblanadi, o'z-o'zini saqlash qonuniga binoan xodimlar innovatsiyalarga qarshi bo'lmaydilar va sinergiyaga erishishga intiladilar. Korxonaning innovatsion rivojlanishini tashkillashtirish tahlil qilinadigan muhitda mumkin bo'lgan va bo'limgan jihatlarni bilimiga asoslangan bo'lishi zarur, chunki tashqaridan korxonaning innovatsion rivojlanish yo'llarini majburan belgilash maqsadga muvofiq emas. Rivojlanishni tashqi tomondan uzoq vaqt davomida boshqarish mumkin emas, chunki tashqi ta'sir korxonaning rivojlanishidagi ichki jarayonlarni o'rnini bosolmaydi yoki bekor qila olmaydi.

Shuningdek, rivojlanishning turli modellarini amalga oshirish uchun harakatlar yerkinligini ta'minlash lozim. Boshqarishda kutilayotgan

- o'zgarishlarning (ularning sur'ati, yo'li, tabiat) korxona tizimining ichki tarkibiy qismlarini bilan bog'liqligini, uning innovatsion salohiyati

- mavjudligini, kiritilgan o'zgarishlarda barcha qismlar ishtirokini hisobga olish kerak.

Innovatsion rivojlanish yo'lini tanlagan korxonalar raqobatbardosh bo'lib, bozorda yetakchi kompaniyalarga aylanadilar. Sifatli va o'z vaqtida yaratilgan innovatsiyalarga asoslangan raqobat korxonalarining faoliyat davomiuligining muhim sharti sanaladi hamda yangi ilmiy natijalarni

rivojlantirish va tijoratlashtirishda hal qiluvchi omil bo'ladi.

Shunday qilib, bir tomondan, raqobat muhitida korxonalar yo'qori darajadagi ilmiy natijalarni ta'minlashga majbur bo'lmoqdalar, bunga ta'lim xizmatlari sifati, reklama va axborot faoliyatini qo'shib kelmoqdalar, va boshqa tomondan, ta'kidlash joizki, muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega innovatsiyalarni bozor qabo'l qilmaydi, agar ular korxonalar manfaatlariga javob bermasa.

Raqobat nafaqat hissa qo'shib kelmoqda, balki korxonalarni quyidagi yo'llarda innovatsiya bozorini yaratish va rivojlantirishda ishtirok etishga majbur qilmoqda:

- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun o'z ilmiy-tajriba bazasini yaratish va takomillashtirish;
- boshqa tashkilotlar bilan birgalikda qo'shma tadqiqotlarni tashkil etish;
- ta'lim va boshqa muassasalar uchun turli xil ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga olingan byuurtmalarini bajarish.

Biroq, amaliyot ko'rsatishicha, ko'pchilik yirik korxonalar innovatsion korxonalar emas. Tashqi muhit juda tez o'zgarib turadi, shuning uchun ham innovatsiyalarni o'z vaqtida amalga oshirish lozim. Bu muammo nafaqat raqobat bilan chambarchas bog'liq, balki vaqtga ham bevosita bog'liqdir, chunki yangi mahsulotni ishlab chiqarishga ketadigan vaqt ni sezilarli darajada qisqarishi tashkilotning samarali ishlashi uchun ob'ektiv zaruratdir. Yo'qoridagi tavsiflar korxonaning muvaffaqiyatga vaziyatish vositalaridir, ular bir-biri bilan bog'langan bo'lib tashkilotning innovatsion faoliyatdan oladigan samarasini kuchaytiradi.

Hozirgi kunda korxonalarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan turli omillarga bog'liq, jumladan global raqobat, tezkor texnologik rivojlanish va innovatsion muhitga bog'liq. Ularni malakali boshqarishda rahbariyat ushbu jarayonlarni o'z rivojlanishida hisobga olishlari lozim.

Korxonaning noyobligi uning rivojlanishida innovatsion tarkibiy qismi bilan belgilanadi, unga korxonaning bozordagi pozisiyasi, ilmiy-ma'rifikat faoliyati sifati, intellektual salohiyati darajasi, rivojlanish strategiyalari va innovatsion madaniyati kiradi.

Tashkilotning innovatsion faoliyatining asosiy belgilari - uning o'zluksiz rivojlanishga yo'naltirilganligi, prognozlar tuzish va ilmiy, ta'lim faoliyati sifati.

Korxonalar raqobatbardoshlikni ta'minlash va oshirish uchun mutaxassislarini yo'qori sifatlari tayyorlashni ta'minlashi kerak, bu yesa mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarish va taqsimlash sohalarida katta kuch va mablag'larni talab qiladi.

Korxonaning innovatsion rivojlanish menejmentini ushbu muhitning imkoniyatlari asosida tashkil etish lozim. Ya'ni tashkilotning innovatsion rivojlanish yo'llarini tashqaridan aniqlash va boshqarish maqsadga muvofiq emas, chunki bu kabi boshqaruv korxona ichidagi tabiiy rivojlanish jarayonlarini o'rnini bosa olmaydi. Shuningdek, rivojlanishning muqobil variantlarini amalga oshirish uchun ma'lum darajada harakatlar yerkinligini ta'minlash kerak.

Korxonada innovatsiyalarni samarali boshqarish uchun rejalashtirilayotgan o'zgarishlarni xodimlarning kutayotgan natijalari bilan taqqoslash zarur, korxonaning innovatsion salohiyati mavjudligi, shuningdek, barcha sub'ektlarni bo'lajak o'zgarishlarga jalb qilinganligi juda muhimdir.

Shunday qilib, barcha innovatsiyalarga mos keladigan universal boshqaruv tamoyillari yo'q degan xulosaga kelishimiz mumkin. Har bir vaziyatni ko'rsatkichlari turli bo'ladi va ularga natija bevosita bog'liq hisoblanadi, bu nafaqat tashqi muhitning ta'siri, balki innovatsiyalarning o'zi, innovatsiyalar haqida ma'lumot to'rlash, ularni joriy etish to'g'risida qaror qabo'l qilish kabi innovatsion jarayon bosqichlariga ham ahamiyatlidir. Bir xil tamoyillar turli bosqichlarda innovatsion jarayonga ham hissa qo'shishi, ham to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu belgilarni

bo'yicha korxona rivojlanishida mazkur sifat qadam qanchalik zarurligini aniqlash mumkin.

Agar innovatsion jarayonning ma'lum bosqichi korxonaning tarkibiy ko'rsatkichlarida jiddiy o'zgarishlarni talab qilsa, bu avvalambor, xodimlarning hatti-harakati, ular va innovatsiyalar o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlash, ularni o'qitish va yangiliklarni qo'llashni o'rgatish orqali bartaraf etiladi.

Ushbu jarayonda tashkilot - ijtimoiy tizim bo'lib, u tashqi kuchlar ta'siri ostidami yoki birdaniga xodimlarning yangiliklarga moyilligi ortishi natijasidami innovatsiyalarni joriy qulaymasin, lekin korxona faoliyatidagi muammolarni oldindan tahlil qilish orqali ongli ravishda, shuningdek ushbu muammolarni yechimini topish uchun innovatsiyalarni joriy etish jarayonini tashkil etadi.

Innovatsiyalar va ular bilan bog'liq o'zgarishlarni boshqarishning aksariyat modellari K.Levinning korxonada innovatsiyalarga nisbatan "ma'qul" va "qarshi" yo'lllariga bo'linadigan ikki guruh kuchlarning dinamik muvozanat holati borligi haqidagi faraziga asoslanadi. Korxonadagi o'zgarishlarni uch bosqichda amalga oshirish lozim: "eritish", "harakatlantirish" va "mo'zlatish" bosqichlari, bunda kuchlar muvozanatini saqlab qolish lozim.

Birinchi bosqichda o'zgarishga bo'lgan ehtiyoj mavjud vaziyatdan norozilik hissi tug'diradigan innovatsion muhitni yaratish orqali amalga oshiriladi.

"Harakatlantirish" bosqichida (yoki o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni), innovatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar taqdim etiladi, hatti-harakatlarning yangi shakllari va namunalari o'rganiladi. "Mo'zlatish" bosqichida o'zgarishlarning barqarorlashuvi yuzaga keladi, yangi texnologiyalar, hatti-harakatlarning yangi shakllari, namunalari va h.k. qo'llaniladi.

Shunday qilib, innovatsion faoliyatni to'rangan

texnologiyalar, bilimlar va uskunalarini tijoratlashtirishga mo'ljallangan texnologik, ilmiy, tashkiliy va moliyaviy chora-tadbirlar majmuasi deb ta'riflash mumkin. Innovatsion faoliyat natijalari, innovatsiyalar – bu yangi yoki takomillashtirilgan tovarlar (xizmatlar), shuningdek yangi sifatga ega tovarlar yoki xizmatlardir.

Shuningdek, innovatsion faoliyatni innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish, tarqatish va ulardan foydalanish bo'yicha ishlar sifatida ham tavsiflash mumkin, assortimentni kengaytirish yoki yangilash hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, tovarlar, xizmatlar sifatini oshirish, ularning texnologiyalarini takomillashtirish, ichki va tashqi bozorda samarali sotish uch un ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqish, qo'llash va tijoratlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ta'riflab Bo'lar barchasi chora-tadbirlar majmuasini talab etadi va oxir oqibat innovatsiyalarga olib keladi.

Zamonaviy mahalliy tadbirdorlar innovator bo'lishlariga qaramay ishlab chiqarishga chet yelda o'z samaradorligini isbotlagan texnologiyalar joriy etilmoqda.

Buning sababini bugungi kunda mamlakatimiz texnik nuqtai nazardan yetakchi emasligi bilan izohlash mumkin. Shu munosabat bilan biz uchun immitatsion rivojiantirish strategiyasi juda samarali hisoblanadi. Ammo O'zbekiston o'zining innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishini rag'batlantiradigan institusional o'zgarishlar zarur.

Ko'pincha korxonalar o'z ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun byudjet mablag'lari etishmasligida davlatni aublaudilar, bu omilni ularning innovatsion faolligida asosiy to'siq sifatida belgilaydilar.

Shu bilan birga, so'rov natijalariga ko'pa, bo'sh mablag'larga ega bo'lgan tashkilotlarning faqat yarmi ularni innovatsiyalarni joriy etishga sarflagan.

Shunday qilib, mavjud institusional muammoni yechilishi O'zbekiston korxonalarining innovatsion faolligini keskin

oshirmaudi. Bundan tashqari, misol uchun rejali iqtisodiyotda tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash innovatsiyalarning hajmini o'sishiga yordam bermadi.

Ta'kidlash joizki, innovatsiyalar ko'proq xorijiy raqobatga uchragan korxonalar tomonidan amalga oshiriladi, shuning uchun innovatsion loyihalarni to'g'ridan-to'g'ri davlat tomonidan moliyalashtirishdan ko'pa, bozorlarda raqobat muhitini shakllantirish, O'zbekiston korxonalari uchun kredit olish bo'yicha cheklovlarini kamaytirish va umuman moliya tizimini rivojlantirish bo'yicha choralar samariloq hisoblanadi. Bunday strategiya milliy iqtisodiyotni imitatsion modelidan innovatsion rivojlanish yo'lliga o'tish uchun zarur shartdir.

Innovatsiyalarni ishlab chiqish olimlar va muhandislar tomonidan amalga oshiriladi, ammo bu jarayonni tashkil etish, moliyalashtirish manbalarini izlash, ishlanmalarni joriy etish va bozorga tayyor mahsulotni joylashtirish bilan innovatsion menejerlar shug'ullanadilar. Ular O'zbekiston sharoitida deyarli yo'q bo'lganligi sababli, innovatsion-imitatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshiruvchi tashkilotlar o'z menejerlarini chet yelga o'qishga yoki amaliyot o'tash uchun yuboradilar. Bizning fikrimizcha, ushu muammoni hal qilishda milliy iqtisodiyotning innovatsion darajasini oshirish sohasida maqsadli davlat siyosati bo'lishi zarur.

O'zbekiston biznes-maktablarini g'arbiy uslubda ishlaydigan ta'lim institutlariga aylantirish milliy tashkilotlarning innovatsion faolligini oshirishga yordam beradi, bu yesa, o'z navbatida, barqaror iqtisodiy o'sishga olib keladi, chunki innovatsion menejment O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish tizimiga aylanadi va innovatika, ya'ni korxonalarning innovatsion faoliyatini mqlayodologiyasi va tashkil etilishi bo'yicha bilimlar sohasi shakllanadi.

Innovatsiyalar ishlab chiqilishiga investitsiya kiritish innovatsion jarayonning ajralmas qismidir. Bu yerda asosiysi

- yangilikni joriy etish, uni innovatsiya shakliga keltirish yoki ijobjiy natijaga vaziyatish. Jamiatning iqtisodiy rivojlanishi natijasida yangi, yanada samarali ishlab chiqarish omillari, investitsiyalar va ilg'or innovatsiyalar paydo bo'ladi.

Innovatsiyalar asosida rivojlanish nafaqat iqtisodiyotning balki fansig'imli tarmoqlarida amalga oshirilishi lozim, garchi ular innovatsiyalar hayotiy siklining bosqichlarida ishlab chiqarish ob'ektlari faoliyati sifatini oshirishga va resurslarni tejashga hissa qo'shsa ham, balki ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning intellektual o'zgarishini ta'minlaydigan ta'lim sohasida ham amalga oshirilishi kerak.

Shunday qilib, "innovatsiya" kategoriyasining tavsifi shundan dalolat beradiki, uning asosiy yelementi sifatida innovatsion faoliyatning pirovard natijasi - yangi mahsulot xizmat qiladi, shuningdek, yangidan yaratilgan yoki takomillashtirilgan texnik-texnologik jarayon hisoblanadi.

### **1. Innovatsiya faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari:**

- innovatsion faoliyotning umumiy darajasi;
- texnologik, tashkiliy va marketing innovatsiyasining rivojlanish darajasi.

### **2. Texnologik, tashkiliy va marketing innovatsiyalariga sarflanadigan joriy va kapital xarajatlar tarkibi va hajmi:**

- texnologik innovatsiya turlari bo'yicha xarajat ko'rsatkichlari;
- innovatsiya faoliyat turlari bo'yicha xarajat ko'rsatkichlari;
- innovatsiya turi bo'yicha xarajat ko'rsatkichlari;
- moliyalashtirish manbalar bo'yicha xarajat ko'rsatkichlari;
- tashkiliy innovatsiya bo'yicha xarajat ko'rsatkichlari;
- marketing innovatsiyasi bo'yicha xarajat ko'rsatkichlari.

### **3. Innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlar hajmi:**

- innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlar hajmi ko'rsatkichlari;
- innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlar yangiligi ko'rsatkichlari;

- innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlar eksporti ko'rsatkichlari;

- marketing innovatsiyasidan foydalangan holda tayyorlangan mahsulot, ishlar, xizmatlar hajmi ko'rsatkichlari.

#### **4. Iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan ta'sirni baholash imkonini beruvchi innovatsion faoliyat natijalari ko'rsatkichlari:**

- mahsulot, ishlar, xizmatlar assortimentini kengaytirish;
- bozorlar safini kengaytirish va ulardag'i ulushni oshirish;
- mahsulot, ishlar, xizmatlar sifatini oshirish;
- bandlik o'sishini ta'minlash;
- ishlab chiqarishni takomillashtirish.

#### **5. Yangi texnologiyalarni sotish va sotib olish jarayonlarini ifodalovchi texnologik ayrboshlash ko'rsatkichlari:**

- sotib olingen texnologiya ko'rsatkichlari;
- sotilgan texnologiyalar ko'rsatkichlari;
- texnologik ayrboshlash ko'rsatkichlari.

#### **6. Innovatsiya, ishlanmalar va tadqiqotlar sohasida iqtisodiyotning real sektori korxonalar bilan kooperatsiya aloqadorligi ko'rsatkichlari:**

- doimiy kooperatsiya ko'rsatkichlari;
- aniq loyiha doirasidagi kooperatsiya ko'rsatkichlari;
- aniq loyiha bilan bog'liq bo'limgan bir martalik norasmiy kooperatsiya ko'rsatkichlari;
- davlatlar va xududlar bo'yicha kooperatsiya ko'rsatkichlari;
- sheriklar o'rta sidagi kooperatsiya ko'rsatkichlari.

#### **7. Innovatsiya uchun ma'lumot manbalari ko'rsatkichlari:**

- ma'lumotlarning ichki manbalari ko'rsatkichlari;
- ma'lumotlarning bozor manbalari ko'rsatkichlari;
- ma'lumotlarning institutsional manbalari ko'rsatkichlari.

#### **8. Ilmiy-texnik ixtiolar va ishlanmalarni himoya qilish**

#### **usullaridan foydalanish ko'rsatkichlari:**

- himoyaning rasmiy usullari ko'rsatkichlari;
- himoyaning norasmiy usullari ko'rsatkichlari.

#### **9. Innovatsion faoliyatga to'sqinlik qilayotgan omillar ko'rsatkichlari:**

- iqtisodiy omillar ko'rsatkichlari;
- ichki omillar ko'rsatkichlari.

#### **10. Tashkiliy innovatsiya ko'rsatkichlari:**

- mahsulot, ishlar, xizmatlarning hayotiy davri;
- asosiy bozorlar;
- investitsiyalar;
- ishchilarning o'rtacha soni.

#### **11.2. Korxona faoliyatining strategik boshqarish.**

Hozirgi vaqtida korxonalar amaliyotida strategik boshqarishning ahamiyati ortib bormoqda. Bu ularning vakolatini kengayishi hamda o'zlarining iqtisodiy ahvoli uchun javobgarliklari darajasining oshganligi bilan bog'liqdir. Zamonaviy boshqarishning sifati korxonalar samaradorligini belgilab beradi. Shu bois korxonalarga eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Hozirgi vaqtida korxonalarning ko'pchiligi o'z taraqqiyotining konsepsiyasini, strategiyasini hamda dasturini ishlab chiqishi zarur.

Har qanday korxonaning uzoq muddatli yutuqlari ishlab chiqilgan strategiyaga bog'liq bo'ladi. Agar korxonaning rivojlanish strategiyasi bo'lmasa u yoki bu xatoliklar bilan ishlab chiqilgan bo'lsa, bu hol korxonaga bozorda barqaror va mustahkam o'rin egallash uchun imkon bermaydi. Zamonaviy ilm-fan va amaliyot strategik rejalashtirish hamda boshqarishning katta tajribasiga ega, ammo ko'pgina strategiyalar haligacha tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan

shart-sharoitlariga moslasha olmayarti. Bu hali hano'zgacha strategik boshqarishning barcha muammolari ham o'z yechimini tormaganligini ko'rsatadiki, bunday hol, birinchi navbatda, korxona rivojlanishi strategik barqarorligining mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq.

Strategik boshqaruv tizimida korxonaning kelajak faoliyatining rqlayrosrektiv ko'rsatkichlarini o'rganish va yekstrorflyasiya usulini qo'llash asosida belgilanishi nazarda tutiladi. Ekstrapolyasiya - bu o'tgan zamonda o'rnatilgan tendensiyalarni kelgusi davr uchun ham joriy etilishidir. Boshqacha autganda, prognoz ishlab chiqishda, kelgusida korxona faoliyatining shart-sharoitlari yomonlashmaydi, demak, o'tgan davrlarga nisbatan korxona faoliyatining yakuni yaxshi bo'lishligidan kelib chiqiladi. Korxona taraqqiyotini oshiruvchi tendensiya (trend)ning namoyon bo'lishi shundan iboratdir.

Korxonaning keljakdagi barqarorligini baholash uchun rivojlanish tendensiyasini (trendini) ifodalovchi kompleks integral ko'rsatkich ishla tiladi; chuqurroq tahlil qilish va zaxiralarni aniqlash uchun ko'rsatkichlarning kengaytirilgan tizimidan foydalaniladi. Shunday qilib, korxonaning keljakdagi barqarorligini baholash - korxona faoliyatining turli tomonlarini baholashni nazarda tutadi, buning ustiga, bunday baholash dinamiklikda va makonda amalga oshiriladi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham «tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish hamda eksport salohiyatini yo'qsaltirish»kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarning samarali ijrosi ishlab chiqarish korxonalari innovatsion faoliyatini zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirishni taqazo etadi.

Korxona to'g'risida tushuncha hosil qilish muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. Ko'pgina adabiyotlarda korxona to'g'risida

turlicha fikrlar keltirilgan. Masalan R.S.Muratov, I.A.Djalolova, S.Sh.Oripovlarning "Korxona iqtisodiyoti" darsligida korxonaga quyidagicha ta'rif berilgan. Korxona-ijtimoiy talablarni qondiruvchi va sof foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi iqtisodiyot sub'ektidir. I.O.Ulashev, Sh.A.Atamuradovlarning "Korxona iqtisodiyoti va menejmenti" o'quv qo'llanmasida esa korxonaga quyidagicha ta'rif berilgan. Korxona-bu jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanuvchi, aholining talabini qondirish va foyda olish yoki boshqa ijtimoiy funksiyalarni bajarish maqsadida, xususiy resurslardan foydalanish asosida mahsulotlar ishlab chiqaradigan, aurboshlaudigan, hamda boshqa ishlarni va xizmatlarni bajaradigan, faoliyati bo'yicha qarorlar qabo'l qiladigan va unga javobgar, huquqiu shaxs maqomiga ega bo'lgan, har xil o'lchamdagи xo'jalik yurituvchi sub'ektdir. Fikrimizcha, huquqiu shaxs huquqiga ega bo'lgan, mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish huquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan yoki mahsulotni aurboshlaudigan, ishlarni bajaradigan, xizmat ko'rsatadigan, bellashuv hamda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqliligi sharoitida amaldagi qonunlarga korxona hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxona o'zining faoliyati davomida davlat, fuqarolar va yuridik shaxslar bilan ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlarda bo'ladi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida o'zining katta hissasini qo'shadi.

Hozirgi paytda korxonani rivojlantirilishiga faqat innovatsiyalarni o'zluksiz ravishda joriy etilishi bilangina vaziyatish mumkin. M.Porter kompaniyalarning raqobatli ustunlikka vaziyatishlarida innovatsiyaning rolini quyidagicha aniqlagan: «....kompaniya raqobatdagi ustunlikni innovatsiyalar vositasida qo'lga kiritadi. Ular yangi kiritilgan tartib-qoidalarga

ham yangi texnologiyalardan, ham yangi ish usullaridan keng ma'noda foydalangan holda yondashadilar. Kompaniya yangiliklar tufayli raqobatdagi ustunliklarga vaziyatganidan keyin, bu ustunliklarni faqat muntazam ravishda yaxshilashlar yordamida qo'lda tutib turishi mumkin. Raqobatchilar innovatsiyalarni takomillashtirish va joriy etishdan to'xtagan har qanday kompaniyani darhol va albatta chetlab o'tib ketadilar».

Korxonaning raqobatbardoshligi deganda, iste'molchilar uchun raqobatchilarning tovarlariga nisbatan ko'proq o'ziga tortuvchan bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish va sotish tushuniladi. Raqobat muhitini o'zluksiz nazorat qilib turish – ishlab chiqarishni ehtiyojlarni eng samarali usulda qondirish uchun mo'ljallangan zarur shartidir. Raqobat muhitining holati haqidagi xulosalar, korxonaning innovatsion siyosatini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Mohiyatan, raqobatchilar ustidan vaziyatilgan ustunlik innovatsiyalar hisobidan bo'ladi va shuning uchun, korxona faoliyatidagi raqobatchilar ustidan vaziyatiladigan har qanday ustunlikni ta'minlovchi yangi yelementlarni joriy etishga bo'lgan layoqat, shu korxona raqobatbardoshligining zarur tashkil qulayuvchisidir.

Korxona barqarorligi, uning davomiulik jihatdan uzoq muddatga mo'ljallangan samarali faoliyat ko'rsatishini harakterlovchi murakkab iqtisodiy kategoriadir va korxonaning raqobatbardoshligi, iqtisodiy xavfsizligi hamda iqtisodiy samaradorlik kabi uchta yelementga asoslangan. Shuni ta'kidlash kerakki, bu yelementlar o'zaro chambarchas bog'liq va birgalikda faoliyat ko'rsatadi, biroq, turlicha funksional vazifalarga ega. Raqobatbardoshlik – korxona rivojlanishining salohiyatini, barqarorlik yesa – korxonaning uzoq muddatlari istiqbolini belgilaydi.

Korxonaning barqarorligini vaqtлага taqsimlangan raqobatbardoshlik, deb aytish mumkin. Vaqtning uncha katta bo'limgan intervallarida bu ikkala tushuncha teng kuchga ega

bo'ladi.

Korxonaning ishlab chiqarishni, mehnat va boshqarishni tashkil etishda, uning texnik hamda texnologik imkoniyatlarida ifodalangan ishlab chiqarish salohiyati – innovatsiyalarni o'z vaqtida ta'minlab beradigan yelementdir. Korxonaning ishlab chiqarish salohiyati qancha yo'qori bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarishga va uning sifatiga qilinadigan xarajatlar ulushining darajasi shuncha past bo'ladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning, raqobatchilar tovarlarining sifatidan yo'qori turuvchi sifati, innovatsion salohiyatning moddiy ifodalovchisidir.

Iqtisodiy tizimlar rivojlanishining innovatsion turiga o'tish zarurati tufayli yuzaga kelgan ob'ektiv sabablar, butun innovatsion-investision jarayonda ilmiy-teknikaviy va iqtisodiy omillarning samarali ravishda o'zaro hamkorlikda ishlash muammolarini kompleks hal etilishini talab qiladi. Fikrimizcha, texnologik va iqtisodiy salohiyatlarni oqilona uyg'unlashtirish – innovatsion-investision jarayonni boshqarishning markaziy masalasini tashkil etadi.

Korxonaning barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga baho berilgan. Unda korxonalardagi asosiy innovatsion yo'llar hamda innovatsiyalarni joriy qilishga salbiy ta'sir qiluvchi omillar, shu bilan birga innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda qo'llab-quvvatlashni ta'minlovchi omillar tahlil etilgan.

Omillarning ko'pligi, ularni muayyan belgilar bo'yicha tasniflanishini amalga oshirishga imkon beradi.

Korxonaning tashqiomillariga quyidagilarkiradi:iqtisodiyot sohasida davlatning inqirozga qarshi qaratilgan siyosati; mamlakatdagi demografik vaziyat; siyosiy barqarorlik; fan va texniqaning taraqqiyoti; transrort infratuzilmasini rivojlanganligi.

Ichki omillar korxonaning ichki muhitida, uning kichik tizimlarida (xodimlar, ishlab chiqarish, marketing, sotish, moliya, tashkiliy tuzilma) shakllanadi. Ichki omillarni

boshqarish korxonaga barqarorlikni mustahkamlashning rezervlarini aniqlash va tashqi omillar o'zgargan taqdirda, ishlab chiqarishni tezkor ravishda boshqarish imkonini beradi.

Korxonaning tizimli rivojlanishi markazlashtirishdan nomarkazlashtirishgacha bo'lgan bosqichlarni birinkulayinlik bilan bosib o'tish orqali amalga oshiriladi. Bu shuni anglatadiki, korxonaning har bir yelementi rejalashtirilganlik, tashkillashtirilganlik xususiyatiga ega bo'lib boradi.

Mohiyatiga ko'pa, korxona tomonidan boshqarishning nomarkazlashtirilgan sxemasiga o'tish ob'ektga, uni boshqa holatga o'tkazish uchun maqsadga yo'naltirilgan tashqi ta'sir sifatidagi boshqaruva raraqobatbardoshligini ta'minlashning zaruratidir. Boshqa tomonidan, korxona tashqi muhitdagi yaxlitlik sifatida, maqsadga yo'naltirilgan rivojlanish sifatida muayyan belgilarga ega bo'lishi kerak. Ularning asosiysi - boshqariluvchanlikdir. Shu munosabat bilan bunga o'xshash nomarkazlashtirish xususiyatiga ega bo'lgan korxonani boshqarish, an'anaviy shakldan farq qiluvchi boshqa shaklga ega bo'lib boradi.

Korxonani rivojlantirishning tizimli boshqarilishi, shakllantirilayotgan xususiyatlarning quyidagicha ketma-ketligida amalga oshirilishi mumkin: yegiluvchanlik-moslashuvchanlik- raqobatbardoshlik.

Korxonalarni faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilish, strategik boshqaruva usullaridan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari hamda ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga ko'pa, korxonalar innovatsion faoliyatining strategik boshqaruvini joriy qilish uchun eng avvalo boshqaruvdagi kadrlar bilim ko'nikma malakalarini oshirish, markazlashuv darajasini kamaytirish va bosqichlar orasidagi

ma'lumot almashish tizimiga yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish, boshqaruvdagi xodimlarni innovatsiyaga bo'lgan qiziqishini oshirish, rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish, har bir boshqaruvchini o'ziga yo'qlatilgan vazifalarni aniq va to'liq tushunishi hamda ularni o'z vaqtida bajarishini ta'minlash, norasmiy muloqotlar darajasini kamaytirish xizmat qiladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi butun ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismidir. Turli darajadagi xo'jalik faoliyatida investitsiyalarning iloji boricha ko'proq foyda, qaytim keltirishi asosiy vazifa qilib belgilanadi. Bu qoidadan chetga chiqish resurslarni yo'qotish, jamiyatning ilgarigi va hozirgi mehnatini yo'qqa chiqarishga olib kelishi mumkin.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati, qo'shimcha kapital qo'yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta quronantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va tashkiliy-texnik choratdbirlarni ishlab chiqish kabi barcha hollarda yuzaga keladi. Ba'zan mahsulotlarning yangi turini ishlab chiqarish ham investitsiya va boshqa mablag'lar kiritilishini, demak, xarajat va natijalar nisbatini avvaldan baholashni talab qiladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar ikkita vazifani hal qilishlari lozim:

**birinchisi** - kapital qo'yilmalarning qorlanish muddati va daromadliligi nuqtai nazaridan, eng maqbo'l variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investision loyiha samaradorligini baholash;

**ikkinchisi** - mavjud ishlab chiqarishga kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hoqazo).

Insonning ilmiy-texnik faoliyati natijasida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yoki ilgari mavjud bo'lgan turlarini

takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan jarayon innovatsion faoliyat hisoblanadi. Innovatsiyani joriy etish natijalari kompaniyalarga raqobatda muhim ustunlikka ega bo'lish imkonini beradiki, bu, korxona uchun muhim rag'batlantiruvchi omil bo'ladi.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, korxonalar ilm fandagi ilg'or resurs tejamkor ishlanmalarni joriy qilishidan manfaatdor ekanligini, ikkinchidan bu global tadbir natijasida Respublikamiz korxonalarini salohiyatini yanada rivojlantirish orqali uning investision jozibadorligini oshirish, uchinchidan, korxonalarda chuqur diversifikatsiyalash tadbirlarini amalga oshirish orqali barqaror va sifatlari tovar mahsuloti ishlab chiqarish hamda samaradorlikni tubdan oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Strategik boshqaruv faoliyatning o'ziga xosliklari tufayli korxonalarni barqaror rivojlantirishni moslashuvchan tizimini yaratish uchun resurslarni boshqarishda yangicha kompleksli yondashuv ishlab chiqish zarur. Korxonalarda resursni tejovchi texnologiyalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy shartlaridan biri – resursni tejovchi texnologiyalarni joriy etish jarayonini boshqarishga nisbatan ularni qo'llash sharoitlariga hamda korxonalarning rahbarlari va mutaxassislari tomonidan qabo'l qilinishining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish yo'li bilan ushbu texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga doir xorijiy tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan kompleks yondashuv zarur.

Resursni tejovchi texnologiyalarni joriy etish jarayonini boshqarishga nisbatan kompleks yondashuv to'rtta asosiy yo'l bo'yicha tizimli ishni nazarda tutadi: ishlab chiqarish tuzilmasini maqbo'llashtirish, korxonaning texnologik tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish va zamonaviy tashkiliy-boshqaruv innovatsiyalarini qo'llash.

Kompleks yondashuv resurs tejovchi texnologiyalarni joriy

etishning barcha yo'llari bo'yicha tizimli ishni nazarda tutadi.

Faqat shundagina korxona tabiiy resurslarning saqlanishi va tiklanishi; mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning tejalishi; ishlab chiqarish barqarorligi va samaradorligining oshishida o'z ifodasini topadigan sinergqulayik samaraga vaziyatish mumkin.

Respublikamiz korxonalarini barqaror rivojlanishi va boshqarishni o'ziga xos jihatlari amaliyotda keng foydalanib kelinayotgan SWOT-tahlil asosida baholanadi.

SWOT-tahlil strategik rejalshtirish usuli hisoblanib, tashkilotning ichki va tashqi muhitlardagi mavjud omillarini aniqlashga yo'naltirilgan. Ular to'rtta kategoriyaga ajratiladi, ya'ni Strengths (kuchli tomonlari), Weaknesses (bo'sh tomonlari), Opportunities (imkoniyatlar) va Threats (xavf-xatarlari).

## 2-jadval

### Korxonalar rivojlanishining SWOT tahlili

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari
Korxonalarni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilganligi	Korxonalarda zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirish bo'yicha kadrlar etishmasligi
Korxonalarga berilayotgan moliyaviy imkoniyatlar	Mahsulot va xizmatlarni eksport qilishda infratuzilmalar yetishmasligi
Korxonalarda eksport qilish imkoniyatlarining yo'qoriligi	Mahsulotlarni sotish va saqlashdagi muammolarning mavjudligi
Imkoniyatlari	Xavf-xatar yoki tahdidlari
Korxonalarda mahsulot va xizmatlarni diversifikasiyalash imkoniyatlari	Ichki va tashqi bozorlarda narx navoning o'zgarishii
Ichki bozordan foydalanish imkoniyatlari	Jahon bozorida raqobatning kuchayishi
Xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyati	Davlatlardagi iqtisodiy-siyosiy vaziyat o'zgarishi

Keltirilgan jadvaldan ko'pinib turibdiki, korxonalar faoliyatini boshqarishda kuchli tomonlar bilan bir qatorda, zaif tomonlari ham mavjud ekan.

Shuning uchun boshqaruva va xo'jalik sub'ektlari rahbarlari bo'sh tomonlarga alohida jiddiy e'tibor berishlari kerak, aks holda kutilgan iqtisodiy samaradorlikka vaziyatib bo'lmaydi. Oxir-oqibatda korxona faoliyati iqtisodiy rivojlanishning omili emas, balki uning teskarisiga aylanishi mumkin.

### **11.3. Sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini baholash.**

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan democratik bozor islohotlarining va O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining diqqat markazida turgan eng -muhim ustuvor vazifalardan biri – milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish sanaladi. Jumladan, “..milliy iqtiso-diyotning tarkibida sanoat ulushini ko'paytirish, yo'qori texnologiyali sanoat va qayta ishlash tarmoqlarini jadal rivojlantirish, sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, har bir hududning sanoat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash, yangi sanoat korxonalari va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish” deb ta'kidlangan.

Darhaqiqat, mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev mamlakatda mavjud iqtisodiyot tarmoqlari, xususan sanoat salohiyatini rivojlantirshning maqsadli dasturlari ijrosidagi kamchiliklarni tanqid qilgan holda “..islohotlarning qay darajada samara berayotganini ko'rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bo'lar qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning iqtisodiy va moliyaviy

ko'rsatkichlarini bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, darajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliylashtirish va rentabellik darajasini, mahsulot raqobatdoshligini so'zsiz oshirishdir” deb ta'kidlaudi.

Albatta istiqlol yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi sanoat tarmoqlari ham jadal rivojlangani holda neft va gaz, kimyo sanoati, avtomobilsozlik sanoati, qurilish materiallari va farmasevtika sanoati kabi yangi-yangi sanoat tarmoqlari shakllangani hamda rivojlangani holda bugungi kunda jahon bozoriga “O'zbekistonda ishlab chiqarilgan” tamg'asi ostida minglab sanoat tovarlari taklif qilinmoqda.

Bugungi kunda mamlakat YaIMda sanoatning ulushi 25,0 foizdan ortiqroqni, asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmida qariub 38 foizni, iqtisodiyotda band bo'lganlar umumiy sonida 14,0 foizni tashkil etgani holda 2007-2016 yillarning o'zida sanoat tarmog'i yiliga o'rtacha 8,5 foizdan ko'proq o'sib kelmoqda.

Albatta, yo'qoridagi islohotlarning barchasining zamirida davlat va nodavlat sektor korxonalarining barqaror sur'atlarda innovatsion salohiyatini ro'yobga chiqarib kelayotganligi yotadi. Shu sababli, bugungi globallashuv va milliy iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida milliy iqtisodiyot xususiyatlaridan kelib chiqqan holda innovatsion salohiyat, uni shakllanishi va rivojlanishini baholash, boshqarishning nazariy-uslubiy masalalarini kompleks tadqiq qilish, sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni rivojlantirish va boshqarish omillari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, Respublikada sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni oshirishning tashkiliy-huquqiu asoslarini takomillashtirish, innovatsion salohiyatni baholash usullarini qiyosiu o'rganish va sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmlarining zamonaviy holati va tendensiyalarini aniqlash o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shu sababli biz ushbu

maqolamizda innovatsion salohiyatning ayrim nazariy jihatlarini ko'rib o'tamiz.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning deyarli barchasida innovatsiyalar rivojlanishning manbai sifatida tan olingan. Innovatsion salohiyat nafaqat alohida iqtisodiy sub'ektning, balki butun bir tizimning ham rivojlanishini ta'minlovchi alohida asosiy o'sish manbai hisoblanadi.

"Innovatsion salohiyat" tushunchasi XX asrning 70 yillari oxiridan boshlab fanga faol kirib kela boshladi. U qator olimlarning uslubiy, nazariy tadqiqotlarida aniqlashtirilgan va ishlab chiqilgan. Biroq, shu kungacha ham mazkur tushunchaning dunyoda umumqabo'l qilingan yagona ta'rifiishlab chiqilgan emas. Har bir olim yoki mutaxassis o'z davlatining xususiyalarini inobatga olgan holda innovatsion salohiyatni o'ziga xos talqin etadi.

"Salohiyat" tushunchasining turli xil talqinlarini ko'rib chiqqan holda, innovatsion salohiyat ta'rifiga to'xtalamiz. "Salohiyat" tushunchasi lotincha "otentia" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "imkoniyat, kuch, kudrat" degan ma'nolarni bildiradi. Katta iqtisodiy lug'atda "salohiyat" tushunchasi "mavjud vositalar majmui", "har qanday sohadagi imkoniyatlar" mavjud manbalar, vosita, zahira," sifatida ta'riflanadi.

"Salohiyat" tushunchasining yo'qorida keltirilgan talqinlarning umumiyligi jihat sifatida muayyan maqsadlarga vaziyatishda talab qilinadigan, zarur bo'lgan ba'zi vositalar majmuining, nimanidir amalga oshirilishida qandaydir imkoniyatlarning mavjudligidan tashkil torgani.

Korxonaning iqtisodiy hayotiy sikli innovatsion salohiyatni baholashda va uning raqobatbardoshligini aniqlashda muhim tarkibiy qism sifatida qaraladi va mavjud iqtisodiy salohiyatdan foydalananlik natijasi, uni yanada rivojlantirish asosi hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda "iqtisodiy salohiyat" tushunchasining bir qancha talqinlari mavjud. Shuningdek, myalliflar iqtisodiy

salohiyatning "innovatsion salohiyat" kabi kategoriya bilan o'zaro aloqalariga turlicha qarashadi. Masalan, **birinchi yondashuvda** iqtisodiy salohiyatni milliy iqtisodiyot tarmoqlarining barcha imkoniyatlari sifatidagi talqini. L.I.Lopatnikova, L.R. Kurakova, V.N. Mosina va D.M. Krug iqtisodiy salohiyatni - "halq xo'jaligining sanoat, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, kapital qurilishni amalga oshiruvchi, yo'q tashish va aholiga xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha imkoniyatlar" sifatida talqin etiladi.

**Ikkinci yondashuvda** B.P'yashhevskiu, A.V. Todoseychuk, Yu.Lyuchkin va A.Syigichko kabi MDH olimlari iqtisodiy salohiyatning amalda mavjud bo'lgan barcha mehnat, investision, moliyaviy resurslar sifatida talqin etishadi hamda "salohiyat" tushunchasini mazmuni jihatdan "resurslar", "investitsiya", "investision resurslar", "ish bilan bandlar soni" kabi tushunchalar bilan o'rnini almashtirishadi.

Fikrimizcha, "resurslar" va "salohiyat" tushunchalari rrinsirial jihatdan bir qator farqlarga ega. Jumladan, resurslar tizimning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati sub'ektlariga bog'liq bo'limgan holda mavjud tizimning salohiyati bo'lsa ijtimoy-iqtisodiy faoliyat sub'ektlaridan ajralmasdir.

Shuningdek, "salohiyat" kategoriyasi moddiy va nomoddiy resurslardan tashqari, ijtimiy-iqtisodiy tizimning mavjud resurslar yoki vositalardan foydalangan holda yuqori unumdarlikka erishish imkoniyatlaridan, qobiliyat va tayyorgarlikdan tashkil topadi.

**Uchinchi yondashuv** "iqtisodiy salohiyat" tushunchasi "iqtisodiy kuch" va "halq xo'jaligi salohiyati" tushunchalari bilan bir xil, sinonim deb qaraladi. Boshqa bir muallif esa bunga qarama-qarshi fikr bildirib "halq xo'jaligi" tushunchasi o'z navbatida "iqtisodiy" tushunchasidan kengroq ma'no kasb etganligi tufayli "halq xo'jaligi salohiyati" kategoriyasi "iqtisodiy salohiyat" kategoriyasiga qaraganda kengroq ekanligini ta'kidlab o'tgan.

**To'rtinchi yondashuvda** yesa iqtisodiy salohiyat xo'jalik faoliyati sub'ektlarining o'zaro sanoat va iqtisodiy munosabatlарining natijasi sifatida talqin qilinadi. L.S.Sosnenkoning fikricha, iqtisodiy salohiyatga ijtimoiy va sanoat tizimining tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda ularning imkoniyatlaridan to'laligicha foydalanishiga, sanoat va boshqaruv aloqalari bilan bog'liq holda qarash kerak.

Amaldagi salohiyatni asosan, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi tashkiliy darajasida vaziyatilgan va ishlab chiqarish apparatining salohiyat imkoniyatlaridan maksimal foydalanish darajasida yaratilgan asosiy fondlar majmui va sohalarning yalri mahsuloti qiymati yoki davlatning umumiy YaIM tavsiflaudi. Istiqboldagi iqtisodiy salohiyat yesa resurslardan ortimal foydalanilib, ideal ishlab chiqarish sharoitlarida vaziyatiladigan tovar va xizmatlarning mumkin bo'lgan eng yo'qori hajmda ishlab chiqarilishini oldindan belgilaydigan xo'jalik tizimining maksimal imkoniyatlari orqali belgilanadi.

